

**KAUZATOLOGIYA ASOSLARI** \* *Monografiya*

**B.N.Turniyazov,  
R.B.Turniyazova**

**KAUZATOLOGIYA  
ASOSLARI**

*Monografiya*

ISBN 978-9910-9150-3-1



9 789910 915031

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI**

*Bismillahir Rohmanir Rohim*

**B. N. Turniyazov, R. B. Turniyazova**

# **KAUZATOLOGIYA ASOSLARI**

**Monografiya**

“Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti  
Samarqand – 2024

**UO‘K: 811.512.133:81-13**

**KBK: 81.2 (O‘zb) – 5**

**T: 87**

**Turniyazov Behzod Ne‘matovich, Turniyazova Ruxsora Behzod qizi. Kauzatologiya asoslari.** Monografiya. – Samarqand: “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti, 2024. – 110 bet.

*Monografiya hozirgi o‘zbek tili kauzatologiyasi muammolari tadqiqiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda lingvistikaning yo‘nalishlaridan biri sifatida kauzatologiya sohasining shakllanganligi ilmiy asoslab berildi. Ishda kauzatsiyaning mental, semantik, leksik, morfologik, sintaktik kabi turlarining tekshiruv obyekti xususida so‘z boradi.*

*Monografiyadan oliy o‘quv yurtlari filologik yo‘nalishi fakultetlarining professor-o‘qituvchilari, tadqiqotchi hamda magistrantlari foydalanishlari mumkin.*

**Mas’ul muharrir:**

filologiya fanlari doktori, prof. R.R.Sayfullayeva

**Taqrizchilar:**

filologiya fanlari doktori, prof. T.A.Bushuy

filologiya fanlari doktori, prof. A.M.Turobov

filologiya fanlari doktori, prof. A.B.Pardayev

Ushbu monografiya Samarqand davlat chet tillar instituti Kengashining 2024-yil 5-iyul kuni o‘tkazilgan 10-11-sonli qo‘shma yig‘ilish bayonnomasi bilan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-9150-3-1

© B.N.Turniyazov, R.B.Turniyazova, 2024

© “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti, 2024

## **MUNDARIJA**

<b>Mualliflardan .....</b>	<b>5</b>
<b>I bob</b>	
<b>Mental kauzatsiya.....</b>	<b>6</b>
<b>II bob</b>	
<b>Semantik kauzatsiya.....</b>	<b>26</b>
<b>III bob</b>	
<b>Leksik kauzatsiya .....</b>	<b>46</b>
<b>IV bob</b>	
<b>Morfologik kauzatsiya .....</b>	<b>56</b>
<b>V bob</b>	
<b>Sintaktik kauzatsiya .....</b>	<b>76</b>
<b>Xulosa .....</b>	<b>99</b>
<b>Ismlar va predmet ko‘rsatkichi .....</b>	<b>100</b>
<b>Adabiyotlar.....</b>	<b>104</b>

*Dadam – filologiya fanlari doktori, professor,  
Samarqand derivatologiya maktabi asoschisi  
Ne'mat Qayumovich Turniyazovning yorqin  
xotiralariga bag'ishlanadi*



## MUALLIFLARDAN

Mazkur ishning asosiy maqsadi kauzatsiya hodisasi va u bilan uzviy aloqador masalalarning ilmiy talqinini berishdan iboratdir. Kauzativizatsiyani o'rganuvchi soha «*kauzatologiya*» deb nomlanib, unig o'rganish obyekti ilmiy asoslandi. Shu mavzuda avval nashr etilgan monografiyamizda kauzatologiyaning shakllanishi tarixi xususida batafsil ma'lumot berganimiz bois, hozirgi ishimizda bu haqda to'xtalmadik. Ushbu ishda mental, leksik, semantik, morfologik, sintaktik kauzatsiya masalalari derivativ rejada talqin etildi.

Monografiya o'zbek tilshunosligida kauzativlik mavzusi yoritilgan ikkinchi tadqiqot ishi bo'lib chop etilmoqda. Uning boblarida aks etgan masalalar kengaytirilib, alohida tadqiqotlarning mavzusi bo'lishi mumkin.

Ishning semantik hamda emotiv kauzatsiyaga bag'ishlangan ikkinchi bobi ingliz tili o'qituvchisi R.B.Turniyazova tomonidan, mental, leksik, morfologik, sintaktik kauzatsiya muammolari bayon etilgan birinchi, uchinchi, to'rtinchi va beshinchi boblari filologiya fanlari doktori B.N.Turniyazov tomonidan yozildi.

Kauzatologiya sohasining o'rganish obyekti o'zbek tilshunosligida endi kun tartibiga qo'yilayotgani bois, ko'p o'rinlarda u yoki bu masala tadqiqiga mutlaqo mustaqil yondashishga to'g'ri keldi.

## *Birinchi bob*

### MENTAL KAUZATSIYA

*O'tgan asrlar bilan suhbatlashish,  
deyarli sayohat qilishga teng.*

(R.Dekart)

Mental kauzatsiya subyektlar o'rtasidagi ruhiy holatlarni va uni keltirib chiqaruvchi sabablarni o'rganadi. «*Mentallik*» termini lotin tilidan olingan bo'lib, *aql, idrok, tafakkur, fikrlash usuli* kabi qator ma'nolarni anglatadi. Mental kauzatsiya insonning ijodiy faoliyati, maqsadi, istaklari bilan bog'liqdir. U fikrlar, g'oyalar, his-tuyg'ularning paydo bo'lishi va bu tushunchalar nimaning ta'sirida vujudga kelishi sababini tekshiradi.

D.I.Dubrovskiyning fikricha, mental kauzatsiya inson ongiga turli informatsiyalarning ta'sir etishi oqibatida amalga oshadi<sup>1</sup>. Darhaqiqat, miyamizga ta'sir etayotgan informatsiyalar oqibatida turli ruhiy hamda jismoniy qo'zg'alishlar vujudga keladi. Bular jumlasiga mehr-oqibat, sevinch, ishonch, muhabbat, ilm yoki hunar o'rganishga bo'lgan ehtiyoj, nafrat, g'azab, yalqovlik, tovlamachilik hatto davlatlar o'rtasidagi nizolar, kelishuvlar va hokazo tushuncha hamda jarayonlarni kiritishimiz mumkin.

Insonshunoslik sohasida mazkur termin ostida milliy qadriyatlar, psixologik reaksiyalar, xulq-atvor, moslashish, tarbiya, din va madaniyatga bo'lgan munosabat masalalari o'rganiladi.

Umuman, mentallik muayyan xalqqa xos bo'lgan va umume'tirof etilgan, individual, hissiy, aqliy, madaniy tushunchalarni o'zida mujassam etgan majmuadir. Shu sababli mentallik psixologiya, tibbiyot, dinshunoslik, biologiya, geografiya, falsafa, adabiyot, san'at, tilshunoslik, sotsiologiya kabi bir qancha fanlar bilan uzviy bog'lanadi. Biz mentallikni tilshunoslik ilmi nuqtayi nazaridan o'rganib, uning kauzativlikka bo'lgan munosabatini tahlil etmoqchimiz.

---

1. Дубровский Д.И. Психическая причинность, как вид информационной причинности//Российская академия наук №5-1, 2011. -С. 38-44.

Ta'kidlash joizki, lingvistikada mental kauzatsiya masalasi til falsafasi asosida tadqiq etiladi. Mental kauzatsiya muammosi zamonaviy analitik falsafaning asosiy predmetidir. Analitik falsafa XX asr falsafasidagi amerikacha yo'nalish bo'lib, neopozitivizmning boshqa bir ko'rinishidir. Unda mental xususiyatlarning kauzal samarasi imkoniyatlari, borliqni anglash naturalistik nazariya asosida tushuntiriladi. Bunga misol qilib J.Syorlning biologik naturalizm g'oyasiga tayanilgan falsafasini keltirishimiz mumkin. Falsafaning mazkur yo'nalishida falsafani bilishning til vositalari orqali tahlili deb tushunilgani uchun unda tilga oid fikrlar ham bayon etiladi. Masalan, J.Syorlning fikricha, tilga ega bo'lish uchun kishi tafakkurga ega bo'lishi kerak. Hayvonlarning ham tafakkuri mavjud, ammo tili yo'q. Buning sababi shundaki, ularda sotsial reallik yetishmaydi. Zero, til tafakkur, sotsial reallik va ijtimoiy kelishuv mahsulidir<sup>1</sup>.

Faylasuf biologik naturalizm tarafdori bo'lgani uchun ham til haqida bunday noo'rin da'voni ilgari suradi. Agar hayvonlarda tafakkur bo'lganida edi ular odamlar ustidan hukmronlik qilishar edi. Aksincha, insonlarnikidan farq qilsa-da, ular sotsial reallikka ega. Sotsial reallik insonlar uchun umumiy qabul qilingan qonunlar va ijtimoiy normalarni o'z ichiga olgan shaxslar o'rtasidagi o'zaro munosabat natijasini taqozo etadi. Ammo hayvonlar o'rtasida ham o'zaro ta'sir, umumiy qabul qilingan tabiiy qonuniyat mavjud. Ularda tafakkur yo'qligi uchun ham ijtimoiy g'oya haqida so'z yuritib bo'lmaydi. Shu bois ham biz tilni tafakkur, mehnat va jamiyatning bir xilda rivojining mahsuli deb bilamiz, balki ijtimoiy kelishuvning emas.

Ta'kidlash joizki, tilshunoslikka naturalizm g'oyasining kirib kelishi nemis olimi A.Shleyxer nomi bilan bog'liqdir. Lekin A.Shleyxerning mazkur g'oyasi qator tilshunoslar tomonidan qattiq tanqid ostiga olingan<sup>2</sup>. Shu bois tilni bu kabi talqin etishni asossiz deb bilamiz hamda ushbu g'aliz g'oyaga qo'shila olmaymiz.

---

1. Bu haqda qarang: Васильев В.В. Трудная проблема сознания. -М.: Прогресс-Традиция, 2009. -С. 54-105.

1. Qarang: Расулов Р. Умумий тилшунослик. -Тошкент: Низомий номидаги ТошДПУ, 2010, 95-бет.



Ma'lumki, tafakkur psixologiyaning tekshiruv obyekti bo'lib, u mantiq hamda falsafa bilan ham aloqadordir. Bu esa, o'z navbatida, mantiq, axloq, dunyoning mohiyatini idrok etish kabilarni sistemaga solishni taqozo etadi. Mazkur tushunchalar faylasuf olimlar tomonidan aytilgan fikrlarda miloddan avvalgi IV asrlardayoq o'zgarimas substantsiya sifatida o'z ifodasini topgan. O'z davrida Aristotel ishlarining muharriri Antronokos ushbu muammolarning tadqiq etilishini «*metafizika*» termini bilan nomlashni taklif etgan<sup>1</sup>. Ruhiiy holat jarayonining inson xulq-atvoriga ta'siri mantiq va falsafada azaldan keng o'rganilgan. Garchi qadimda mental kauzatsiya deb nomlanmagan bo'lsa-da, mavjud sohaning tekshiruv obyekti xususidagi masalalar Platonning «Fedon» va Aristotelning «Ruh haqida» asarlarida izohlab o'tilgan<sup>2</sup>.

O'rta Osiyo mutafakkirlari ham bu xususda ilmiy mulohazalarini bayon etib o'tishgan. Masalan, Abu Ali ibn Sino mental kauzatsiyani borliq to'g'risidagi ta'limotdir deb baholagan edi<sup>3</sup>. Mental kauzatsiya ong va moddiy dunyo o'rtasidagi sababiy bog'liqlikni, xususan, inson ongining uning xatti-harakatlariga ta'sirini o'rganishi jihatida bilan, bizningcha, metafizikaga juda yaqin turadi. Hozirgi kunda ham ijtimoiy va ilmiy psixologiyada, falsafa va kognitivlik fanlarda mental kauzatsiya muammosi keng muhokama mavzusi bo'lib qolmoqda.

Shunday qilib, kauzativlikning mental xususiyatini lingvistik jihatdan o'rganishda tilning milliy qadriyatlar, xulq-atvor, tarbiya, madaniyat, his-tuyg'u kabi tushunchalar bilan bo'g'liq bo'lgan kauzal munosabati xususida mulohaza yuritiladi.

Tilni Alloh taolo ilohiy go'zallik bilan yo'g'riltirib, Odam atoga in'om etgandan so'ng mazkur til insoniyat muloqotining sivilizatsiyasi oqibatida degradatsiyaga uchrab bir qancha turlarga bo'linib ketdi va har bir til ma'lum bir jamoani o'zaro birlashtiruvchi, shu bilan birga, boshqa jamoalardan farqlovchi funksiyani o'tay boshladi. Boshqacha aytganda,

---

2. Bu haqda qarang: Каратини Р. Введение в философию. -М.: Эксмо, 2003.

3. Bu haqda qarang: Платон. Собрание сочинений в четырёх томах. Т. II. -СПб.: Изд-во Санкт-Петербургского университета, 2007; Аристотель. Сочинение в четырёх томах. Т. I. -М.: Мысль, 1976.

4. Bu haqda qarang: Элиаде М. История веры и религиозных идей. Т. III. -М.: Критерион, 2002.

til insoniyatning millatini farqlashga xizmat qila boshladi. Bu tilning mental xususiyati bo‘lib, mazkur kauzatsiya orqali hudud, ijtimoiy hayot, madaniyat, millatning o‘zini anglashi kabi faktorlar tarmoq ota boshlaydi. Shu asosda til muayyan xalqqa xizmat qila boshlaydi va til sifatida e’tirof etiladi. Ammo shunday jamoalar ham bor, ularda til va jamiyat o‘rtasidagi kauzal munosabat boshqacha formada kechadi. Masalan, Shveysariya davlatida nemis, fransuz, italyan hamda retroroman tillaridan foydalanishadi. Mordoviyada fin-ugor, erzyan, mokshan, Samarqandda o‘zbek, tojik va rus tillaridan. Mazkur vaziyatda nafaqat til va jamiyat, balki tillar o‘rtasida ham kauzal munosabat kuzatiladi. Lekin bu kauzal munosabat orqali millatlararo nizolarni hal qilib, davlatning ma’muriy tuzilmasini o‘zgartirib, jamiyat a’zolarining etnik maqomini aniqlab bo‘lmaydi. Zotan, til o‘z holicha hech qanday siyosiy g‘oyani va mafkurani targ‘ib etmaydi. U o‘zining grammatik qonuniyati asosida yashaydi va unga bo‘ysunadi. Jumladan, VII asrlarda O‘rta Osiyoga arablarning, o‘tgan asrning 40-yillarida sobiq ittifoq davlatiga fashistlar Germaniyasining bostirib kirishida arab yoki nemis tillarining aybi yo‘q. Bu dushmanimning tili uni o‘rganmaslik kerak deb bo‘lmaydi. Ammo buning oqibatida bir millatning tili boshqa millat tilida chuqur iz qoldirishi mumkin. Kauzallikning mazkur ko‘rinishida ta’sirga tushgan tilning lug‘at boyligi o‘zgarib, asl tildagi so‘zlar unutilib ketishi ham mumkin. Masalan, *Gaiti kreol* tilini olaylik. Mazkur til XVII-XVIII asrlarda Fransiyaning San-Domingo (hozirgi Gaiti) koloniyasida qul savdosi vaqtida fransuz quldorlari va qul bo‘lgan afrikaliklar o‘rtasidagi aloqa natijasida vujudga kelgan. Uning so‘z boyligini XVIII asr fransuz tili leksikasidagi elementlar tashkil etsa-da, grammatikasi G‘arbiy Afrikaning volta-Kongo tiliga asoslandi. Natijada yangi gibril til paydo bo‘lgan.

Mental kauzatsiyaning tilga xos ko‘rinishi O‘rta Osiyoda arablar istilosidan so‘ng yuzaga kela boshladi. Jumladan, arab tili o‘zbek adabiy tilining shakllanishi va rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. O‘zbek tilida arabcha so‘zlar so‘zlashuv nutqida ham, adabiy tilda ham keng qo‘llanadi. Arabcha so‘zlar o‘zbek tili lug‘at boyligining yarmini tashkil etadi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Umuman, mental kauzatsiya vaziyatida ta’sir

etuvchi etnik butunlik kuzator maqomida bo‘ladi. Kuzant holatidagi etnik butunlikning ijtimoiy tushunchalarida keskin o‘zgarishlar kuzatiladi. Masalan, arablar istilosidan so‘ng kuzant holatdagi O‘rta Osiyo xalqlarining yozuvi, dini umuman o‘zgardi, san’ati, madaniyati, urf-odatları, tili ham o‘zgarishlarga uchradi. Shu holatga moslashgan O‘rta Osiyo xalqlari sho‘rolar tuzumida ikkinchi marotaba mental kuzatsiyani boshidan o‘tkazdi. Natijada madaniyat, san’at, urf-odat, til yana o‘zgarishlarga uchradi, yozuv almashdi, din shundayligicha qoldi. Jumladan, tilimizning kuzatsiyaga uchraganini quyidagi misollarda yaqqol ko‘rishimiz mumkin:

*Bilgə Tonyuquq, bən, o‘zum, Tabg‘ach ilingə qylintym, Turk bodun Tabg‘chqa ko‘rur ərti. Turk bodun qanyn bolmayyn Tabg‘achda adrylty. ...*

(To‘nyuquq bitiktoshidan)

*Yuzinda ishq asrori yozilg‘on,  
Ichinda dard ta‘vizi yozilg‘on.*

(Alisher Navoiy. Farhod va Shirin)

*Aqlimiz va shuurimiz – Gosplan,  
Miyamiz – globus,  
Millimetrasi – ming kilometr.  
Har chizig‘i  
Qurilishdan bir belgi – Yutuqlardan bir plyus.*

(G‘.G‘ulom. Turksib yo‘llarida)

*Ostonada askar ko‘rindi. Momo o‘zini o‘g‘lining bag‘riga otdi.  
Yuzini o‘g‘lining bag‘riga bosdi...*

*–Ты похудела, мамашка, ничего, старость – не радость!*

*...Askar onasini yuratdi:*

*–Ну, мамаша, хватум!*

*...Mo‘ysafid otasining toqati toq bo‘lib, yorildi:*

*–Ulim, erta birov aytgan ekan, otangni ko‘rdim – ahmadi forig‘,  
enangni ko‘rdim – tovonni yoriq, deb. Otang shul, enang shul, qo‘y endi,  
o‘z tilingda gapir.*

*–Hy, даёшь, нанаша, даёшь!*

(Tog‘ay Murod. Qo‘shiq)

Ko‘rib turganimizdek, ohoriga hali putur yetmagan qadimgi turkiy til tashqi ta‘sirlarga uchragandan keyin hazrat Navoiy yashagan davrlarida arabcha so‘zlarning iste‘molga kirib kelganining, ustoz G‘.G‘ulom ijodida rus tili orqali o‘zlashgan so‘zlarning ko‘p qo‘llanganining guvohi bo‘lamiz. Oxirgi misolda esa o‘zbek yigitining harbiy xizmatdan qaytgandan so‘ng to‘liq ruscha gapirayotganini kuzatamiz.

Umuman, sho‘rolar tuzumida «sovet mentaliteti» degan tushuncha paydo bo‘ldi. O‘sha vaqtlarda o‘n beshta respublikaning yashash tarzi bir-birinikiga o‘xshab ketar edi. Chunki ijtimoiy hayot, madaniyat, san‘at, adabiyot sotsialistik realizm yo‘nalishida taraqqiy etar edi. Mazkur g‘oyaga asoslangan til siyosati o‘laroq rus tili asosiy darajaga ko‘tarildi. Shunday bo‘lsa-da, ziyolilarimiz milliy madaniyatning, o‘zbek tilining ravnaq topishi uchun astoydil kurashishdi. Bu sohada mehnat qilgan Sh.Rahimiy, N.Said, A.Yo‘ldoshev, Sh.Zunnun, Q.Ramazon, A.Fitrat, Elbek, G‘.Yunusov, A.Zohiriy, A.Avloniy, H.Niyoziy, Y.Polivanov, K.Yudaxin, V.Reshetov, S.Ibrohimov, A.G‘ulomov, U.Tursunov, S.Mutallibov, O.Usmonov, F.Kamolov, H.G‘oziyev, F.Abdullayev, M.Asqarova, O.Azizov, Sh.Shoabdurahmonov, G‘.Abdurahmonov, Sh.Rahmatullayev, M.Mirzayev, A.Hojiyev, A.Rustamov kabi ustozlarimizni hurmat ila tilga olamiz.

Sho‘rolar tuzumi taraqqiy etgan davrda bolalarni rus tiliga ixtisoslashgan maktablarda o‘qitish nufuzli bo‘lib qoldi. Hatto millati rus bo‘lmagan ayrim oilalarda rus tilida so‘zlashish odatiy holga aylandi. Bu zayilda ketaversa, qardosh tillarning nufuzi tushib ketishi aniq edi. Shu bois o‘rta maktablar uchun o‘ta sifatli darajadagi o‘zbek tili darsliklari yaratildi. Oliy o‘quv yurtlariga kiruvchilardan filologik yo‘nalish bo‘lmasa ham, o‘zbek tilida insho yozish talab etildi. Husnixatga, savodxonlikka, o‘quvchining nutqiga juda katta e‘tibor qaratildi. Bu holat til siyosati bilan bog‘liq bo‘lib, mental kauzatsiyaning siyosiy jarayonlar bilan ham aloqadorligini ko‘rsatadi.

Shunday qilib, til kauzatsiyasi nuqtayi nazaridan hozirgi o‘zbek adabiy tilini oladigan bo‘lsak, mazkur til kauzant maqomida bo‘lib, fors-tojik, arab va rus tillari kauzator vazifasini o‘taydi. Bu kauzatsiya oqibatida *daraxt, non, bahor, sartarosh, navro‘z, chorpoya, xokandoz, go‘sht, yakshanba, dushanba* kabi fors-tojikcha; *oila, muhandis, assalomu alaykum, kitob, qalam, daftar, qassob, kosib, san‘at, maktab* kabi arabcha; *vertolyot, samolyot, pero, pochta, ruchka, asfalt, teatr, gazeta, samovar, mashina* kabi ko‘plab ruscha so‘zlar lug‘at boyligimizning ajralmas qismiga aylanib qoldi.

Shuni aytish kerakki, turkiy xalqlardan qozoq, qirg‘iz, tatar kabilarning so‘zlashuv tillarida rus tilining kauzator vazifasini o‘tashi o‘zbek tilidagiga nisbatan ko‘proq foizni tashkil etadi. Tatarlarning rus tilida gapirishi tabiiy, chunki ular Rossiya hududida yashashadi. Ammo qozoqlar va qirg‘izlar shu darajada rus tilining ta‘siriga tushib qolishganki, bu tilni o‘zlarining ona tillariga qaraganda ham yaxshiroq bilishadi. Masalan, keyingi ma‘lumotlarga qaraganda Qozog‘istondagi aholining 85%i ko‘proq rus tilida so‘zlashar ekan. Bundan 50 yil oldin Qozog‘istonda qozoqlardan ko‘ra ruslar ko‘pchilikni tashkil etar edi. Rus etnik guruhining Qozog‘istondagi mental kauzatsiyasining asosiy sababi shundaki, qatag‘on yillarida surgun qiligan ruslarni Qozog‘istonga jo‘natishgan. Bundan tashqari, 1930-yillardagi ocharchilik tufayli ko‘hmanchi qozoqlarning ko‘pchiligi ochlik va sovuqdan vafot etishgan. Urushdan so‘ng qo‘riq yerlarni o‘zlashtirish va atom sanoatini rivojlantirish munosabati bilan bu yerga keluvchi rus tilida so‘zlashuvchilarning oqimi yana ko‘paydi. Bu, albatta, mahalliy aholi foydasiga emas, balki mintaqa demografiyasiga ta‘sir etdi. Demak, mental kauzatsiya insonlarning faqat tiliga emas, balki yurish-turishi, madaniyati, bixevioristikasi, psixologiyasi, kiyinishi va diniga ham ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Masalan, g‘arb madaniyati ta‘siridagi kiyimlarni yoki din ta‘siridagi hijobni aytishimiz mumkin.

Bugungi kunda internet va ommaviy madaniyat rivojlanib ketgan davrda kuchli integratsiya jarayonlari kuzatilmoqda. «Globallashuv» termini hozirgi kunda zamonning taraqqiy etishini tahlil etishda asosiy tushunchaga aylanib qoldi. Globallashuv vaziyatida katta tillar kichik

tillarga o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. Rus va g‘arb mamlakatlari madaniyati, adabiyoti, kino san’ati, kompyuter texnologiyasi vositalari MDH (Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi) mamlakatlariga jadallik bilan kirib kelmoqda. Hozirgi kunda dunyoda rus tilida so‘zlashuvchilarning soni 300 millionga, ingliz tilida so‘zlashuvchilarning soni 1,5 milliardga yetdi. Axborot asrida bizda ko‘pchilik o‘z tiliga nisbatan rus va ingliz tillarini nufuzliroq deb bilmoqda. Millatlarning integratsiyalashuvi anchayin qarama-qarshiliklarni keltirib chiqarmoqda. Masalan, ingliz tilining tijorat va axborot texnologiyalari tili sifatidagi kauzatsiyasi, bir tomondan, millatlarning yaqinlashuviga hissa qo‘shsa, ikkinchi tomondan, amerikacha mafkuraning urug‘ini ekmoqda. Bu, o‘z navbatida, madaniyatlar va tillarning tobodondek ko‘rinishiga pytur yetkazmoqda. Millatlar «*qadriyatlar inqirozi*» jarayonini boshidan kechirmoqda. Global munosabatlar tizimiga moslashish uchun milliy madaniyatlar va milliy tillarning o‘ziga xos xususiyatlarini yo‘qqa chiqarish jinoyatdir.

Ushbu mulohazalarimiz bilan biror bir tilni kamsitmoqchi emasmiz, albatta. Zero, tillar o‘rtasidagi kauzal munosabat ijtimoiy tushuncha bo‘lib, u vaziyat taqozosi bilan o‘zgarib turadi. Masalan, qachonlardir turkiy til va bu tilda so‘zlashuvchi xalqlar ham mental jihatidan dunyoning ko‘p mamlakatlariga juda katta ta’sir ko‘rsatgan edi va ta’sirga tushgan tillarning lug‘at boyligi turkiy so‘zlar evaziga boyigan edi.

Bir qaraganda til barqaror hodisadek bo‘lib ko‘rinadi. Negaki undagi o‘zgarishlar tezda ko‘zga tashlanmaydi. Bu o‘zgarishlar davrlar osha anglashiladi. Muayyan tildagi shunday holatni aniqlash uchun esa uni etimologik jihatdan chuqur tahlil qilishga to‘g‘ri keladi. Mazkur masala haqida to‘xtalgan Z.K.Sabitova tilning etnosning asosiy, eng yorqin va barqaror ko‘rsatkichi ekanligini to‘g‘ri ta’kidlaydi<sup>1</sup>. Ma’lum bir tilda so‘zlashuvchi xalq vakili o‘z tilini azaldan shu tarzda mavjud deb biladi. Ammo til tarixiy jihatdan o‘zgarib turuvchi hodisa bo‘lib, buni bir tilning ikkinchisiga ta’sir etishida ko‘ramiz.

---

1. Qarang: Сабитова З.К. Прошлое в настоящем. Русско-тюркские культурные и языковые контакты. -Алматы: Қазақ университеті, 2007. -С. 19.

Insoniyat tarixida bir tilning ikkinchisiga ta'sir etishining turli shakllari mavjudligi kuzatiladi. Bular jumlasiga harbiy yurishlarni, iqtisodiy va madaniy aloqalarni kiritishimiz mumkin. O'z navbatida, mazkur jarayonda *substrat* (mahalliy tilning o'zga tilga ta'siri) yoki *superstrat* (o'zga tilning mahalliy tilga ta'siri) hodiaslari ro'y berganining guvohu bo'lamiz. Biz ishimizda ko'proq yuqoridagi hodisalarning ikkinchisiga, superstrat hodisasiga, diqqatimizni qaratmoqchimiz. Zero, tadqiqotimizda turkiy xalqlarning tili va madaniyatining Yevropa xalqlariga mental jihatdan ta'sir etgani xususida to'xtalmoqchimiz. Bu haqda fikr yuritish uchun esa uzoq o'tmishga nazar tashlashga to'g'ri keladi.

Miloddan avvalgi XVIII asrda Shimoliy Xitoyda tarixda katta iz qoldirgan voqea yuz berdi. 1797-yilda hokimiyat tepasiga kelmoqchi bo'lgan xitoy zodagonlaridan biri Gun-lyuning niyati amalga oshmadi, natijada u o'z tarafdorlari bilan sharmandalarcha g'arbga, ko'chmanchi *Jun* qabilasi huzuriga, panoh istab qochib ketdi. Bu yerda Gun-lyu Sya qirolligiga bo'ysunmaydigan mustaqil hududga hukmdorlik qila boshladi<sup>1</sup>.

**Jun** – Chjou imperiyasining shimoliy va shimoli-g'arbiy chegaralarida yashagan jangovar qabilalarning xitoycha nomi. Manbalarda ta'kidlanishicha, ular protomo'g'ul qabilalari hisoblanadi. Junlar Xami vodiysida, Turfonda, Oltintog' etaklarida, Saydamda istiqomat qilishgan. Xo'tan daryosi, Lobnor ko'li, Cherchen daryosi sohillariga egalik qilishgan. Miloddan avvalgi VII-VI asrlarda Markaziy Osiyoda o'rnashib qolgan bu ko'chmanchilarni **xu** (xorijiy, varvar) deb atashgan<sup>2</sup>.

Shuni aytish kerakki, 300 yildan ortiqroq Jun qabilalari yerlarida yashagan xitoylik muhojirlar ular bilan to'liq murosaga kela olmadi. 1327-yilda xitoyliklar knyaz Shan-fu boshchiligida ona yurtlari Xitoyga, shimoliy Shensi hududiga, yana qaytib kelishdi. Chunki bu davrga kelib, Sya sulolasi taxtdan ag'darilgan, mazkur suloladan bo'lgan oxirgi

---

1. Bu haqda qarang: Гумилев Л. История народа Хунну. -М.: АСТ: Астрель, 2010. -С. 17.

2. Bu haqda qarang: Кляшторный С.Г., Султанов Т.И. Государство и народы Евразийских степей: от древности к Новому времени. -СПб: «Петербургское востоковедение», 2009. -С. 67-71.

imperator Sze-ku esa quvg'inda vafot etgan edi. Uning o'g'li Shun Vey oilasi va ayrim amaldorlari bilan shimoliy dasht hududlariga ketib qolgan edi<sup>1</sup>. Mazkur hududlarning umumiy nomi Gobi (mo'g'ulcha – «*sahro*») deb nomlanib, xitoyliklar bu yerlarni *Sha-say* «qumli o'lka» deb atashardi<sup>2</sup>. Qumli o'lkada *Xanyun* va *Xunyuy* deb nomlanuvchi qadimiy ko'chmanchi qabilalar istiqomat qilar edi. Ana shu Gobi sahrosi ko'chmanchilari va Shun Vey bilan birga kelgan xitoylik muhojirlarning aralashuvidan ilk protoxun etnik substrati shakllandi. Bu aralashuvda ozmi-ko'pmi yuqorida tilga olingan tog'li o'lkalarda yashovchi Jun qabilalarining ham o'rni mavjud edi. Natijada tarixiy *xunlar* paydo bo'ldi.

Miloddan avvalgi III asrga kelib, xunlar Gobi Sahrosidan tortib to Sibir taygasigacha bo'lgan barcha dasht hududlariga egalik qila boshlashdi. Ular hatto Xitoyga ham jiddiy xavf tug'dira boshlashdi. Bundan cho'chigan Xitoy imperatori Sin shi-Xuandi (In Chjen) o'z davlatini xunlardan himoya qilish maqsadida Buyuk Xitoy devorini qurdirtirishga majbur bo'ldi. Qurilish ishlariga esa Men Tyan ismli harbiy qo'mondonni rahbar etb tayinladi<sup>3</sup>.

Ishimiz tarixiy jarayonlarga aloqador bo'lganligi bois biz bu voqealarni atroflicha yoritib o'tdik, xolos. Aslida, tadqiqotimizning tekshiruv obyektini xunlarning so'zlashuv tili va uning boshqa tillarga ta'siri masalasi egallaydi. Shunday ekan, ko'chmanchi hayot tarziga moslashgan dasht egalari qaysi tilda so'zlashishgan ekan degan savol bizni qiziqtiradi.

K.Shiratorining fikricha, xunlar turkiy tilda so'zlashishgan<sup>4</sup>. M.G.S.Ramstedt xunlarning tili turkiy va mo'g'ul elatlari tillarining shakllanishi uchun asos bo'lib xizmat qilganligini ta'kidlaydi<sup>5</sup>. L.Ligeti xunlarning tilidagi «etik» tushunchasini ifodalovchi «*sagdak*» so'zining

---

1. Bu haqda qarang: Бичурин Н.Я. Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. Т. III. -М.; -Л.: Изд-во АН СССР, 1953. -С. 40-67.

2. Bu haqda qarang: Дебец Г.Ф. Палеоантропология СССР. -М.; -Л.: Изд-во Академии наук Союза ССР, 1948. -С. 82.

3. Bu haqda qarang: <https://rosuchebnik.ru/material/kto-stroil-velikuyu-kit> (Sahifaga 10.10.2023 da murojaat etildi).

4. Qarang: Shiratori K. Über die Sprache der Hiungnu und der Tanghu-Stämme. St. Pb., 1902; Bulletin de l'Academie Imperiale des Sciences de S.-Petersburg. V. Serie. Bd. XVII. №2.

1. Qarang: Ramstedt M.G.S. Über der Ursprung der türkischen Sprache. Helsinki, 1937. -С. 81-91.



turkiyda ham, mo'g'ulchada ham analogi yo'qligini aytadi va mazkur tilning turkiyga mansub ekanligi masalasini ochiq qoldiradi<sup>1</sup>.

Bizningcha, L.Ligetining mulohazasini tahlil qilib ko'rishga to'g'ri keladi. Xunlar kamon va uning o'qlari solib yuriladigan g'ilofni *sagdak* deb atashgan. Ammo ba'zan g'ilofga sig'may qolgan o'qlarni qo'njli oyoq kiyimning (etikning) ichiga, tizza qismiga, joylashtirishgan. Natijada u ham *sagdak* vazifasini o'tab, shu nom bilan atalib ketgan. Keyinchalik mazkur so'z turkiydan slavyan tillariga o'zlashib, bu tillarda *sagaydak* nomi bilan yuritilgan. Faqat ular sagaydakning qo'njiga kamon o'qlarini emas, balki pichoq yoki hanjarni solib yurishgan. Demak, L.Ligetining xunlarning tilidagi «etik» tushunchasini ifodalovchi «*sagdak*» so'zining turkiyda ham, mo'g'ulchada ham analogi yo'q degan fikriga qo'shilib bo'lmaydi.

Umuman, xunlarning tili turkiy ekanligiga shubha yo'q, zero, bu haqda aniq manbalar mavjud bo'lib, bu tilning uyg'urchaga yaqin ekanligi ta'kidlanadi<sup>2</sup>.

E.R.Tenishevning fikricha, xunlar tarkibiga etnik jihatdan ko'plab millatlar birlasha boshlagani sababli ularning tili ham turlicha bo'lgan. Bular jumlasiga mo'g'ullar, turkiy tilda so'zlashuvchilar, finlar, vengerlar («*xun er*» formasining o'zgarishi), kavkazliklar hatto slavyanlar ham kirgan<sup>3</sup>.

Bizningcha, xunlar etnik jihatdan turli millatlardan tarkib topgan bo'lsa-da, ularning tilida turkiy elementlar yetakchilik qilgan, zotan, mazkur qavmning shakllanish o'rni, yuqorida aytib o'tilganidek, Mo'g'uliston hamda Markaziy Osiyo hududlarida asos topa boshlagan edi. Fikrimiz dalilini V.S.Taskinning tadqiqotida ko'ramiz. Olim Xitoy atrofidagi ko'chmanchi xalqlar xususida bayon etilgan yilnomalarini o'rganib, tadqiqot ishining mahsuli bo'lgan «Материалы по истории кочевых народов в Китае» nomli maqolasida qadimgi xuncha hamda turkiycha so'z va qo'shimchalarning qiyosini keltiradi:

---

2. Qarang: Ligeti L. Mots de civilisation de Haute Asie en transcription chinoise//Acta Orientalia, 1950. -С.141-149.

3. Qarang: Бичурин Н.Я. Ко'rsatilgan asar, 214-bet.

4. Qarang: Тенишев Э.Р. Избранные труды//Гуннов язык. -Уфа: ИИЯЛ УНЦ РАН, 2011. -С.183.

**Qadimgi xuncha:** *ulu, Tengri, -chi, -gan, -dan, tili, tutan.*

**Turkiycha:** ulug‘, Tangri, -chi (affiks), -gan (affiks), -dan (affiks), tilak, tutar<sup>1</sup>.

Bundan tashqari, Sh.J.Saidov ham Xun hukmdorlarning nomlari xitoy yozuviga asoslangan manbalardan transkripsiya qilinganda, ko‘pchiligining ismi turkiy til qonunlariga mos kelishini ta’kidlaydi: Tuman, Batur Tangri, Qut, Qulig‘u, G‘uchin, Qamquyi, Ulut, Shimolay, Balamir, Yulduz, Qaratun, Attila, Tilik shular jumlasidandir<sup>2</sup>.

Shunday qilib, xunlar o‘z hududlarini kengaytirib, hozirgi Rossiyaning Don daryosi atrofidagi dashtlarni va Markaziy Yevropa o‘lkalarini ham bosib olishga muvaffaq bo‘ladilar. Natijada ular so‘zlashayotgan turkiy til mazkur xalqlarning tiliga ham sezilarli darajada ta’sir etdi. Buni ayniqsa rus, ukrain, belorus tillarida aniqroq ko‘rishimiz mumkin. Zero, ushbu xalqlar uzoq vaqt davomida turkiy xoqonlarning siyosiy va iqtisodiy ta’siri ostida qoldi. Turkiy so‘zlarning sharqiy slavyan xalqlari tiliga kirib borishi, asosan, Oltin O‘rda davrida (XIII-XV asrlar) yuz berdi. Bunga nafaqat harbiy to‘qnashuvlar, balki siyosiy va madaniy aloqalar ham sabab bo‘ldi.

Turkiy so‘zlar slavyan tillari lug‘atining barcha semantik guruhlariga mansub bo‘lib, mavzu jihatidan rang-barangdir:

<b>Aluchan</b>	алчный (ochko‘z)	<b>Al</b>	алый (qizil)
<b>Amaylek</b>	амулет (taqinchoq)	<b>Yangil</b>	ангел (elchi, xabarchi)
<b>Aniq etu</b>	анкета (aniqlashtirmoq)	<b>Apechtal</b>	апостол (yordamchi)
<b>Orpolaktru</b>	арбалет (uzoqqa otmoq)	<b>Uruma</b>	армия (xalq askarlari)

1. Qarang: Таскин В.С. Материалы по истории кочевых народов в Китае. Вып. 2. -М.: Наука, 1990. [http://www.i-u.ru/biblio/archive/sima\\_2/12.aspx](http://www.i-u.ru/biblio/archive/sima_2/12.aspx) (Sahifaga 20.11.2023 da murojaat etildi).  
2. Qarang: Saidov Sh.J. Markaziy Osiyo xalqlari tarixi. -Toshkent: Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2010, 74-bet.

<b>Arachikart</b>	аристократ (yuqori zotli)	<b>Abo'rek</b>	абрикос (o'rik)
<b>Tersena</b>	арсенал (qurol ustaxonasi)	<b>Abshish</b>	абцесс (shish, g'urra)
<b>Abishka</b>	бабушка (buvi, kekxa)	<b>Bagash</b>	багаж (bog'langan)
<b>Bot urtan</b>	бедро (oyoqning son qismi)	<b>Tutay</b>	тётя (xola)
<b>Bola igez</b>	близнец (egizak)	<b>Torarga</b>	тревога (uyg'otish)
<b>Tumacha</b>	тёща (hurmatli kishi, qaynona)	<b>Kirpech</b>	кирпич (g'isht)
<b>Kaja</b>	коза (podadan qochgan, echki)	<b>Uka yaz</b>	указ (bezatilgan bitik)
<b>Yanar</b>	фонарь (yonadigan)	<b>Yazu</b>	язык (yozilgan matn, til)

Biz yuqorida turkiydan slavyan tillariga o'zlashgan so'zlardan ayrimlarini misol tariqasida keltirdik, xolos. Aslida, bunday so'zlar juda ko'p sonli bo'lib, maxsus lug'atlar ham nashr ettirilgan (Шипова Е.Н. Словарь тюркизов в русском языке. -Алма-Ата, 1976; Хусаинов Н.Н. Словарь тюркских основ русского языка. -Уфа, 2012).

Hozirogi kunda ruslarga mansub bo'lgan *Абашев, Абалкин, Алеев, Абдулов, Бабурин, Багратион, Баскаков, Булгаков, Глоба, Готилло, Годунов, Гайдар, Епифанцев, Есенин, Зелакин, Зюганов, Иванов, Карамзин, Келдыш, Кирилл, Киркоров, Мазай, Мамин, Мересьев, Мурзин, Радыгин, Разин, Русаков, Руднев, Рыбаков, Самаров, Суворов, Тургенев, Уланов, Фурсенко, Царьков, Чапаев, Корчагин, Кутузов, Якубович, Янушевский* kabi familiyalar ham, *Rossiyadagi Астрахань, Оренбург, Самара, Енисей, Байкал, Учан-Су, Айпетри, Чаир, Мамаев курган, Саратов, Челябинск, Барнаул, Кемерево, Набережные Челны, Тула, Чебоксары, Тагил, Таганрок, Абакан, Тобольск, Сургут, Серкизово, Ордынка, Балчук, Арбат, Басман,*

*Серпухов, Таруса, Шатово, Толпинка, Кострома, Воронеж, Орша;* Ukrainadagi *Алтинивка, Бабайковое, Батурин, Гарапивка, Джурич, Майдан, Талалаи* kabi ko‘plab joy nomlari ham turkiychadir.

Turkiy so‘zlarning roman va german tillariga o‘zlashishi xususida to‘xtaladigan bo‘lsak, buni ko‘pincha xunlarning Attila boshchiligida Yevropa davlatlariga bostirib kirishi bilan bog‘lashadi. Attila 434-453-yillarda xunlar xo‘qoni bo‘lgan. Manbalarda *Attila* nomining ma‘nosiga turlicha izoh beriladi: *Itil (Volga) daryosidan kelgan odam, ota, bosh, otli (chavandoz)* kabi. Volgadan Reyn daryosigacha bo‘lgan hududlar xunlar imperiyasi qo‘l ostida bo‘lgan. Rim davlatiga juda katta xavf tug‘dirayotgan Attila to‘satdan vafot etgan. Ammo xunlardan ilgari ham Italiyada yashagan turkiy xalqlar xususida ma‘lumotlar mavjud. Ulardan 3000 yillik tarixga ega bo‘lgan o‘n mingga yaqin yozma yodgorliklar, tang‘alar, yetib kelganligi ma‘lum. Demak, turkiylar juda qadimdan Yevropa hududlarida qo‘nim topgan.

Hozirgi kunda Ispaniyaning shimoliy qismida joylashgan *Kantabariya* qishlog‘ida *pasiyego* deb ataluvchi kelib chiqishi turkiy bo‘lgan xalq yashaydi. Ular ko‘chmanchi ota-bobolaridan meros bo‘lib qolgan chorvachilik bilan shug‘ullanishadi. Pasiyegolar DNKsining 80%i turkiy xalqlarnikiga to‘g‘ri keladi, zero, genetiklarning fikriga ko‘ra, ular turkiylarga tegishli bo‘lgan R1a va G2 gaploguruhiga mansubdirlar. Aniqlanishicha, turkiylar Yevropa yerlariga *megalit madaniyati* davrida, eramizdan avvalgi III ming yillikda, kirib kelishgan.

Shunisi diqqatga sazovorki, alifboga asoslangan birinchi yozuv ham turkiy xalqlar tomonidan yaratilgan. Bunga *mixat, runik* yozuvlarini misol qilib keltirishimiz mumkin. Mixat yozuviga ko‘chmanchi *Sub yerlar* (*Shumerlar – suv va yer* so‘zlaridan kelib chiqqan xalqning nomi. *Sibir* nomi ham shu so‘zlarga tayanadi) asos solishgan bo‘lsa, qadimgi german yozuvi turkiylarning dulbarchin (bajnoq) yozuviga bog‘liq ravishda shakllangan.

Shunday qilib, lotin va hozirgi italyan tillari lug‘at tarkibining talaygina qismini kelib chiqishi turkiycha bo‘lgan so‘zlar tashkil etadi. Ularning ayrimlarini izohlab o‘tamiz:

Soʻzning turkiycha varianti	Soʻzning lotin va italyan tillaridagi shakli	Soʻzning izohi
<b>But</b> –oyoqning son qismi; oyoq. <b>Ki</b> –kiymoq ( <i>Butena ki</i> )	<b>Bottine, botte</b>	Baland yoki kalta qoʻnjli, ip bilan bogʻlanuvchi oyoq kiyimi.
<b>Berk</b> –qattiq. <b>Yet</b> –qisilgan, jisplashgan ( <i>Berk yette</i> )	<b>Briquette</b>	Presslab tayyorlangan koʻmir yoki boshqa predmet
<b>Bulyan</b> – aralashtirmoq; qaynatmoq; bugʻlamoq	<b>Bullire, bouillon</b>	Qaynatib pishirilgan taom; shoʻrva
<b>Buruk</b> – bogʻich; tasma	<b>Broek</b>	Odam tanasining pastki qismi uchun mojallangan kiyim
<b>Saben</b> – sovun; koʻpik chiqaruvchi modda	<b>Sapo, saponatum, savon</b>	Tarkibi oʻsimlikdan olinib, suv bilan aralashganda koʻp miqdorda koʻpik chiqaruvchi modda
<b>Bol</b> – boʻlmoq. <b>Tuz</b> – tekislamoq. <b>Yer</b> - yer	<b>Bulldozer</b>	Ajratilgan, boʻlingan yerni tekislamoq; tuproqni tekislovchi traktor
<b>Ternade</b> - tirnadi	<b>Tornado</b>	Shamolning turi
<b>Sip</b> – sepmoq. <b>-ter</b> – orttirma nisbat qoʻshimchasi	<b>Sprey</b>	Suyuqlikni purkash
<b>Piremlep</b> – birin-кетин; tartib bilan. <b>Ujlde</b> - terilgan	<b>Pyramidos</b>	Toʻrtburchak asosli va uchburchak yon yuzalarga ega boʻlgan qurilma

<b>Qirina</b> – qirmoq. <b>Atina</b> –otmoq	<b>Granatina</b>	Supurgi
<b>Jiruyi</b> – yirtiq. <b>Tota</b> – tutmoq	<b>Cravatta</b>	Bo‘yinbog‘, galstug
<b>Elente</b> – sust; so‘lg‘in	<b>Lento</b>	Sustkash
<b>Sarilatti</b> – sariq bo‘lmoq	<b>Scarlatto</b>	Kasallikning nomi
<b>Min echere</b> – men ichadigan	<b>Ministera</b>	Sho‘rva
<b>Bizenu</b> - bezanmoq	<b>Visone</b>	Mo‘yna yoki mo‘ynali hayvon turi (norka)
<b>Talari</b> – mudhish; azobli	<b>Dolore</b>	Og‘riq
<b>Minem jari</b> – mening yaraydiganim (jonim)	<b>Mia cara</b>	Mening sevgilim
<b>Eshke o‘ransa</b> – ishga o‘rganmoq	<b>Esperienza</b>	Malaka
<b>Yure go‘le</b> – chirmashadigan gul	<b>Fragole</b>	Qulupnay
<b>Az sindi</b> – ozgina singan	<b>Accento</b>	Aksent
<b>Mul di silari</b> – ko‘p bo‘yalgan	<b>Multicolore</b>	Rang-barang

Bundan tashqari, Yevropa qit‘asidagi mashhur toponimlarning kelib chiqishi ham qadimgi turkiy nomlar bilan bog‘liq:

Ariq – muqaddas, toza: **Aragon** (Ispaniyadagi muxtor viloyat); Osturgun, Osturiya, Ostur Osiyo – o‘stirilgan, voyaga yetkazilgan: **Avstriya, Asturiya, Avstraziya**; Ulus Burgund – Boyko‘l (Baykal) tizmasidan kelgan xalq; Burgund yurt: **Burgundiya** (Sharqiy Fransiyadagi viloyat); Okstan – ok tilida (qadimgi turkiy tilning bir turi) so‘zlashuvchi xalq yashovchi yurt: **Oksitaniya** (Fransiyadagi viloyat); Lu ariq – Ajdar daryo: **Luara** (Fransiyadagi eng uzun daryo); Ing (o‘lja), lend (joy) – o‘ljaga olingan joy: **Angliya** (Qadimda bu yerdagi aholi turkiycha

urf-odatlariga rioya qilgan va birinchi abbatning nomi Aydan (Oydin) bo‘lgan); Qal’a: **Kale** (Fransiyadagi shahar); Saklar tili: **anglosaks tili** (**Saksoniya** nomi ham «sak» so‘zidan olingan); Isilend – issiq o‘lka: **Islandiya**; Tering – mo‘l-ko‘lchilik: **Tyuringiya** (Germaniyadagi mustaqil davlat); Alman – uzoqda joylashgan (Alamaniya): **Germaniya**. Nemislar yurtini **Deutschland** deb atashadi. Mazkur nom turkiycha «**dasht**» so‘zidan olingan bo‘lib, **dasht ulusi, dashti qipchoq** atamalariga bog‘lanadi. Bunda Yevropaga kelib qolgan dasht ulusi nazarda tutilmoqda.

Bir qaraganda yuqoridagi fikrlarga ishonish qiyindek ko‘rinadi, ammo eng qadimgi turkiyzabon elatlar *yevropeoidlar* bo‘lishgan. Ularning *mongoloidlar* bilan chatishuvi keyinchalik yuzaga kelgan. Shu bois ham turkiy va roman-german munosabatlari ikki davrga bo‘lib tadqiq etiladi. Birinchisi muzlik davridan to bronza davrigacha bo‘lgan jarayonni o‘z ichiga olsa, ikkinchisi xalqlarning buyuk ko‘chishi hamda xunlarning G‘arbga yurishi bilan bog‘lanadi. Boshqacha aytganda, turkiy xalqlarning bobo yurti Yevropa qit‘asi hisoblangan. Ular birinchi ko‘chishda Mo‘g‘iliston, Xitoy, O‘rta Osiyo sarhadlariga kelishgan bo‘lsa, ikkinchi ko‘chishda yana G‘rbga qarab ketishgan. Buning hech ajablanarli yeri yo‘q, zero, ko‘chish jarayonida turkiylar Amerika qit‘asiga ham o‘tib ketishgan. Jumladan, Amerika hindulari deb nom olgan Siu, Kechua kabi ko‘chmanchi qabilalarning turkiy xalqlar ekanligi fanga ma‘lum. Mazkur elatlarning shamanlik diniga e‘tiqod qilib, totemlarga sig‘inishi, insonning xususiyatidan kelib chiqib unga Katta ayiq, O‘tkir ko‘z lochin singari ismlarni qo‘yishlari (Oyto‘ldi, Kuntug‘mish, Go‘ro‘g‘li kabi) buning isboti bo‘la oladi. Ularning tili Ural-Oltoy tillari oilasiga mansub bo‘lib, Missuri va Missisipining keng yaylovlarida, Kaliforniya va Arkanzasning tog‘li hududlarida yashashadi. Fikrimiz dalili uchun mazkur qabilalar tilidagi ayrim so‘zlarga e‘tibor qaratamiz:

**Ate** – ota

**Ine** – ona

**Ichu** – ichmoq

**Kuva** – quvmoq

**Yuta** – yutmoq

**Mi** – men

**Sue** – sut

**Ik** – ikki

**Pishu** – mushuk

**Udham** – odam

**Ich** – ich (qorin)

**Chab** – chopmoq

**Mool** – mo‘l (ko‘p)

**Ooch** – osh (ovqat)

**Akan** – aka

<b>Kichana</b> – kichkina	<b>Kuch</b> – kuch	<b>Chalan</b> – ilon
<b>Aak</b> – oq	<b>Al</b> – o‘g‘il bola	<b>Qull</b> – qo‘l
<b>Kun</b> – kunduz	<b>Axchi</b> – ovchi	<b>Yash</b> – yosh

Shunday ekan, Amerikaning tub aholisi bilan bemalol o‘zbek tilida gapiraversangiz bo‘ladi, chunki ularning tili boshqirdlarning tiliga juda o‘xshashdir.

Yuqoridagi turkiy va german tillari munosabatlari xususidagi fikrimizga qaytadigan bo‘lsak, turkiy o‘zlashmalar nemis tili lug‘at boyligining genetik qatlamlaridan birini tashkil etadi. Ularga quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

*der Ataman, der Aga, der Pascha, der Sultan, der Dolmetscher, der Turko, der Jatagan, der Bairam, der Kalym, die Moschee, die Tulpe, das Karakulschaf, der Saxaul, der Barchan, der Altun, der Türkis, der Korsak, der Balyk, der Muezzin, das Aityssu, der Handschar, der Raki, der Pilaw, der Schaschlyk, der Kefir, der Kebab, der Joghurt, das Halwa, der Kumys, der Baschlik, der Kalpak, die Tjubeteika, der Schirwan, der Arkan, das Sofa, der Kelim, die Jurte, der Aul, der Konak, der Kiosk, das Café* kabi. Bunday so‘zlar nemis tiliga shunchalik singib ketganki, ularni faqat tajribali tilshunosgina turkiydan o‘zlashganligini fahmlay oladi.

Shuni aytish kerakki, mentalizm tushunchasi psixologizm yo‘nalishi bilan sezilarli darajada kesishar edi. Shu bois ham dastlab «*mentalizm*» termini lingvistikaga deskriptivizmning asoschisi L.Blumfild tomonidan tilning rolini inkor etib insonning ichki dunyosini o‘rganishni maqsad qilib olgan «*aql-idrok*» sohalariga nisbatan norozilik belgisi sifatida oppozitiv jihatdan kiritilgan edi. Bizningcha ham, mentalizm har doim psixologizm bilan mos kelavermaydi. Zero, «*mentalizm*» termini asosida nafaqat psixologik, balki falsafiy, mantiqiy, madaniy-antopologik, arxeologik, geografik tushunchalar ham tekshiriladi. Bu esa tilning shu sohalar bilan aloqadorligini ko‘rsatadi. Masalan, yuqorida to‘xtalib o‘tganimiz singari, antropologik jihatdan tilning paydo bo‘lishi, arxeologik tomondan til egalarining migratsiyasi, geografik sohada til egalarining joylashuv o‘rni, madaniy holatda til egalarining sivilizatsiyasi va bunda boshqa til egalarining ta’siri, mantiqiy, falsafiy va psixologik nuqtayi nazardan til va jamiyat muammolari, inson tafakkurining shakllanishi kabi tushunchalar talqini buning dalilini ko‘rsatadi. Shuning uchu ham bir tilning ikkinchi tilga ta’sir etishini to‘xtatib bo‘lmaydi. Ana



shu ta'sirning oldini olish va tilimizning mavqeyini ko'tarish maqsadida davlat tili haqidagi qonun qabul qilindi. Ammo tilimizning obro'yini ko'tarish faqat ziyolilarga emas, balki butun jamiyatga bog'liqdir. Reklama va peshtoqlarda turli-tuman tillarda yozilaversa, o'zbek tilida yozilgani ham xato bo'lsa, o'qishga kirish yoki ishga joylashish uchun o'zining tili bir tomonda qolib o'zga tilni bilishi haqida hujjat (sertifikat) talab etilsa, Scopus bazasidagi ilmiy jurnallarda faqat chet tilida maqola nashr ettirish mumkin bo'lsa, bu boshqa mentalitetning kauzatsiyasi hisoblanadi. *Sho'rbo, mantu, kala pochcha, sambo'sa, nishollo, shindi* kabi yozuvlarni ko'rib kishining kayfiyati tushib ketadi. Oynayijahon ko'rsatuvlaridagi xatoliklar va talaffuz me'yorlarining buzilishini aytmaysizmi? Ustoz A.Qahhor aytganlaridek, tilimiz qoidasini buzgan kishiga hech kim hushtak chalmaydi. Ammo ayrim tillar o'z nufuzini saqlab qolish va boshqa tillar hujumidan uni qutqarish qobiliyatiga ega. Qobiliyat deyishimizning sababi shundaki, bunday tillar azaldan tarixiy taraqqiyot bosqichi davrlaridan beri o'zigagina xos bo'lgan qonuniyat asosida rivojlanib kelmoqda. Masalan, xitoy tilini olaylik. Xitoy davlatining iqtisodiyoti taraqqiy etib ketayotgan bugungi kunda uning tiliga chet so'zlar ta'sir etmaydi deysizmi? Ta'sir etadi, albatta. Faqat mazkur til chet so'zni oziga moslashtirib oladi va tom ma'nodagi yangi xitoycha so'z paydo bo'ladi qoladi. Zero, xitoy tilining shunday xususiyatlari borki, bu xususiyatlar unga o'zga tildan «qarz olishga» imkon bermaydi: 1) iyeoglifik yozuv, 2) bo'g'inlar soniga rioya etish va nutq tovushlarining cheklangan muvofiqligi, 3) musiqaviy urg'u. Mazkur grafik va fonetik belgilar «donor» tilning o'xshash «genlarini» qabul qildirmaydi. Masalan, *kompyuter* so'zi bajaradigan vazifasiga qarab *elektron miya, ayfon* so'zi *tishlangan olma* deb ataladi. To'g'ri, ayrim so'zlarning boshqa tildan o'zlashgan holati ham uchraydi, ammo ular o'sha tildagiday talaffuz etilmaydi. 摩登 módēng – zamonaviy (inglizcha *modern* so'zidan), 汰 tāi– bo'yinbog' (inglizcha *tie* so'zidan), 杜吗 dùmǎ– дума (ruscha *дума* so'zidan)<sup>1</sup>. Ushbu holat ilgari xalqimizning

---

1. Qarang: Хаматова А.А. Анализ иностранных заимствований в современном китайском языке//Гуманитарные исследования в восточной сибире и на дальнем востоке, № 3, 2016. -С. 14-20.

ruscha soʻzlarni talaffuz etishga artikulyatsiyasi toʻgʻri kelmasdan *царь* soʻzini *chor*, *подрядчик* soʻzini *pudratchi* deb aytganiga oʻxshaydi. Ammo hozirgi kunda chet soʻzlarni toʻgʻri talaffuz etishga tilimiz anchagina kelishib qolgan. Zero, millatimiz vakillari, xususan, yoshlarimiz, bugungi kunda xorijiy tillarni mukammal oʻrganmoqdalar. Bu, albatta, maqtovga sazovordir.

Maʼlum bir tilni oʻrganuvchi kishi oʻsha tilda gapiruvchi xalqning milliy xarakteri, psixologiyasi va mental holatining oʻziga xos xususiyatini hisobga olishi zarur. Buning uchun etnik guruhning madaniyati va turmush tarzi bilan ham tanishish kerak. Zotan, til oʻsha tilda soʻzlovchi xalq bilan birga yashaydi. Tilning mohiyatini faqatgina uning grammatik tuzilishi bilan belgilab boʻlmaydi. V.fon Gumboldt taʼbiri bilan aytganda, tilning asl xarakterini, uning oʻziga xos nozik xususiyatlarini yanada aniqroq fahmlash uchun yurakdan his etiladigan bir narsaga ahamiyat berish kerak boʻladi. U ham boʻlsa xalq mentalitetidir<sup>1</sup>. Mentalitet maʼlum bir xalq bosib oʻtgan yoʻlni kuzatish imkonini beradi. Zero, mentalitet u yoki bu tilda soʻzlashuvchi xalqni tushinish uchun manba boʻlib xizmat qiladi. Uni milliy madaniyatning ajralmas qismi sifatida eʼtirof etsa boʻladi<sup>2</sup>. «Til, madaniyat, anʼanalar, din va turmush tarzi mentalitet degan uyushmani tashkil etadi», - deb taʼkidlaydi N.N.Boldirev «Методологические проблемы когнитивной лингвистики» nomli asarida<sup>3</sup>.

Til va mentalitet munosabatlarini insoniyatning rivojlanishiga tayanib tahlil etish shuni koʻrsatadiki, jamiyatning har bir aʼzosi ona tili usturlobi orqali borliq haqida tasavvurga ega boʻladi. Bu ona tilining maʼnaviy dunyosiga kirib borishdan dalolat beradi. Mazkur dunyoda olamni oʻzlashtirish uchun zarur boʻlgan hamma narsa topiladi va unda uzoq yillar mobaynida toʻplangan ajdodlar tajribasi yotadi.

---

2. Bu haqda qarang: Гумбольдт В. фон. Язык и философия культуры. -М.: Прогресс, 1985.

3. Bu haqda qarang: Евстафьева С.А., Афанасьева И.И., Чуева Л.М. и др. Язык как способ выражения национального менталитета//Молодой ученый, № 49 (278), 2019. -С. 488-490.

4. Болдырев Н.Н. Методологические проблемы когнитивной лингвистики. -Воронеж: Воронежский государственный университет, 2001. -С. 25-36.

## *Ikkinchi bob*

### **SEMANTIK KAUZATSIYA**

#### *Semantika bizni o‘rab turgan real olam va til o‘rtasidagi kesishgan nuqtadir.*

(M.I.Umarxo‘jayev)

Semantik kauzaderivatsiyada kauzativlik muammosi mazmuniy rejada tekshiriladi. Mazkur yo‘nalishda mantiqshunoslik hamda tilshunoslikning uzvlari uyg‘unlashadi.

Ma’lumki, tafakkur o‘z mohiyatiga ko‘ra umuminsoniy xususiyatga ega bo‘lgani uchun uning qaysi tilda namoyon bo‘lishi farq qilmaydi. U, birinchi navbatda, bilim va amaliy faoliyat natijasida hosil bo‘ladi. Natijada obyektiv voqelikni aks ettiruvchi mantiqiy elementlar shakllanadi va turli leksik hamda grammatik vositalar yordamida inson ongida mustahkamlanadi. Zero, onnga murojaat qilmasdan turib, voqelikni idrok etish faoliyati haqida biror bir bilimga ega bo‘lish, uning sir-u asrorlarini ochishning imkoni hech qachon tug‘ilmasa kerak<sup>1</sup>.

Kishiga voqelikdagi narsa va hodisalarni anglashi uchun nimadir sabab bo‘ladi. Masalan, bola shokoladni ko‘rmagan bo‘lsa, u haqda tasavvurga ega bo‘lmaydi. Yeb ko‘rganidan so‘ng uning mazasi shokoladning shirin narsa ekanligini anglashiga sabab bo‘ladi. Demak, ma’lum bir tushunchaning kauzatsiyasi ifoda va mazmun rejasiga ega bo‘lgan hodisadir. Boshqacha aytganda, sababni yuzaga keltirayotgan narsaning ifodalanishiga xizmat qilayotgan tushunchalar grammatik va leksik vositalardir (*chiroyli o‘ramli shokolad*). Sababni ifodalovchi narsaning xususiyatini anglatib, oqibatga olib keluvchi holat esa uning mazmunidir (*shirin, yemoq*). Semantik kauzatsiya ham «*ifoda↔mazmun*» qolipida voqelangan bo‘lib, *hodisalarning semantik tahlili* metodi asosida o‘rganiladi. Bunda *kauzator*, *kauzant* va *konsekvent* munosabatlari kuzatiladi.

---

1. Qarang: Сафаров Ш. Семантика. -Тошкент.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2013, 65-бет.

«Hodisaviylik» falsafiy termin bo‘lib, o‘tmish, hozirgi zamon, kelajak hodisalarini, sabab va oqibat munosabatlarini belgilashda qo‘llanadi<sup>1</sup>. Hodisaviylik inson tafakkuridagi yetakchi tushunchalardan biridir. U mantiq, falsafa, psixologiyada, shu jumladan, tilshunoslik sohasida ham keng tadqiq etilgan. Masalan, N.D.Arutyunova, B.M.Velichkovskiy, V.Z.Demyankov, S.G.Tatevosov, J.F.Bennett, V.G.Gak, S.D.Kasnelson kabi qator olimlarning hodisaviylikning semantik, ontologik va inson ongi tomonidan idrok etilishi tavsifiga bag‘ishlangan salmoqli ishlari mavjud<sup>2</sup>.

Hodisaviylik asosiy ontologik tushuncha maqomida bo‘lgani uchun u tilda ham, nutqda ham o‘z ifodasini topadi va bir vaqtning o‘zida yoki turli vaqtlarda, turli darajalarda sodir bo‘lishi bilan obyektivlashadi:

1. *Yomg‘ir, to‘y, to‘qnashuv, bahor.*
2. *Ko‘ngilni behuzur qiluvchi ili-miliq shamol keldi-yu, ketidan dam o‘tmay bo‘ron boshlandi* (Shukrullo. Tirik ruhlar).
3. *Kech oila qurgani ham yo‘qchilikdan* (A.Zohidov. Noodatiy hikoya: qaynotaning qarori).
4. *Donolik – ilmdandir* (Maqol).

Hodisaviylik tilda nominativ birlik sifatida e‘tirof etiladi va mantiqan kauzatsiya bilan bog‘lanadi. Masalan, keltirilgan so‘z shaklidagi misollarimizning barchasi hodisa maqomida bo‘lib, ma‘lum sabab bilan munosabatda bo‘lishi, tabiiy. Zotan, *yomg‘ir, to‘y, to‘qnashuv, bahor* kabilar albatta biror sabab asosida vujudga keladi. Masalan, *qora bulut* → *yomg‘ir*; *xursandchilik* → *to‘y*; *ziddiyat* → *to‘qnashuv*; *fasl o‘zgarishi* → *bahor* kabi. Ammo ular til paradigmasidan o‘rin olganligi bois vaqt ko‘rsata olmaydi. Zero, til o‘z mohiyatiga ko‘ra

---

1. Bu haqda qarang: Можейко М.А. История философии/Энциклопедия. -Минск: Книжный Дом, 2002.

2. Bu haqda qarang: Арутюнова Н.Д. Типы языковых значений. -М.: Наука, 1988; Величковский Б.М. Функциональная организация познавательных процессов//Автореф. дисс. докт. психол. наук. -М., 1987; Демьянков В.З. Событийность в языке средств массовой информации//Язык средств массовой информации как объект междисциплинарного исследования: тезисы докладов Международной научной конференции. -М.: Изд-во МГУ, 2001; С.Г.Татевосов. Событийно-структурная морфология в ненецком языке//Рема, № 3, 2018; Bennett J.F. Events and Their Names//Philosophy in Review, Vol. 9, no. 6, 1, pp. 215-7; Гак В.Г. К типологии лексических номинаций//Языковая номинация. Общие вопросы. -М.: Наука, 1977; Кацнельсон С.Д. Типология языка и речевое мышление. -Л.: Наука, 1972.

statiklik va virtuallikni taqozo etadi. Mazkur nominativ hodisalardan *yomg'ir, to'y, bahor* kabilar «ifoda↔mazmun» qolipida quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:  $X_{kauzator}$  – ob-havoning o'zgarishi// $Y_{kauzant}$  – qora bulut// $Z_{konsekvent}$  (presuppozitsiya) – yomg'ir: oqibat↔tabiatda suvning aylanishi; suv hayot manbayi; toshqin (sel);  $X_{kauzator}$  – ma'lum bir sabab// $Y_{kauzant}$  – ma'lum bir shaxs yoki situatsiya// $Z_{konsekvent}$  – to'y: oqibat ↔ xursandchilik;  $X_{kauzator}$  – tabiiy hodisa// $Y_{kauzant}$  – fasl o'zgarishi// $Z_{konsekvent}$  – bahor: oqibat↔tabiatning uyg'onishi. Ushbu nominativ hodisalar kauzativ jihatdan faqat semantik aktantlar qurshovida bo'la oladi. *Yomg'ir – ob-havo – qora bulut – toshqin* kabi. Ushbu aktantlar statik bo'ganligi bois daraja kasb eta olmaydi. Biroq I.A.Melchuk *yomg'ir, muzlash* kabi situatsiyalarning semantik aktanti mavjud emasligini ta'kidlaydi<sup>1</sup>. Bizningcha, semantik aktant bilan sintaktik aktantni farqlay bilish kerak. Masalan, *to'qnashuv* nominativi sintaktik rejada ham aktantlar qurshovida kela oladi, chunki u nominalizatsiyalashgan fe'l maqomida turadi: *to'qnashuv/to'qnashmoq*; A – to'qnashtiruvchi, B – to'qnashuvchilar, C – to'qnashuv→*Qo'mondon jangchilarni to'qnashtirdi*. Ushbu misolda kauzativ qurilma valentligi sintaktik jihatdan ikkiga teng.

Shuni aytish kerakki, nominativ tushunchalarning ham qaysidir makonda va qaysidir vaqtda sodir bo'lishi aniq, biroq bu nutqiy jarayonda ma'lum bo'ladi. Chunki nutq dinamik va aktual rejada voqelanadi. Buning dalilini ikkinchi misolda ko'rishimiz mumkin. Masalan, *shamol keldi* shu vaqt *bo'ron boshlandi*. Demak, ikkala hodisa ham bir vaqtda sodir bo'lgan. Boshqacha aytganda, *shamolning kelishi bo'ronni* kauzatsiyalagan. Uchinchi misolda ma'lum hodisaning ancha kech sodir bo'lganini ko'ramiz. Bir hodisa ro'y bergan, ammo uning o'z vaqtida amalga oshmasligiga *yo'qchilik* sabab bo'lgan.

To'rtinchi misolda hodisaning darajasini kuzatamiz. Aniqrog'i, *donolik* darajasiga muayassar bo'lish uchun ilm o'rganish kerak.

---

1. Мельчук И.А. Опыт теории лгвистических моделей «Смысл↔текст». -Москва: Языки русской культуры, 1999. -С. 86.

Umuman, nominativ situatsiya deganda voqelikning bir qismini ifodalovchi leksik birlikni tushunamiz. Har qanday situatsiya o'ziga xos bo'lgan asosiy tushuncha bilan izohlanadi. Bundan tashqari, bir situatsiyaning o'zi ham turli tushunchalar bilan identifikatsiyalanishi mumkin (Buni yuqorida ko'rib o'tdik). Ammo har qanday so'z ham situatsiyani belgilay olmaydi. Situatsiya maqomida bo'lishi uchun so'z jarayon, holat, harakatning nomini bildirib kelishi zarur. Zero, predmetlik va shaxs tushunchasini ifodalovchi *qalam, paxta, bola* kabilar o'z holicha situatsiya bo'la olmaydi. Bunday so'zlar situatsiya ko'rsatishi uchun ularning boshqa so'zlar bilan birikib kelishi kerak bo'ladi. Masalan, *paxta* so'ziga e'tibor qarataylik. Mazkur so'z *terish, ekish, topshirish, o'lchash, ishlov berish* kabi tushunchalar bilangina situatsiya hosil qila oladi.

Semantik kauzatsiya inson ruhiyatining markaziy o'rnini egallagan hissiyotlar bilan ham uzviy bog'lanadi. Bu holat antik davrlardan boshlab keng tadqiq etib kelingan. Masalan, Platon ularni aql va tana istaklari bilan birga inson qalbining uchinchi muhim elementlaridan biri deb hisoblagan<sup>1</sup>. Aristotel hissiyotlarning asosiy turlari (qo'rquv, g'azab, quvonch, nafrat kabi) haqida fikr yuritib, fanga yangicha g'oyalarni olib kirgan<sup>2</sup>.

Zamonaviy jihatdan hissiyotlarning o'rganilishi 1884-yilda U. Jeymsning hissiyotlar nazariyasining asoslanganidan so'ng boshlandi<sup>3</sup>. Hozirgi kunda his-tuyg'ularning ifodalanishi muammosi lingvistik jihatdan keng o'rganilmoqda. Jumladan, ushbu masala yuzasidan V.I. Shaxovskiy, A.A. Kamalova, O.D. Tarasova kabi rus tilshunoslari tomonidan tadqiqot ishlarining nashr etilgani ma'lum<sup>4</sup>. Ammo o'zbek tilshunosligida emotsiyalarning kauzatologiya sohasida o'rganilgani yuzasidan biror bir ilmiy ish mavjudligi kuzatilmadi. Kauzatsiya deganda

---

1. Платон. Полное собрание творений Платона. Т. IV. Филеб. -Л.: АCADEMIA, 1929, 192 стр.  
2. Аристотель. Риторика. Поэтика. -М.: Лабиринт, 2000, 224 стр.  
3. Джеймс У. Психология. -СПб.: Изд-во К.Л.Риккера, 1911, 448 стр.  
4. Шаховский В.И. Эмоции. -М.: Книжный дом «ЛИБРОКОМ», 2009, 128 стр.; Камалова А.А., Берестнев Г.И. Эмоции как предмет лингвистического изучения//Przegląd wschodnioeuropejski x/2 2019, 349-360; Тарасова О.Д. Основные направления исследования эмоций в лингвистике//Вестник МГОУ, 2015, № 3. -С. 38-45.

qo'zg'ash, ta'sir etish ma'nosini tushinar ekanmiz<sup>1</sup>, bu jarayonda kauzantga nisbatan yo'naltirilgan qandaydir kauzativ xatti-harakatning ta'sir etishi natijasida uning emotiv holatga tushishi anglashiladi. Mavjud vaziyat psixologik filtrlar nazariyasi qonuniyati asosda tahlil etiladi. Ushbu konsepsiyaga ko'ra, munosabatlar o'z rivojlanishida bir qator o'ziga xos filtrlardan o'tadi. Masalan, ularning psixologik mazmuni munosabatlarning turi va kauzatsiyaning rivojlanish bosqichi bilan belgilanadi. Filtr deganda inson tomonidan ma'lum xabarning qabul qilinishini va uni o'zlashtirilishini tushunamiz. O'z navbatida, filtrlar quyidagi turlarga bo'linadi:

- 1) *vizual filtr* – ko'rish kanali;
- 2) *audial filtr* – eshitish kanali;
- 3) *kinestetik filtr* – mexanik ta'sir etish (teginish, ushlash);
- 4) *digital filtr* – subyektiv-mantiqiy kanal<sup>2</sup>.

Aytish kerakki, kauzativ ma'no tillarda turli grammatik vositalar yoprdamida voqelanadi. Masalan, hind tilida ichki fleksiya *sad-aya-ti* (*o'tqizyapti*) fransuz, nemis, ingliz, rus tillarida *obligier* (*majburlamoq*), *befehlen* (*buyurmoq*), *make* (*majburlamoq*), *требовать* kabi analitik formalar orqali yuzaga chiqsa, turkiy tillarda fe'lning orttirma nisbati, buyruq istak mayli shakllari hamda ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmalari, qo'shma fe'l, mustaqil fe'llar bilan ham ifodalanadi. Bugungi tilshunoslikda kauzativlik tushunchasi *faktiv*, *deontiv*, *permissiv*, *perventiv*, *assistiv* kabi turlarga bo'lib o'rganilmoqda. Kauzativlikning ushbu turlari orqali anglashilayotgan ma'no kauzator va kauzantning faoliyatiga qarab bir-biridan farqlanadi. Masalan, *faktiv* kauzatsiyada kauzator (ish-harakatga undovchi) kauzantga (undovchining buyrug'ini bajaruvchi) biror amalni bajartirgan bo'ladi:

*Onam tashqariga chiqib ketayotgan edi, Dalavoy to'xtatdi*  
(O'.Hoshimov. Dunyoning ishlari).

---

1. Хожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. -Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002, 47-bet.

2. <https://edprodpo.com/6-vidov-filtrov-vospriyatiya-informatsii> (Sahifaga 29.11.2023 da murojaat etildi).

Deontiv kauzatsiyada majburiyat yoki shart ma'nosi anglashiladi: *Sen ichimizda bashkalik bolasan. O'qishing kerak* (T.Malik. Alvigo bolalik).

Permissiv kauzatsiyada kauzator kauzantga biror ishni bajarishga ruxsat beradi:

*-Nazimchik, bechorani kechira qol. Nozim deganlari «ha, mayli» deb qo'l berdi* (T.Malik. Alvigo bolalik).

Perventiv kauzatsiyada kauzator kauzantga biror amalni bajarishga ruxsat bermaydi:

*-Tushaman! -Yo'q, opam qattiq bag'riga bosdi: -Tushmaysan!* (O'.Hoshimov. Dunyoning ishlari)

Assistivlikda kauzativ vaziyatda yordam berish ma'nosi o'z ifodasini topadi: *Shayxzoda domla qiynalgan talabalarga o'ziga sezdirmay yordam berardi* (S.Ahmaq. Yo'qotganlarim va topganlarim).

Tadqiqotimizda kauzativlikning ifodalanishi yuzasidan ko'rilayotgan masala yuqoridagilar bilan aloqador bo'lib, u emotiv xarakterga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Emotiv kauzatsiya kauzatorning kauzantga tasodifan yoki qasddan ta'siri oqibatida referentlarning psixik holatida o'zgarish sodir bo'lishini ko'rsatadi. Shu jihatdan, emotiv kauzatsiyaning o'rganish obyekti psixolingvistika sohasi bilan uzviy bog'lanadi. Emotiv kauzatsiya uch asosiy omilga tayanadi: sabab → oqibat → psixik holat.

Har qanday shaxs tafakkur, tasavvur va xotira orqali atrofdagi voqelik bilan tanishadi va uni idrok etadi. Sodir bo'layotgan voqealarga munosabat bildiradi, ma'lum kishilarga, hodisalarga nisbatan emotiv holatda bo'ladi. Bunday subyektiv munosabat shaxs ongida evristik shaklda namoyon bo'ladi. Insonning ichki dunyosida sodir bo'layotgan mazkur jarayon «psixoemotsional holat» deb yuritiladi. Psixoemotsional holat esa «psixofiziologik faktor» deb ataluvchi tushuncha tasarrufida shakllanadi va, o'z navbatida, kishini ayrim amallarni bajarishga undaydi, uning xatti-harakatlarini tartibga soladi yoki, aksincha, kaosni keltirib chiqaradi. Umuman, inson hissiyotining yuzaga chiqishi quyidagi emotiv komponentlarga bog'liq bo'ladi: *his-tuyg'u, affekt, kayfiyat, stress*. Ushbu komponentlar obyekti hisoblanuvchi emotsiyaning turlicha ifodalanishi



verbal va noverbal ko‘rinishdagi emotsional kauzativ elementlarga tayanadi. Verbal kauzativ emotsiyalar so‘zlashuv tili belgilari orqali ifodalansa, noverbal kauzativ tuyg‘ular *kinesika* (jestlar), *mimika* (yuz ifodasi), *okulesika* (ko‘z tili), *odorika* (inson tanasining hidi), *gastika* (taom va ichimliklarning belgi ifodalashdagi vazifasi) va *gaptika* (ushlab ko‘rish yoki teginish orqali tuyg‘uning ifodalanishi) kabi tushunchalarda o‘z ifodasini topadi:

1. *Boyadan beri chidab o‘tirgan «Tarasha»ning tajangligi tutib ketdi shekilli, shartta o‘rnidan turdi. -Xunasa! - dedi qo‘lini paxsa qilib* (O‘Hoshimov. Telpak).

2. *Maktubni olgan Imloqning yuzi g‘azabdan sarg‘ayib ketdi* (Nosiruddin Rabg‘uziy. Qisasi Rabg‘uziy).

3. *Shu asnoda ko‘z ko‘zga tushdi-yu, qizning nigohidagi latif bir harorat Humoyunning diliga behad iliq tuyuldi* (P.Qodirov. Avlodlar dovoni).

4. *Nizom o‘ram qilingan va so‘rg‘ichlangan zarhal qog‘ozni ochayotganda dimog‘iga xushbo‘y gul atri urildi. Bu unga Hamida bonuning hididek tuyuldi-yu, vujudini zavq va shodlikka to‘ldirdi* (P.Qodirov. Avlodlar dovoni).

5. *Ikki kosa ichishgandan keyin jigar kabobning hidi ishtahalarni qitiqlay boshladi* (A.Muxtor. Fano va baqo).

6. *Bizlar bir-birimizni turtib, qotib-qotib kulamiz* (Oybek. Bolalik xotiralarim).

Ko‘rib turganimizdek, keltirilgan birinchi misolda jestika orqali (*qo‘lini paxsa qilib*) kauzativ emotsiyaning ifodalanishini kuzatamiz. Bunda kauzator va kauzant munosabati ular o‘rtasidagi ziddiyatli vaziyatning vujudga kelishida ko‘rinadi. Misolda keltirilgan vaziyatda individlar o‘rtasidagi munosabat birdan shu ko‘rinishga ega bo‘lmagan, albatta. U ma‘lum bir vaqt mezonida filtrlar asosida g‘amlana borgan, natijada shu holatga (salbiy pozitsiyaga) kelgan.

Biz tahlil etayotgan emotiv kauzativ situatsiya sanab o‘tilganlardan vizual hamda audial filtrdan o‘tgandan so‘ng voqelanmoqda. Bu o‘rinda ikki yoqlama kauzatsiyani kuzatamiz: agensning patsiengga va patsiensning agensga ta’siri. Ushbu holatda patsiens *koakt-subyekt* (bir

amalni bajarishga majbur bo‘lgan subyekt)<sup>1</sup> maqomida kelmoqda, zero, u aks kauzatsiyani amalga oshirishga majbur bo‘lgan. Bu, o‘z navbatida, sabab va oqibat munosabatlari orqali amalga oshgan. Natijada individlarning bir-biriga nisbatan ijobiy his-tuyg‘ulari bo‘lishi mumkin bo‘lgan o‘rinni salbiy alomat qamrab olgan. Emotiv kauzatsiyaning mazkur holatdagi turini ziddiyatli vaziyat kauzatsiyasi deb ataymiz.

Yuqoridagi ikkinchi misolda yuz ifodasi orqali voqelanayotgan kauzativ situatsiyani (*yuzi g‘azabdan sarg‘ayib ketdi*) ko‘ramiz. Bunda maktubdagi xabar sabab maqomida bo‘lib, u individga shunday ta‘sir etmoqdaki, natijada mimikadan g‘azab ifodasi anglashilmoqda.

N.D.Levitov g‘azab orqali yuzaga chiqayotgan tuyg‘uni *affektiv* (*affekt* – lotincha «hayajon») holat deb hisoblaydi<sup>2</sup>. Affekt o‘zining qisqa muddatda sodir bo‘lishi bilan ajralib turadi. Boshqacha aytganda, u avtomatik tarzda paydo bo‘lib, ko‘pincha inson o‘zini himoya qilayotganida organizmning kauzatsiyaga qarshi reaksiyasi sifatida vujudga keladi. Ammo negair u emotsiyadan farqlab o‘rganiladi. Bizningcha, u ham aslida emotsiyaning bir ko‘rinishidir.

Uchinchi misolda ko‘z tili orqali kauzativlik ifodalanayotgan bo‘lib, unda kauzator kauzantga hissiy ta‘sir o‘tkazmoqda. To‘rtinchi va beshinchi misollarda hid orqali hissiy ta‘sir etish kuzatilmoqda. Ammo ular odorik va gastik jihatdan bir-biridan keskin farqlanadi. Birinchisida ikki shaxs o‘rtasidagi hissiy kauzatsiya, ikkinchisida esa taom va shaxs o‘rtasidagi ishtahani qo‘zg‘atish kauzatsiyasi yuzaga chiqmoqda. Oltinchi misolda ikki shaxs bir yo‘la ham kauzator, ham kauzant maqomida kelmoqda.

Verbal ifodadagi kauzativ emotivlar jumlasiga *g‘azablanmoq, nafratlanmoq, jirkanmoq, bezovta bo‘lmoq, ilhomlanmoq, zavqlanmoq, xafa bo‘lmoq, tashvishlanmoq, qoyil qolmoq, taassurot qoldirmoq, ta‘sirylanmoq, zulm qilmoq, tushkunlikka tushmoq, hayratlanmoq, qiziqmoq, g‘amxo‘rlik qilmoq, sharmanda bo‘lmoq, dahshatga tushmoq, azoblamoq* (ruhan), *asabiylashmoq, g‘amgin bo‘lmoq, qo‘rqmoq,*

---

1. Иосилевич Н.В. О структурно-семантических особенностях двусоставных предложений// Гуманитарные, социально-экономические и общественные науки. Вып. №10, 2014, 464 стр.

2. Левитов Н.Д. О психических состояниях человека. -М.: Просвещение, 1964. -С. 342.

*umidsizlikka tushmoq, uyalmoq, ajablanmoq, sarosimaga tushmoq, xursand bo'lmoq, ko'ngli ochilmoq, sevmοq, afsuslanmoq, hayajonlanmoq, rohatlanmoq, seskanmoq, rom etmoq, achinmoq* kabi qator fe'llarni kiritishimiz mumkin.

Mazkur fe'llar orqali qandaydir harakat yoki voqea-hodisaning inson his-tuyg'ulariga ta'sir etishi natijasida unda shunday holatlarning yuzaga chiqishi ifodalanadi. Kauzativli emotiv qurilmalarning boshqa kauzativ qurilmalardan farqi shundaki, unda kauzatsiyalovchi hodisa yoki shaxs va kauzatsiyalanuvchi subyektdan tashqari individning modusli holati (hissiyotga ta'sir etuvchi qandaydir xabarning shaxs tomonidan idrok etilishi) ham mavjud bo'ladi. Shuning uchun ham emotiv kauzal jarayonning yuzaga chiqishi ko'proq kauzantning ta'sir etish uchun mo'ljallangan xabarning qanday qabul qilishiga va unga qay tarzda reksiya ko'rsatishiga bog'liq bo'ladi. Agar kauzant hodisaga befarq holatda bo'lsa, kauzatsiya amalga oshmaydi, boshqacha aytganda, *g'azablanmaydi, nafratlanmaydi, bezovta bo'lmaydi* va hokazo. Shu bois mazkur holatni *konstatativ* (*constatation* – fransuzcha «mavjudligini tan olish») jarayonga zid deb bilamiz. Shuning uchun bo'lsa kerak, Y.V.Paducheva emotiv kauzatsiyani ifodalovchi fe'llarni *agentiv* (qandaydir harakatga aloqador) bo'la olmasligini va ularning *izosemik* (ikki obyekt o'rtasidagi munosabat) xarakterga ega emasligini ta'kidlaydi<sup>1</sup>.

Bizningcha, emotiv kauzatsiyani ifodalovchi fe'llar ham *agentiv*, ham *izosemik* xarakterli bo'la oladi. Zero, kauzativlik mavjudmi, demak unda harakatga aloqadorlik hamda ikki obyekt o'rtasidagi munosabatning mavjudligi kuzatiladi:

*Uyg'onish davri madaniyati antik dunyo madaniyatidan ilhomlandi* (R.Esanov. San'at tarixi).

Ko'rib turganimizdek, keltirilgan misolda ikki obyekt o'rtasida munosabatning mavjudligi va harakatga aloqadorlik mazmuni obrazli emotivlikka tayangan holda yuzaga chiqmoqda.

---

1. Падучева Е.В. Динамические модели в семантике лексики. -М.: Языки славянской культуры, 2004. -С. 51-79.

V.Y. Apresyan ham emotsional kauzativlarni agentiv emasligi xususidagi fikrni qo‘llab quvvatlaydi va quyidagi misollarni keltiradi: *Меня удивил такой поворот событий; В последнее время Петя не радуется своих родителей*<sup>1</sup>. V.Y. Apresyan aniq bir maqsadga qaratilgan harakatni agentiv deb tushunadi. Jumladan u *злить, пугать, веселить* kabi emotiv xarakterli fe’llarni agentiv deb hisoblaydi.

Bizningcha, harakat maqsadlimi yoki yo‘qmi, qat’i nazar agentiv bo‘lishi mumkin. Zotan, agentivlik *agens* tushunchasi bilan bog‘lanadi va ish-harakatning faol ishtirokchisining mazkur harakatga aloqadorligini ko‘rsatadi. Shunday ekan, olim keltirgan misollardagi *события* va *Петя* so‘zlari *agens* maqomida bo‘lib, ular yuzaga chiqarayotgan *удивил, радуется* fe’llari esa agentiv hisoblanadi. Masalan, Y.D. Apresyan agentiv deb hisoblayotgan *злить, пугать, веселить* kabi fe’llarni u keltirgan misollardagi fe’llar o‘rnida almashtirib qo‘llasak, agentivlik alomatini yo‘qotmaydi-ku: *Меня злил такой поворот событий; В последнее время Петя не пугает своих родителей* kabi.

Shuni aytish kerakki, emotsional kauzativli situatsiyani bir subyektli yoki ko‘p subyektli kabi turlarga bo‘lib o‘rganish mumkin:

1. *Kuragiga fonendoskopning muzdek halqasi tegishi bilan vujudida xushnud bir yengillik sezdi* (O‘.Hoshimov. Nurli dunyo).

2. *Hozir uning ko‘nglida ham bir vaqtlar yonib, keyin kulga aylangan cho‘g‘ yana yilt etganini, agar salgina shabada tegsa, bu cho‘g‘ lovillab ketishi mumkinligini sezdi* (O‘.Hoshimov. Nurli dunyo).

Keltirilgan birinchi misolda kauzatsiya rejalashtirilgan holda amalga oshirilgan. Zero, vrach ko‘rigiga kelgan bemorning ko‘rikdan o‘tkazilishi shuni taqozo etadi. Bu kauzativ situatsiyada birgina individ qatnashib, predmet (fonendoskop) kauzator maqomida kelmoqda. To‘g‘ri, predmetni kimdir boshqarmoqda, ammo u ishtirokchi sifatida gavidalanmayapti. Emotsiya bir individda sezilmoqda, xolos. Fonendoskop esa buning sababchisi sifatida xizmat qilmoqda. Chunki kauzant shu predmet sababli *xushnud bir yengillik sezmoqda*. Shunday

---

1. Апресян В.Ю. Семантика эмоциональных каузативов: статус каузативного компонента// В кн.: Компьютерная лингвистика и интеллектуальные технологии: по материалам Международной конференции «Диалог 2013». Вып. 12(19). -М.: РГГУ, 2013. -С. 32.

ekan, kauzatsiyada kauzator maqomida doim boshqa individ kelishi shart emas. Kauzantga predmet ham ta'sir etishi mumkin. Yoki predmet ham kauzant vazifasini bajarishi mumkin. Bir individlik tushunchasi nisbiy xarakterli bo'lib, aslida kauzatsiyada ko'preferentlilik mavjuddir, shunday bo'lmas ekan, qo'zg'ash ma'nosi ham qaror topmaydi. Kauzativ jarayon X (kauzator) – Y (kauzant) – Z (konsekvent-semantik xulosa) tarzida voqelanar ekan, unda doim ko'pkomponentlik alomati kuzatiladi<sup>1</sup>.

Ikkinchi misolda emotsional kauzatsiyaning ifodalanishi ikki shaxsda kuzatiladi. Buni aniqroq tasavvur etish uchun ushbu qurilmani sintaktik derivatsiya metodi asosida tahlilga tortib ko'ramiz:

- 1) *sezdi* (V) – tub struktura;
- 2) (U) *sezdi* (N+V) – tayanch struktura;
- 3) (U) *mumkinligini sezdi* (N+X<sub>1</sub>+V) – derivat/op: -ni;
- 4) (U) *lovillab ketishi mumkinligini sezdi* (N+X<sub>2</sub>+V) – derivat/op:-i;
- 5) (U) *cho'g' lovillab ketishi mumkinligini sezdi* (N+X<sub>3</sub>+V) – derivat/op: -ning;
- 6) (U) *bu cho'g' lovillab ketishi mumkinligini sezdi* (N+X<sub>4</sub>+V) – derivat/op: bu;
- 7) (U) *shabada tegsa, bu cho'g' lovillab ketishi mumkinligini sezdi* (N+X<sub>5</sub>+V) – derivat/op: -sa;
- 8) (U) *salgina shabada tegsa, bu cho'g' lovillab ketishi mumkinligini sezdi* (N+X<sub>6</sub>+V) – derivat/op: salgina;
- 9) (U) *agar salgina shabada tegsa, bu cho'g' lovillab ketishi mumkinligini sezdi* (N+X<sub>7</sub>+V)– derivat/op: agar;
- 10) (U) *cho'g' yana yilt etganini, agar salgina shabada tegsa, bu cho'g' lovillab ketishi mumkinligini sezdi* (N+X<sub>8</sub>+V) – derivat/op: -ni;
- 11) (U) *kulga aylangan cho'g' yana yilt etganini, agar salgina shabada tegsa, bu cho'g' lovillab ketishi mumkinligini sezdi* (N+X<sub>9</sub>+V) – derivat/op: -gan;
- 12) (U) *keyin kulga aylangan cho'g' yana yilt etganini, agar salgina shabada tegsa, bu cho'g' lovillab ketishi mumkinligini sezdi* (N+X<sub>10</sub>+V) – derivat/op: keyin;

---

1. Turniyozov B.N. Kauzativ qurilmalar sintaktik derivatsiyasi. -Samarqand: SamDCHTI, 2022, 223-bet.

13) (U) yonib keyin kulga aylangan cho‘g‘ yana yilt etganini, agar salgina shabada tegsa, bu cho‘g‘ lovillab ketishi mumkinligini sezdi (N+X<sub>11</sub>+V) – derivat/op: -ib;

13) (U) bir vaqtlar yonib keyin kulga aylangan cho‘g‘ yana yilt etganini, agar salgina shabada tegsa, bu cho‘g‘ lovillab ketishi mumkinligini sezdi (N+X<sub>12</sub>+V) – derivat/op: -bir vaqtlar;

14) (U) uning ko‘nglida ham bir vaqtlar yonib keyin kulga aylangan cho‘g‘ yana yilt etganini, agar salgina shabada tegsa, bu cho‘g‘ lovillab ketishi mumkinligini sezdi (N+X<sub>13</sub>+V) – derivat/op: -da ham;

15) (U) Hozir uning ko‘nglida ham bir vaqtlar yonib keyin kulga aylangan cho‘g‘ yana yilt etganini, agar salgina shabada tegsa, bu cho‘g‘ lovillab ketishi mumkinligini sezdi (N+X<sub>14</sub>+V) – derivat/op: hozir.



Derivatsion tahlilning o‘n to‘rtinchi bosqichida kuzativ situatsiyada ikkinchi referent ham ishtirok etayotganining guvohi bo‘lamiz. Mazkur emotiv kuzatsiya azaldan rejalashtirilgan emas, balki ikki shaxs tuyg‘usida kutilmaganda sodir bo‘lgan jarayondir. Bunda iyererxik emotsiyaning kuzatsiyalanishini ko‘ramiz. Aniqrog‘i, ushbu jarayonda birinchi individda ikkinchi individ tufayli shakllangan umidning paydo bo‘lishi, undan so‘ng kuzator maqomidagi *shabada* tushunchasining kuzatsiyaga kuchliroq tus berishi va xuddi shunday holatni, o‘z navbatida, ikkinchi individ ham his etayotgani kuzatiladi. Ammo, shuni aytish kerakki, kuzatsiyaning kuchli bosqichi hali amalga oshganicha yo‘q, zotan, u shartlilik alomatiga ega.

Shunday qilib, emotiv kuzatsiya ko‘pincha ikki shaxs o‘rtasidagi kuzativ munosabatda amalga oshadi. Bunda kuzator kuzantga aqliy, ruhiy, informativ, pertseptiv jihatdan ta’sir etib, shaxslararo psixologik munosabat yuzaga keladi. Shu asosda yuqorida ko‘rib o‘tganimiz singari emotsional o‘zgarishlar natijasida emotsional-kuzativ kompleks voqelanadi.

Semantik kuzatsiyada o‘rganilishi kerak bo‘lgan navbatdagi vazifalardan yana biri sabab va oqibat munosabatini yuzaga chiqaruvchi frazeologik konversivlar tavsifini yoritishdan iborat.

«Konversiv» termini lotinchadan olingan bo‘lib, «aylantirmoq» degan ma’noni anglatadi. Mazkur termin orqali ifoda etilayotgan situatsiyaga turli nuqtayi nazardan qaraladi. Masalan, *Sobir Ahmaddan uy sotib oldi* jumlasining konversivi *Ahmad Sobirga uyini sotdi* tarzida namoyon bo‘ladi.

Frazeologik konversivlar deganda subyekt va obyekt yoki ikki subyekt o‘rtasidagi teskari kauzativ munosabatni ifodalovchi frazeologik birliklar juftligini tushunamiz. Frazeologik konversivlar *antetsedent* (sabab) hamda *konsekvent* (semantik xulosa) funksiyalari almashuvchi birliklarni taqozo etadi: *hayratda qolmoq – hayratda qoldirmoq*, *g‘azabga kelmoq – g‘azabga keltirmoq*, *qahri kelmoq – qahrini keltirmoq*, *yer bilan yakson bo‘lmoq – yer bilan yakson etmoq* kabi.



1. *U g‘azabga keldi: Sabab–I<sub>1</sub>(kimdir ta’sir etdi)→caus→ Z=I<sub>2</sub> (U) g‘azabga keldi.*

2. *U g‘azabga keltirdi: Sabab–I<sub>1</sub>(U) g‘azabga keltirdi (kimgadir ta’sir etdi)→caus→ Z=I<sub>2</sub>.*

Bundan tashqari, semantik kauzativatsiyada obyekt yoki individlarning hodisaviy jarayonda ishtirok etishiga qarab yuzaga chiqayotgan ma’no munosabatini quyidagi turlarga bo‘lish mumkin:

1. Sabab va oqibat hodisasini beruvchi kauzativlik: *bekorga mushuk oftobga chiqmaydi, shamol bo'lmasa daraxtning uchi qimirlamaydi, bir balosi bo'lmasa shudgorda quyruq na qilur.*

2. Bir shaxsning ikkinchisiga ta'siri natijasini taqozo etib, individual hodisaviylikni yuzaga chiqaruvchi kauzativlik: *ishning o'zini bilguncha, ko'zini bil, sanamay «sakkiz» dema, dehqon bo'lsang shudgor qil, mulla bo'lsang takror qil.*

3. Hodisada ikki referent ham ishtirok etuvchi kauzativlik: *sen bo'rini ayasang, bo'ri seni talaydi, sendan harakat – mendan barakat, sigiring xo'ra bo'lsa, berdi xudo, xotining xo'ra bo'lsa, urdi xudo, sizdan ugina, bizdan bugina.*

Shunday qilib, kauzativ hodisa voqelanishi uchun uchta komponentning, ikki situatsiya hamda ular o'rtasidagi sabab va oqibat munosabatining, mavjud bo'lishi talab qilinadi: *Kuch – adolatda* jumlasidagi *adolat* argumenti sabab, *kuch* argumenti oqibat, ikki nominativ hodisa o'rtasidagi mantiqiy bog'lama *-dir* shakli esa sabab va oqibatni yuzaga chiqaruvchi kauzativ ko'rsatkich bo'lishi kabi.

Aynan kauzativlik haqida aytilmagan bo'lsa-da, o'rta asrlardayoq (XVI-XVII) lingvistik hodisalarning mazmuniy mezonlarga to'g'ri kelishi A.Arno, K.Lanslolar tomonidan ta'kidlab o'tilgan edi. Ularning *La terre est ronde* (Yer yumaloqdir) tarzidagi keltirgan misolida *est* (-dir) bog'lamasining mazmunan muhim ahamiyat kasb etishi izohlab o'tilgan edi<sup>1</sup>. Zero, bog'lama kauzativlik semantikasida konsekvent ifodasini beradi. Yuqoridagi keltirilgan misollarda ham uch komponentning mavjudligini ko'ramiz. Jumladan, mushukning oftobga chiqishi orqali ifodalanayotgan idiomatik ma'nodan oqibat, *bekorga* so'zidan qandaydir sabab hamda sabab va oqibatni ifodalovchi frazeologizmning umumiy semasidan uch tarkibiy qismning kauzativ hodisa ifodalayotganining guvohi bo'lamiz.


---

1. Bu haqda qarang: Арно А., Лансло К. Грамматика общая и рациональная, содержащая основы искусства речи, изложенные ясным и естественным образом, толкование общего в языках и главные различия между ними, а также – многочисленные новые замечания о французском языке (Перевод с французского Н.Ю.Бокадоровой). -М.: Прогресс, 1990, 267 стр.



Shuni aytish kerakki, hodisaviylik nutqiy faoliyat bilan chambarchas bo‘g‘liqdir. Nutqiy faoliyat esa tafakkurning umumbashariylikiga asoslanadi. Shu bois, avval ta’kidlab o‘tilganidek, tafakkur shakllari, tamoyillari insonning millati, irqidan qat’i nazar, hammadada bir xildir. Aks holda nutqiy muloqot xususida so‘z ham yuritib bo‘lmas edi. Mazkur vaziyatda so‘zlovchi fikrdan so‘zga tomon «pasaysa», tinglovchi so‘zdan fikrga qarab «ko‘tariladi». Bu tinglovchining so‘zlovchi fikriga o‘xshash va mos keladigan «fikrlar xazinasiga» kirib borganligidan dalolat beradi. Masalaga shu nuqtayi nazardan yondashsak, tilning vazifasini mazkur xazinaga yo‘l ochuvchi kalit va unda kauzativlikni azaldan shartlashgan holda mavjud deb bilamiz. Kauzativlik gologramma ko‘rinishidagi hodisalar elementlarining o‘zaro ta’siri jarayonini aniqlovchi kvant maydoni kabidir. Shuning uchun ushbu maydonda bir kauzativ hodisa, u kattami kichikmi qat’i nazar, boshqa hodisaning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi.

### Kauzativatsiya gologrammasi




$$k=C_1+S_{-1}\rightarrow I_2+C_3\rightarrow I_3+C_4\rightarrow I_4.$$

k–kauzatsiya konstantasi, C–kauzativ situatsiya, S–kauzatsiyalovchi shaxs (kauzator), I–kauzatsiyalanuvchi individ (kauzant), 1,2,3,4–kauzatsiyaning turli tomonlama aks etishi.

Masalan, yuqorida keltirilgan gologrammada har bir mikrokauzativ hodisa qandaydir hodisa asosida shakllanadi, u ham, o‘z navbatida, boshqa hodisaning yaralishi uchun sabab bo‘ladi. Bunda

kauzaoperatorning kauzaoperandga ta'siri natijasida har biri turli individlarga nisbatan kauzativlik ko'rsatkichiga ega bo'lgan mikrohodisalar voqelanayotganining guvohi bo'lamiz. Kauzativ hodisa semantikasining iyerarxiyasi uning ichki resurs birliklarining o'zaro munosabati natijasida faollashtiruvchi va faollashuvchi tarzidagi ma'no ifodalarining berilishida aks etadi. Gologramma maydonidagi mikrokauzativ hodisalar xususida birdan xulosa chiqarish qiyin, albatta. Zero, ularning faoliyati (nutq muhitida aniq makrokauzativ situatsiyaning muchasi sifatida faoliyat yuritishi) kauzasemantik grafda aniqlanadi. Kauzativ hodisaning mazmuniy butunliklari hamda ular o'rtasidagi kauzal munosabatlar kauzasemantik grafni tashkil etadi:


–*Shayxga odam yuboring, ul zot oyoq ostida qolib ketmasun, qayga istar, onga ketsun* (Erkin Samandar. Fayb qushlari).



Kauzal mexanizm bevosita yoki bilvosita qandaydir natijaning amalga oshishini taqozo etadi. Shu bois undagi kauzal effekt *proksimal* yoki *distal* holatda bo'ladi. Biz ko'rsatayotgan mexanizmdagi natija bilvosita amalga oshirilmoqda. Shu bois undagi effekt distal hisoblanadi. Bundan tashqari, mazkur makrokauzativ hodisaning konsekvanti *kovariativ* faktor bilan aloqadordir. Kovariatsiya hodisalarning bir vaqtning o'zida o'zgarishini, shakllanishini anglatadi. Masalan, bir


hodisa tasdiqlansa, ikkinchisi ham tasdiqlanadi yoki inkor etilsa, ikkinchisi ham inkor etiladi. Ba’zan buning aksi ham bo‘lishi mumkin. Bir vaqtning o‘zida bir hodisa tasdiqlansa, ikkinchi inkor etiladi.

### Kovariatsion munosabat



Kauzatsiyada vaqt bo‘yicha hodisalarning biri ikkinchisidan oldin keladi. Shunda oldingi hodisa keyingi hodisaning sababi bo‘ladi.

### Kauzativ munosabat



Yuqorida keltirilgan misolning natijaga ishora qiluvchi *ul zot oyoq ostida qolib ketmasun va qayga istar, onga ketsun* degan qismlarida hodisalarning bir vaqtning o‘zida sodir bo‘lishi anglashilmoqda. Taqdim etilayotgan kauzasemantik grafda *kauzativ kovariatsiya* hodisasi voqelanmoqda.

Bundan tashqari, derivativ rejada birgina mikrokauzativning o‘zi ham makroxarakterli maqomga erishishi mumkin:

–*Jim o‘tir. Jim. ... -deydi bobosi burchakda turgan televizorga ishora qilib* (Tog‘ay Murod. Bobosi bilan nevarasi).

*Qishloq bolalari allaqachon bu kaptarlarni bezdirishardi* (Nurali Qobul. Kaptarlar qaytmagan tun).

Yuqorida keltirilgan misollarning birinchisida *jim* kauzativi qandaydir hodisaning ta‘siri oqibatida o‘z holicha makrohodisa sifatida yuzaga chiqmoqda. Ikkinchi misolda esa *bezdirishardi* kauzativi qandaydir hodisaning ta‘siri natijasida yuzaga kelgan makrokauzativ situatsiyaning mikrokauzativ muchasi sifatida voqelanmoqda: *Ta‘sir(sabab)→Kauzativ→Oqibat. Ta‘sir(sabab)→Oqibat→Kauzativ* kabi.

Umuman, kauzativ qurilmalar semantikasi derivatsion qonuniyat asosida keng tahlil etiladi. Bu kauzasemantik derivatsiya deb yuritiladi. Derivatsion nuqtayi nazardan mazkur holatda ham derivatsiyaning boshqa turlari singari *kauzaoperand*, *kauzaoperator* va *kauzaderivat* terminlaridan foydalanamiz. Kauzaoperand deganda kauzativ situatsiyaning hosil bo‘lishida ishtirok etuvchi til va nutq birliklarini tushunamiz. Kauzatsiyaning voqelantiruvchi unsurlar esa kauzaoperator deb yuritiladi. Kauzativ hodisaning shakllanishi kauzaderivatni taqozo etadi. Quyida derivatsiyaning ushbu ko‘rinishini faktik til materialidan olingan misol yordamida tahlil qilib o‘tamiz:

*Sa‘vani bir qarchig‘ay shiddat bilan quvib borar, ora daqiqa sayin qisqarib, qochayotganning madori quriyotgani va quvayotganning jahdiga jahd qo‘shilayotgani shayxga ayon bo‘lib turar edi. Shayx holdan toygan sa‘vaga nazar solganlari asno manzara o‘zgardi, avvalinda ikkala qush o‘rtasidagi oraliq ochilib, sa‘va o‘z raqibidan uzoqlasha boshladi, so‘ngra jahd bilan orqasiga o‘girildi-da, daf‘atan qarchig‘ay ustiga bostirib kelaverdi. Uning zabtiga dosh berolmagan qarchig‘ay orqasiga qayrilib qocha boshladi. Sa‘va uni bir zumda quvib yetdi-da, zarb bilan qanotiga chang soldi. Ko‘p o‘tmay qarchig‘ayning qanotlari qayrildi. Sa‘va uning kekirdagiga og‘iz solib, bo‘ynidan ombirday qisganicha pastga o‘qday otildi va ko‘z ochib-yumguncha*

*ayvon tepasiga kelib jonidan judo bo'lgan qarchig'ayni shayxning oyoqlari ostiga tashladi* (Erkin Samandar. Fayb qushlari).

Keltirilgan misol makro xarakterli kauzatsiya bo'lib, u oltita kauzativ hodisadan tashkil topgan. Jumladan, *Sa'vani bir qarchig'ay shiddat bilan quvib borar, ora daqiqa sayin qisqarib, qochayotganning madori quriyotgani va quvayotganning jahdiga jahd qo'shilayotgani shayxga ayon bo'lib turar edi*, degan hodisa katta hodisanning bir qismi hisoblanadi. Ammo bu hodisani o'zi ham beshta mikro hodisani o'z ichiga olib, ularga nisbatan makrokauzatsiyani tashkil etadi:

- 1) *sa'vani bir qarchig'ay quvib bordi* – distantli kauzatsiya;
- 2) *ora daqiqa sayin qisqardi* – distantli (o'lchov ifodalovchi) kauzatsiya;
- 3) *qochayotganning madori quridi* – sironstativ kauzatsiya;
- 4) *quvayotganning jahdiga jahd qo'shildi* – psixologik-sironstativ kauzatsiya;
- 5) *shayxga ayon bo'ldi* – psixologik-bixevioristik kauzatsiya.

$DC_{1h} \rightarrow DC_{2h} \rightarrow SC_{3h} \rightarrow PSC_{4h} \rightarrow PBC_{5h} \rightarrow MCH$

Kauzatsiyaning har xil turlarini birlashtirib, makro kauzativ hodisani voqelantirayotgan qurilmaning kauzaseamantik derivatsiyasining hosilasi umumiy rejada distantli faktivlikni taqozo etadi. Bunda *sa'vani, bir, qarchig'ay, ora, daqiqa, sayin, qochayotganning, quvayotganning, shayxga* kabi elementlar mazkur qurilma operandlari hisoblanadi. Ular tayyor xomashyo bo'lib, nutq vaziyatida operatorlarsiz sinaktik faollik ololmaydi. *Quvib bordi, qisqardi, madori quridi, jahdiga jahd qo'shildi, ayon bo'ldi* kabilar esa kauzativizatsiyani ham semantik, ham sintaktik rejada faollashtiruvchi unsurlar hisoblanadi. Bundan tashqari, kauzatsiya operandlari nominativ birlik sifatida ma'lum bir ma'noni ifodalasa-da, operatorlarsiz umumiy konstruksiyaning ma'nosi yuzaga chiqmaydi. Chunki mazkur elementlar fe'l, jumlaning esa fe'lsiz (ayrim nutq birliklaridan tashqari) shakllanmasligi tabiiy. Ammo ular morfologik jihatdan fe'l bo'lishi bilan birga, kauzativatsiya semantikasida semantik kauzaoperator vazifasini ham o'taydi. O'z navbatida, kauzaoperatorlar ham morfologik

strukturasiga ko‘ra farqlanadi: *quvib bordi* (analitik kauzatema), *qisqardi* (affiksial kauzatema), *madori quridi* (analitik kauzatema), *jahdiga jahd qo‘shildi* (analitik kauzatema), *ayon bo‘ldi* (analitik kauzatema).

Shunga ahamiyat berish kerakki, derivatsion qonuniyat prinsipiga ko‘ra derivatsion jarayonda keyin kelgan operator avvalgisini inkor etadi. Shu asosda sabab va oqibat munosabatining ham iyerarxik tarzda o‘tib borishiga zamin yaratiladi: *Sa‘vani bir qarchig‘ay shiddat bilan quvib borar* (sabab), *ora daqiqa sayin qisqarib* (oqibat → sabab), *qochayotganning madori quriyotgani* (oqibat → sabab) va *quvayotganning jahdiga jahd qo‘shilayotgani* (oqibat → sabab) *shayxga ayon bo‘lib turar edi* (oqibat).

Biz yuqorida berilgan kauzativ hodisaning birgina qismini namuna sifatida tahlil etdik, xolos. Uning boshqa muchalari ham semantik jihatdan tahlil etilsa, operandlar va operatorlar munosabatini, umuman, kauzativ qurilmaning semantik rejada to‘liq shakllanishini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, kauzativ qurilmalar semantikasi lingvistika sohasida ancha keng ko‘lamda o‘rganilmoqda. Ammo bu masala tavsifiga tilshunoslar tomonidan turlicha yondashilmoqda. Shu jumladan, biz ham semantik kauzatsiya muammosiga tegishli bo‘lgan mulohazalarimizni hodisaviylik tushunchasiga tayangan holda atroflicha bayon etib o‘tdik. V.fon Gumboldt ta‘biri bilan aytganda, siyosat, san‘at va ilm-fanning hozirgi holatiga nazar tashlasak, ularning asrlar davomida sayqal topishi asosida sabab va oqibat munosabatlarining uzun zanjiri yotganini ko‘ramiz<sup>1</sup>.

---

1. Qarang: Гумбольдт В.фон. Избранные труды по языкознанию. -М.: Прогресс, 2000. -С. 47.

## *Uchinchi bob*

### **LEKSIK KAUZATSIYA**

*So‘z sermazmun bo‘lib, u ko‘p narsalarga dalolat qiladi.*

(A.R.Rustamov)

Leksik kauzaderivatsiya so‘z yasalishi jarayoniga aloqador bo‘lib, unda yasama fe’llarning undash, qo‘zg‘ash ma’nolariga daxldor tomonlari va mazkur ma’nolarning sabab tushunchasi bilan bog‘liqligi maslasi tahlil etiladi. So‘z yasalishi esa mikrosintaksisning tekshiruv obyekti sanaladi va leksik derivatsiya qonuniyatiga tayanadi. A.Rahimov to‘g‘ri ta’kidlaganlaridek, so‘z yasalishi sintaktik derivatsiya tamoyillari asosida tadqiq etiladi va bunda ma’lum bir asos struktura bazasida hosila strukturaning vujudga kelishi *operand + operator + derivat* (hosila) sxemasiga tayanilgan holda talqin etiladi. Mavjud model barcha turdagi derivatsiya uchun umumiy mezon sifatida xizmat qiladi<sup>1</sup>.

So‘z yasalishi masalasi azaldan tilshunoslarni qiziqtirib kelgan bo‘lib, bu soha turkiyshunoslikda ham, jahon tilshunosligida ham ancha keng o‘rganilgan. Jumladan, bobokalon ustozlarimiz Mahmud Koshg‘ariy, Mahmud Zamaxshariy, Mirzo Mehdixonlarning ilmiy meroslarida, «Attuhfa» asarida so‘z yasalishi muammosi yoritilgan boblar ushbu masala talqinining yorqin namunasi hisoblanadi. Masalaning paradoksal tomoni shundaki, diaxroniyada lug‘atchilikka katta e’tibor berishib, so‘z yasalishini alohida yo‘nalish sifatida ko‘tarishga intilishgan bo‘lsa, sinxroniyada XX asrning boshlarigacha so‘z yasalishi etimologiyaning ichida «suzib» yurardi. Hatto grammatikaning birinchi bo‘limi ham shu maqomda edi. U F.Fortunatov ta’limotidan so‘ng, garchi biologiyaga oid termin bilan atalgan bo‘lsa-da, har holda, tilshunoslikning mustaqil obyekti sifatida o‘rganila boshlandi va uning kichik birligi I.A.Boduen de Kurtene tomonidan asoslab berildi.

---

1. Bu haqda qarang: Раҳимов А.С. Лексик ва семантик деривация муаммолари. -Тошкент: Наврўз, 2011, 96-б.

XX asrning boshlarida taniqli tilshunos A.A.Shaxmatovning soʻz yasalishi tilshunoslikning mustaqil sohasi sifatida tadqiq etilishi kerakligi haqida bildirgan bayonoti<sup>1</sup> olimlar tomonidan qoʻllab-quvvatlanmadi va koʻp yillar mobaynida u tilshunosning shaxsiy fikri sifatida eʼtirof etildi. Ammo oʻsha davrda oʻzbek tilshunosligida, garchi soʻz yasalishi mustaqil soha sifatida oʻrganilmagan boʻlsa ham, bu borada ancha peshqadam fikrlar kun tartibiga qoʻyilayotgan edi. Bunga misol qilib Abdurauf Fitrat, Ashurali Zohiriy kabi tilimiz fidoiylarining lingvistik qarashlarini keltirishimiz mumkin<sup>2</sup>.

Bizningcha, soʻz yasalishiga nisbatan meʼyorlashmagan yondashuvning oʻziga xos sabablari bor edi. Birinchidan, soʻz yasalishiga leksikologik tushuncha tarzida qaralar edi. Ikkinchidan, XIX asr oxiri XX asr boshlarida soʻz yasalishining amaldagi umumiy nazariyasi ham yoʻq edi. Soʻz yasalishining umumiy nazariyasi asoslari oʻtgan asrning 40-50-yillaridan boshlab A.Gʻulomov, A.I.Smirnitskiy, V.V.Vinogradov, G.O.Vinokur, kabi tilshunoslarning asarlarida ifodasini topa bosahladi. Jumladan, A.Gʻulomov bu haqda quyidagilarni yozadi: «Soʻz yasalishi tilshunoslik fanining ayrim bir boʻlimi, mustaqil lingvistik soha, tarmoq boʻlib, u soʻzlarning yasalishini, yangi soʻz hosil qilishning qonun-qoidalarini, modellarini, vositalarini, shu bilan bogʻliq holda soʻzlarning tuzilishini tekshiradi»<sup>3</sup>.

Shunday qilib, soʻz yasalishi tilshunoslikning mustaqil sohasi maqomida tadqiq etilib kelinmoqda. Jumladan, oʻzbek tilshunosligida ham soʻz yasalishi masalasi talqiniga bagʻishlangan qator ilmiy asarlar

---

1. Bu haqda qarang: Романова Н.П. Взгляды А.А.Шахматова на словообразование. -ГПИБ, 1966. -С. 104-113.

2. Bu haqda qarang: Fitrat A. Tilimiz//Ishtirokiyun. 1919, 12-iyun; Zohiriy A. Til va imlo masalasi//Qizil Oʻzbekiston. 1929, 29-mart.

3. Bu haqda qarang: Гулямов А.Г. Слобообразование путем внутренних изменений слова в узбекском языке//Научная сессия Академии наук УзССР. -Ташкент, 1947; Смирницкий А.И. Некоторые замечания о принципах морфологического анализа основ//Доклады и сообщения филологического факультета. -М.: МГУ Вып. 5. 1948; Виноградов В.В. Русский язык в школе. 1951, № 2. -С 136; И.Т.Вепрева, С.Ю.Данилов. Г.О.Винокур и современная словообразовательная наука. -Екатеринбург: Изд-во Уральского ун-та. 2001.



Y.Tojiyev, A.Hojiyev kabi zabardast olimlarimiz tomonidan nashr ettirilib, o'quvchilarga, ilmiy izlanuvchilarga taqdim etildi<sup>1</sup>.

Zamonamiz tilshunosligida yangi so'z hosil qilishning qonun-qoidalari, modellari, vositalari, shu bilan bog'liq holda so'zlarning tuzilishi sintaktik qonuniyat asosida o'rganilmoqda<sup>2</sup>. Bunda, o'z navbatida, sintaktik derivatsiyaning ish mexanizmlaridan biri bo'lgan applikativ model metodiga amal qilinmoqda<sup>3</sup>.

Til belgisi o'z mohiyatiga ko'ra abstrakt tushuncha bo'lib, u ma'lum bir konkret narsani yoki hodisani shartli ravishda atashga xizmat qiladi. Masalan, daraxtni temir deb atasak ham unga farqi yo'q. Zero, nega aynan daraxt deb ataganimizni ham bilmaymiz. Demak, insonlar til belgilarini Alloh in'om etgan tafakkurga tayangan holda yaratadilar. Boshqacha aytganda bir narsani boshqasidan farqlash uchun ularga belgi qo'yadilar. Applikativ model generatorida ham abstrakt abstraktlovchilar abstraktlashtirish uchun xizmat qiladi. Ammo shu orqali biz narsalarni imkon qadar aniqlashtirishga harakat qilamiz. Boshqacha aytganda, so'z o'zi ifodalayotgan narsaning o'zi uchun emas, balki uni qandaydir nom bilan atash uchun xizmat qiladi, xolos.

So'z generator maydonida *O* deb belgilanuvchi bo'sh semion bo'lib, u operand maqomini egallaydi. Unga esa, o'z navbatida, *x* relyator semioni tirkalib, *x* episemionini taqdim etishga xizmat qiladi. Natijada semionlar hosilasi vujudga keladi. Masalan, *x . αβ* relyatori bo'sh semion *O* ga tirkalsa, *αβ* tarzidagi episemion hosil bo'ladi. *O* esa faqat operand vazifasini o'taydi. Bo'sh o'rinlar to'lgandan so'ng generatorida so'z tushunchasi voqe topadi. Shu yo'sinda *xα* , *x . αα* , *x : αα . αα* , *x . αβ* , *x: αβ . αβ* tarzidagi abstrakt affikslar applikatsiyasi natijasi o'laroq birin-ketin yasama so'zlar mikroderivatsiyasi voqelana boshlaydi. Vertikal uyushmada konkret semionlar va relyator semionlarning qo'llanishi haqida so'z yuritish biroz noqulaylik tug'diradi, zero til o'z mohiyatiga

---

1. Qarang: Тожиєв Ё. Ўзбек тилида шахс отлари ясовчи аффикслар синонимияси. -Тошкент: ТошДУ, 1987; Ҳожиєв А. Ўзбек тилида сўз ясалиши. -Тошкент: Ўқитувчи, 1989.

2. Bu haqda qarang: Turabov A.M. Kichik sintaksis muammolari//Filol. fan. dok. diss. avtoref. -Samarqand: SamDCHTI, 2023.

3. Bu haqda qarang: Шаумян С.А. Аппликативная модель. Генератор слов//Структурная лингвистика. -М.: Наука, 1965. -С. 210-211.

ko‘ra virtual va statikdir. Yuqoridagi belgilar turli xil affikslarni ifodalashi mumkin bo‘lgani uchun abstrakt generatorga ixchamlik kiritish maqsadida biz **R** tushunchasini iste‘molga kiritamiz va uni **R<sub>1</sub>** tarzida belgilab, fe‘l yasovchi qo‘shimcha deb olamiz. So‘z generatorida **W<sub>1</sub>, W<sub>2</sub>, W<sub>3</sub>** kabi unsurlar bo‘lib, ular elementar so‘zlarni va morfemalarni anglatadi. Mazkur elementlar o‘z strukturasi ega bo‘lgan dastlabki obyekt hisoblanadi. Ammo ular bo‘sh semion vazifasini bajaradi. **R<sub>1</sub>O** applikasiyasi vujudga kelgandan so‘ng yasama fe‘l derivatsiyasi amalga oshadi.

Umuman, derivatsion operatsiya semantik, leksik va sintaktik hodisalarga taalluqli bo‘lib, leksik derivatsiyada so‘z yasalishi bilan bog‘liq muammolar o‘rganiladi. Shu jumladan, biz tadqiq etayotgan leksik kauzatsiya masalasi ham leksik derivatsiya qonuniyati asosida tekshiriladi. U holda leksik derivatsiyadan leksik kauzatsiyaning farqi nimada, degan savol tug‘ilishi tabiiy, albatta. Leksik derivatsiyada umuman so‘z yasalishi masalasi o‘rganilsa, leksik kauzatsiyada faqat leksik kauzaderivatsiya muammosi tahlil etiladi. Boshqacha aytganda, leksik kauzatsiya sababiyat bilan aloqador bo‘lgan undash, qo‘zg‘ash, buyurish kabi ma‘nolar qurshovidagi hosila strukturalarning voqelanishi masalalarni tadqiq etadi. Shu sababli kauzatsiyaning semantik, leksik va sintaktik turlari derivatsiyaning umumiy obyektidan farq qiladi. Shunga ko‘ra u *kauzaderivatsiya* termini bilan nomlanadi va tilshunoslikning *k a u z a t o l o g i y a* sohasining tekshiruv obyektini hisoblanadi.

Shuni aytish kerakki, leksik kauzaderivatsiyada yasama kauzativ fe‘llar o‘rganilar ekan, mazkur jarayonda ham, yuqorida aytib o‘tganimiz singari, sintaktik qoidalar amal qiladi. Zero, yasalish, tuzish – bu sintaksis degani. Ammo bu obyektida kichik unsurlar sintaksisi tahlil etiladi. O‘z navbatida, mazkur holat assotsiativ qatordagi sintagmatik munosabatni taqozo etadi. Masalan, *kuch+an, kech+ik, boy+i* kabi fe‘llarni olaylik. Ushbu yasama kauzativ fe‘llar strukturasi applikasiyaning **R<sub>1</sub>O** shaklidagi modeliga asoslanadi. Natijada generatorida kauzativ applitsit semion hosilasi voqelanadi. Mazkur vaziyatda sintaktik aloqa natijasida *obyekt+harakat, holat+harakat, atribut+harakat* munosabatlari mavjudligi kuzatiladi. Derivatlardan anglashilayotgan harakat esa

kauzativlikni ifodalaydi, zero, mavjud haraktlar orqali undash, buyurish, ta'sir etish ma'nolari qaror topadi.

Kichik sintaktik aloqalar katta sintaktik aloqalardan farq qiladi. Masalan, katta sintaktik aloqalarda kelishik, egalik, shaxs-son shakllari til birliklarining o'zaro aloqaga kirishuvini ta'minlasa, kichik sintaktik aloqalarda o'zak va qo'shimchanning birikuvi sintaktik aloqani shakllantirveradi. Mavjud hosiladan esa yuqoridagi kabi mikrosintagmatik munosabatlar ifodasi yuzaga chiqadi. Lekin, shuni aytish kerakki, ayrim ishlarda so'z yasalishi sintaksisining tekshiruv obykti katta sintaksisning o'rganish obyektidan farqlanmayotgan holatlar ham mavjudligi kuzatiladi. Masalan, E.R.Hasanovning «О специфике семантической и лексической деривации в современном русском языке» nomli maqolasida so'z yasalishiga dinamik jihatdan yondashish kerakligi, uning matnning shakllanishi bilan bog'liqligi, so'z yasalishini kommunikativ rejada tadqiq etish zarurligi, zero, u sintaktik tushuncha bo'lib, gapni shakllantirishga xizmat qilishi ta'kidlanadi<sup>1</sup>.

To'g'ri, har qanday til birligi va belgisining kommunikativ rejada ahamiyati katta, lekin bu so'z yasalishini dinamik hodisa sifatida talqin etishga asos bo'la olmaydi. So'z yasalishi, darhaqiqat, sintaktik hodisa, ammo uning hosilasi kichik sintaksisning mahsuli sanaladi va gapni to'laqonli ravishda shakllantirishga yasama so'zning kuchi yetmaydi. Masalan, *Olim qosh qoraygach keldi* jumlasiga e'tibor qarataylik. Mazkur gapda *qora+y* so'zi mavjud bo'lib, u yasamadir. Sintaktik derivatsiya qonuniyatiga ko'ra berilgan gap derivatsiyasi yasama so'z (leksik derivatsiya) operatori bilan emas, balki ravishdosh shakli *-gach* orqali ifodalangan sintaktik derivatsiya operatori ko'magida voqelanmoqda. Qiyoslang:

*Olim qosh qora+y... keldi – Olim qosh qora+y+gach keldi.*

Ko'rinadiki, yasama so'z operatori *-y* faqatgina so'z yasash uchungina xizmat qilib, gapning shakllanishiga dinamik tus bera olmaydi. Aniqrog'i, tuzilish, yasalish, shakllanish bor, ammo u

---

1. Qarang: Хасанов Э.Р. О специфике семантической и лексической деривации в современном русском языке//Вестник Челябинского государственного университета. 2018. № 6 (416). Филологические науки. Вып. 113. -С. 200.

soʻzligicha qoladi. Soʻz esa, paradigmatic qator mahsuli boʻlib, statik, virtual, umumiydir. Gap quyidagicha dinamiklashadi:

- 1) *keldi* – tub struktura (V);
- 2) *Olim keldi* – tayanch struktura (N+V);
- 3) *Olim qosh qoraygach keldi* – derivat (N+X<sub>1</sub>+V) operator: *-gach*.

Shuni aytish kerakki, gapning dinamiklashuvida operator tanlash erkin boʻlib, u derivatsion jarayonga tashqaridan nutq egasi tomonidan kiritiladi. Boshqacha aytganda, sintak derivatsiya operatori nutqiy vaziyatda tayyor holda mavjud boʻlmaydi. Ushbu gapning derivatsiyasida *-guncha*, *-ib*, *-gandan keyin* tarzidagi operatorlar ham xizmat qilishi mumkin edi. Gap yana kengayganda keyin kelgan operator ikkinchisini inkor etadi:

- 1) *keldi* – tub struktura (V);
- 2) *Olim keldi* – tayanch struktura (N+V);
- 3) *Olim qosh qoraygach keldi* – derivat (N+X<sub>1</sub>+V) operator: *-gach*;
- 4) *Olim qosh qoraygach charchab keldi* – derivat (N+X<sub>2</sub>+V) operator: *-b*.

Yasama soʻzlar derivatsiyasida esa operatorlar paradigmatic qatorda tayyor holda mavjuddir. Aniqrogʻi, ular operand bilan paradigmatic qator sathidagi mikrosintagmatik munosabat natijasida aloqaga kirishadi. Ammo ular uyushmada statik holatda turaveradi.

Matnning shakllanishi masalasiga kelsak, aslida tilning barcha birliklari fonemalar yordamida oʻz ifodasini topadi, zero, inson tili tovushlar orqali mavjuddir. Boshqacha aytganda, nutq tovushlari tilimizning asosiy xomashyosi sanaladi. Shu bois matinning asosiy xomashyosi ham fonema hisoblanadi, soʻzlar emas. Toʻgʻri, biz soʻzning ahamiyatini inkor etmoqchi emasmiz, ammo bu oʻrinda til va nutq birliklarining iyerarxik munosabatini eʼtiborga olish muhim. Zotan, til va nutq birliklarining shakllanib borishi iyerarxik munosabatga bogʻliqdir. Buni *fonema* → *morfema* → *soʻz* → *gap* → *murakkab sintaktik qurilma (MSQ)* → *abzas* → *paragraf* → *bob* → *tom* kabi iyerarxiyada koʻramiz. Shu bois soʻz matni shakllantiradi degan xulosaga kelish, bizningcha, gʻalizroqdek koʻrinadi. Biroq birgina soʻzdan iborat boʻlgan matnlar

bundan mustasno, albatta. Masalan, biror asarning nomi «Ishchi» deb nomlangan bo'lsa, birgina so'z bilan matnning ifodalanayotganini inkor etib bo'lmaydi. Jumladan, bu xususda Y.S.Maslovning bildirgan mulohazasi diqqatga sazovordir: « «Tekst» termini nafaqat yozma manbani, balki biror kishi tomonidan yaratilgan turli shakldagi og'zaki ijod namunasini ham anglatadi. U bir so'zdan, hikoyadan, poemadan, yirik hajmli kitobdan iborat bo'lishi mumkin»<sup>1</sup>.

Nazarimizda maqola muallifi F.de Sossyur ta'limotini o'rganmagan, Samarqand derivatologiya maktabi vakillarining ishlari bilan tanishmaganga o'xshaydi.

Shuni aytish kerakki, bir qaraganda leksik kauzaderivatsiya morfologik kauzatsiyaning affiksial shakliga o'xshaydi, chunki kauzatsiyaning mazkur turida ham qo'shimchalar orqali amalga oshayotgan kauzativ aloqa va munosabat mavjudligi kuzatiladi. Ammo bu jarayonda kauzativ affikslar so'z yasash uchun xizmat qilganligi bois uni leksik kauzaderivatsiya deb ataymiz. Leksik kauzativ affikslar deganda fe'l yasovchi qo'shimchalarni tushunamiz. Bu qo'shimchalar kauzativ operatorlar bo'lib, fe'l yasaganda undash, qo'zg'ash kabi ma'no munosabatlarini yuzaga chiqaradi.

Lekin shunga ahamiyat berish kerakki, leksik kauzaderivat faqat yasovchi qo'shimcha yordamida hosil bo'lsagina uni leksik kauzaderivatsiyaning mahsuli deb bilamiz. Boshqacha aytganda, fe'l yasovchi qo'shimchadan so'ng orttirma nisbat yoki buyruq-istak mayli qo'shimchalarining relyatsiyasi kuzatilsa, u holda hosilga morfologik kauzatsiyaga daxldor bo'lib qoladi. Zotan, derivatsion qonuniyatga ko'ra keyin kelgan operator avvalgisini inkor etadi. Masalan, *ish+la – ish+la+t – ish+la+t+gin* kabi. Bunda avval kelgan derivat undash ma'nosini berayotgan leksik kauzatsiya mahsuli hisoblansa, keyingilari esa morfologik kauzatsiyaning affiksial turiga mansub bo'lgan hosilalarning mikrostrukturasini taqozo etadi. Mazkur hosilalarda kauzativlik ifodalayotgan undash munosabatining mavjudligini inkor etib bo'lmaydi, ammo mazkur munosabatlar ham undash ma'nosining kimga qaratilganligiga ko'ra farqlanadi. Masalan, *ishla* kauzatemasi II shaxsga

---

1. Маслов Ю.С. Введение в языкознание. -М.: Высшая школа, 1998. -С.11.

nisbatan qaratilgan bo‘lib, *ishlat* II shaxsning boshqa bir referentni ishlatishini nazarda tutmoqda. *Ishlatgin* esa II shaxsning kimnidir undashini yanada bo‘rttirmoqda. O‘z navbatida, ushbu ma‘nolarning farqi operandlarga birikayotgan kauzativ operatorlarning bajarayotgan funktsiyaiga bog‘liqdir. Mavjud jarayonda kauzativ aloqa vositalarining ham, kauzativ ma‘no munosabatining ham har xilligini kuzatamiz.

Quyida kauzativlik ifodalayotgan fe‘l yasovchi qo‘shimchalar xususida to‘xtalamiz:

**-a** affiksi. Bu qo‘shimcha ot, sifat va taqlidiy so‘zlardan fe‘l yasaydi hamda kauzativ operator maqomida keladi: *o‘yna, qiyna, shildira* kabi.

1. *Beshik to‘yida xizmat qilasan. Hozir o‘yna* (O‘.Umarbekov. Odam bo‘lish qiyn).

2. *Bu afsona meni uzoq qiynadi.*

*Ergashdi, chirmashdi o‘y-hislarimga* (A.Muxtor. Dol qoya).

3. *Sayragin bir, do‘mbira!*

*To‘kil, to‘kil, navolar,*

*Tog‘ suviday shildira,*

*Kuyga to‘lsin havolar!* (I.Jonsug‘urov. Do‘mbira)

Keltirilgan misollarning barchasi kauzativ qurilmalar bo‘lib, ularda *o‘yna, qiyna, shildira* leksik kauzatemalaridan tashqari *xizmat qilasan, ergashdi, chirmashdi, sayragin, to‘kil, kuyga to‘lsin* kabi morfologik kauzatemalar ham ishtirok etmoqda.

**-an** affiksi. Mazkur qo‘shimcha otdan fel ysashi bilan birga kauzativlik ifodalashga ham xizmat qiladi: *kuchan* kabi.

1. *Suyun nimanidir demoqqa chog‘lanib kuchandi, ammo og‘zidagi skotch xalaqit berdi* (A.Yo‘ldosh. Hayot shafqatsiz).

Keltirilgan misolda *kuchan* tarzidagi leksik kauzatema mavjud bo‘lib, u orqali shaxsning o‘ziga nisbatan qo‘zg‘ash harakatini bajarayotganini kuzatamiz.

**-i** affiksi. Ushbu qo‘shimcha o‘zagi va asosi sifat bo‘lgan so‘zlardan kauzatema hosil qiladi: *boyi, tinchi* kabi. Chunonchi, *boy+i* kauzatemasida leksik kauzaoperator sifat o‘zakka birikayotgan bo‘lsa, *tin+ch+i* leksik kauzatemasida operator sifat asosga birikmoqda. Zero,

mazkur mikroqurilmaning o‘zagi *tin* shaklidagi fe’ldir. U, o‘z navbatida, sifat yasalishi uchun asos vazifasini o‘tamoqda. Shundan so‘ng unga leksik kauzativ ko‘rsatkichi *-i* tirkalayotganda feldan yasalgan sifat asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Boshqacha aytganda, kauzaoperator to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zakka birikkan emas.

1. *Qiy-chuv bir zumda tinchidi* (U.Yoqubov. Yurakning to‘rt sanchig‘i).

Keltirilgan misolda yuqorida aytib o‘tilgan singari *tinchi* shakli mavjud bo‘lib, u gapda kvazikauzativ maqomida kelmoqda. Zotan, u orqali kauzatsiya amalga oshgani yo‘q. Agar buyruq shaklida *Sen tinchi!* bo‘lganda edi kauzativ hisoblanar edi. Yoki *Yuragi tinchidi* deyilganda ham shaxsning o‘ziga nisbatan bajarilayotgan kauzatsiyasini ko‘rishimiz mumkin edi.

**-ik, (-iq)** affiksi. Bu qo‘shimcha ravish va ot o‘zakdan kauzativ fe’l yasaydi. Ammo mazkur tushunchani nisbiy tushunmoq darkor. Chunki yasalish deganda fe’l yasalishini tushunamiz. Garchi mazkur qo‘shimchalar kauzativlik hosil qilishda vazifa bajarayotgan bo‘lsa-da, aslida ularning asosiy xizmati fe’l yasashda ko‘rinadi. Kauzativlik esa asl mohiyatiga ko‘ra grammatik ma’no ifodalovchi vositadir. Boshqacha aytganda, fe’l yasaladi shu bilan bir qatorda kauzativ ma’no ham ifodalanadi, shuning uchun biz uga leksik kauzativ maqomini beramiz.

1. *Avtobus...*

*Men unga chiqmayman,*

*Sen esa yugurgin, kechikkin.*

*O endi baxt olib bormayman,*

*Men kabi siqilgin, ichikkin*

(Sanjar Mashriqiy. Avtobus bekatdan jo‘nadi...).

2. *Qizining qiynalayotganini ko‘rgan sayin Basiraning kasali zo‘riqardi* (R.Rahmon. Mehr ko‘zda).

Keltirilgan misolda *kechikkin, ichikkin* shaklidagi leksik kauzatemalar mavjud bo‘lib, ularda *-kin* shaklidagi morfologik ko‘rsatkich ham birikmoqda. Garchi derivatsion qonuniyatga binoan keyin kelgan operator oldingisini inkor etsa-da, mavjud ko‘rsatkich

ularga morfologik kauzatemani bermaydi. Chunki ushbu qo‘shimcha kauzativga faqat ta’kid ma’nosini yuklaydi, xolos. Asosiy kauzativ esa yasovchi zimmasida qoladi. Qiyoslang:

I shaxs. Men kechik+ay

II shaxs. Sen kechik+kin

III shaxs. U kechik+sin

Ko‘rib turganimizdek, II shaxsda *-kin* affiksining qo‘llanishi majburiy emas.

Ikkinchi misoldagi kauzativ qurilmada *-iq* kauzaoperatori bilan yasalgan zo‘riq shaklidagi leksik kauzaoperand mavjudligini kuzatamiz. Ushbu vaziyatda bir shaxsga ikkinchi shaxsning ruhiy holati ta’sir etib, kauzatsiya jarayoni amalga oshmoqda. Boshqacha aytganda, shu holat kauzator vazifasini o‘tamoqda.

Umuman, *-ik, -q (-iq)* ko‘rinishidagi leksik kauzaoperatorlar turli operandlarga birikib, derivatsiya operatsiyasi natijasi o‘laroq anglashiladigan narsa ta’siriga o‘tish ma’nosini ifodalaydi: *ko‘zik, kechik, chiniq, zo‘riq (Balki, muhabbat shudir? Bo‘lmasa, nega yuragim orziqadi?)* (Shuhrat. Shinelli yillar) ) kabi.

*-ir, -ur* affikslari. Berilayotgan qo‘shimchalar ot o‘zakdan kauzatemani hosil qiladi.

1. – *O‘ynab gapirsang ham o‘ylab gapir* (O‘.Hoshimov. Osmondan tushgan pul).

2. *Kostyumni yelkangga il-da, chiq-ket. Hammasiga tupur* (A.Yo‘ldoshev. Puankare).

Keltirilgan misollarda buyruq shaklidagi kauzativni kuzatamiz. Zotan bir shaxs ikkinchisini gapirishga, amalni bajarishga undamoqda. Leksik kauzaderivatlar ta’sir etish, qo‘zg‘ash ma’nosiga qarab jismoniy ta’sir, masalan, *sana, tuna, o‘yna, qiyna, ishla, yo‘qol* yoki ta’sir oqibatida bir holatdan boshqasiga o‘tish, masalan, *tinchi, boyi, kuchay, qoray, do‘stlash, oqar, o‘zgar* kabi kauzativlarga bo‘lish ham mumkin. Mazkur kauzativlar qanday ma’noda ifodalanishidan qat’i nazar *kauzator*→*kauzatsiya obykti*→*natija* qolipida shakllanadi.



## *To‘rtinchi bob*

### **MORFOLOGIK KAUZATSIYA**

*Hayot mohiyatan morfologiya bilan  
qoplangan ongning rivojlanishidir.*

(P.T.de Sharden)

Morfologik kauzatsiyada kauzativlik shakl yasovchi affiksial morfemalar hamda analitik vositalar ko‘magidagi operatorlar orqali voqelanadi. O‘zbek tilida kauzativlik ifodasini beruvchi affiksial morfemalar jumlasiga quyidagilarni kiritamiz:

1) *-t, -dir(-tir), -giz(-kiz), -qiz(-g‘iz), -gaz(-kaz, -qaz), -ir, -ar, -iz, -sat* kabi fe‘lning orttirma nisbati qo‘shimchalari;

2) *-n, -l, -in, -il* kabi o‘zlik nisbat shakllari;

3) *-(a)y, -(a)yin, -gin(-kin,-qin), -(i)ng, -sin, -(a)yilik, -(i)nglar* kabi buyruq-istak mayl affikslari.

Havola qilinayotgan qo‘shimchalardan keyingilari (buyruq-istak mayl shakllari) biror lingvistik adabiyotda kauzativlik ifodasini beruvchilar sirasiga kiritilmagan. Kauzativlikda buyruq ma‘nosi mavjudligini inkor etib bo‘lmaydi, shu bois, biz ularni kauzativlikni ifodalovchi morfologik vositalar sifatida o‘rganmoqdamiz. Bundan tashqari, kauzativlikning ifodalanishida analitik formalar ham ishtirok etib, negadir ular tilshunoslarimiz tadqiqotlarida kauzativlikning sintaktik planda shakllanishi qatorida tavsiflanmoqda. Biz esa analitik unsurlarni kauzativlikning yuzaga chiqishidagi morfologik vositalardan biri deb bilamiz. Zero, kauzativlikning sintaktik rejasi bevosita gap, murakkab sintaktik qurilma, makromatn kabi nutq muchalarining derivatsion voqelanishi bilan aloqadordir.

Shuni alohida ta‘kidlash kerakki, nisbat va mayl shakllari morfologik paradigmalardagina nisbat hamda mayl maqomida turadi. Ular sintagmatik qatorga ko‘chgandan so‘ng esa kauzativlik alomatlariga ega bo‘lgan morfologik unsurlar sifatida gavdalanadi va, shu bilan birgalikda, grammatik ma‘no ifodalovchi vosita ekanligi xususiyatini tark

etmaydi. Zotan, ma'lum bir so'z vokabula sifatida lug'at tarkibida semantema bo'la oladi. Uning leksemalik xususiyati nutqda to'laqonli namoyon bo'ladi. Kauzativlikni esa semantema deb bo'lmaydi. Unga ishora qilayotgan belgining semantema holati fe'l orqali (ba'zan ot bilan: *iltimos, buyruq* kabi) yuzaga chiqadi, kauzallik xususiyati bilan emas. U faqat sabab qurshovidagi undash tushunchasini beradi, xolos. Bu esa til va nutq dixotomiyasini to'g'ri anglash nechog'li muhim ekanligidan dalolat beradi.

So'z o'zagiga fe'l yasovchi affiks qo'shilishi natijasida *derivatema* hosil bo'ladi:

1. – *Kimsanboy kelishi bilan to'yni boshlab yuboraveringlar* (O'.Hoshimov. Saylanma. II jild).

2. *...qorong'i quyushib ketgan, hammayoq jimjit edi* (O'.Hoshimov. Saylanma. II jild).

3. *Eshik g'iyqillab yopilishi bilan xaltachani menga uzatdi* (O'.Hoshimov. Saylanma. II jild).

Keltirilgan misollarning birinchisida *bosh+la*, ikkinchisida *quyuq+lash* (quyu/q/la/sh), uchinchisida *g'iyq+illa* yasama fe'llari berilgan bo'lib, ular leksik derivatsiya mahsuli hisoblanadi. Fe'lning kauzativli shakli *grammema* deyiladi (ammo kauzativ ma'no turlari kauzaderivatlarini taqozo etadi):

1. *Gurganjdagi Qutlug' Temur Bo'ldoy minorasini tiklaganida, o'z nomini minoraning ich tomoniga bir chekkaga yozdirgan,...* (Muhammad Ali. Ulug' saltanat. Uchinchi kitob)

2. *Oxiri, qaytg'onimda Termizda kutib olasizlar, deya Samarqandga jo'natdi* (Muhammad Ali. Ulug' saltanat. To'rtinchi kitob).

3. *Kutilmaganda, mulozim Axiy Jabbor bahodirning saltanat yumushi bilan Gurjistondan kelgani xabarini yetkazdi* (Muhammad Ali. Ulug' saltanat. Uchinchi kitob).

Birinchi misolda *yoza+dir*, ikkinchi misolda *jo'na+t*, uchinchisida esa *yet+kaz* grammemalari mavjudligini ko'ramiz. Lekin shunga ham e'tibor berish kerakki, agar yasama so'zga kauzativ shakl qo'shilsa ham, mazkur hosila derivatemaligicha qoladi (*bosh+la+t*, *quyuq+lash+tir*, *g'iyq+illa+t*). Mavjud holat N.K.Yakubovanning affiks morfemalarning

o‘zak yoki so‘zshakl asosiga nisbatan o‘rnini ko‘rsatishi bo‘yicha ikkinchi pozitsiyasiga to‘g‘ri keladi, ya’ni, bu vaziyatda affiks morfemaning affiksdan keyin kelishi nazarda tutiladi<sup>1</sup>. Ammo ushbu so‘zning kauzativlik ko‘rinishi uning asosiy *konstantasi* (*k* – kauzativ situatsiyada qator o‘zgarishlarga uchraydigan doimiy holat yoki xulosa) hisoblanadi<sup>2</sup>, chunki yasovchi qo‘shimchadan keyin birikayotgan orttirma nisbat shakli uning grammatik ma’noning ma’lum turiga xoslanganligini belgilab keladi. Shu bois uni *kauzatem*a desak to‘g‘ri bo‘ladi deb o‘ylaymiz. O‘z navbatida, konstanta mavqeyi situatsiya va ishtirokchilar bilan belgilanadi. Kauzativ situatsiyaning kengayishi natijasida ishtirokchilar soni ham orta boshlaydi va keyingi situatsiya avvalgisiga nisbatan makroxarakterli bo‘lib qoladi. Natijada situatsiya va ishtirokchilarni belgilovchi morfologik vositalar (kauzativ affiksalar morfemalar) qurshovida derivatsiya vujudga keladi. Buni *kauzaderivatsiya* deb ataymiz.

Masalan, *bosh+la+t*, *quyuq+lash+tir*, *g‘iyq+illa+t* so‘zlaridan ikkinchi va uchinchisining konstanta ko‘rsatkichi (*k*) uchga teng: 1-kauzativ muhit (C– kauzativ situatsiya), 2-kauzatsiyalovchi shaxs (S–subyekt), 3-kauzatsiyalanuvchi individ (I). Ammo birinchi so‘zning (*bosh+la*) nutqda buyruq shaklidagi holatini e’tiborga olsak, uning konstantasi beshga teng bo‘ladi. Zero, fe’lning *boshla* formasi orqali ham da’vat etish ma’nosi borligi kuzatiladi. Qiyoslang: (*Sen*) *boshla*– birinchi individ dastlabki situatsiyada kauzatsiyalanyapti; (*Sen*) *boshlat* – II shaxs yana kimnidir keyingi makrosituatsiyada (avvalgisiga nisbatan) kauzatsiyalashi kerak. Mazkur vaziyatda u  $k=C_1+S \rightarrow I_1+C_2 \rightarrow I_2$  ga teng bo‘ladi. Lekin *quyuq+lash*, *g‘iyq+illa* kabi fe’llarga nisbatan formulaning bu ko‘rinishini qo‘llay olmaymiz, chunki ular shaxsga qarata ishlatilmaydi (badiiy jonlantirishni hisobga olmasa, albatta). Ba’zan situatsiyaga qarab, ikki marta kauzativ forma birikib kelganda ham konstanta ko‘rsatkichi ortadi:

---

1. Bu haqda qarang: Якубова Н. К. Правила формального синтеза узбекских словоформ//Система и уровни языка. -М.: Наука, 1969. -С. 141.  
2. Bu haqda qarang: Холодович А. А. Типология каузативных конструкций. Морфологический каузатив. -Л.: Наука, 1969. -С. 8-9.

*Buni o'qitdirib eshitgandan keyin mingboshi juda xursand bo'ldi* (Cho'lpon. Kecha va kunduz).

Ushbu misoldagi *o'qi+t+dir* so'zida ham konstanta beshga teng:  $k=C_1+S \rightarrow I_1+C_2 \rightarrow I_2$ . Bunda affikslarning o'zaro valentlik hosil qilishini ham e'tiborga olish kerak. Zero, yuqoridagi *bosh+la+t*, *quyuq+lash+tir*, *g'iyq+illa+t* kauzatemalarining ikkinchisi bilan yana bir ortirma nisbat shakli valentlikka ega bo'lolmaydi (*quyuq+lash+tir+tir* kabi). Buning sababi esa mazkur kauzatemaning qo'shimcha distributsiya qoidasiga amal qilishidadir. Lekin bu kabi fe'llarni faqat uch konstantali bo'ladi, deb tushunmaslik kerak. Ushbu vaziyatda konstantaning beshinchi ishtirokchisini III shaxs buyruq-istak mayli shakli belgilashi mumkin. Qiyoslang: *bosh+la+t+tir* – *quyuq+lash+tir+sin*. Birinchi so'zda ham subyekt kauzatsiyalanuvchiga ikkinchi individni kauzatsiyalashni buyurmoqda, ikkinchi so'zda ham xuddi shu holatning analogi yuzaga chiqmoqda. Faqat bu vaziyatda *quyuq+lash+tir* kauzativ shakli *-sin* qo'shimchasi bilan  $k=C_1+S \rightarrow I_1+C_2 \rightarrow I_2$  formulasi asosida valentlik hosil qilmoqda. Endi bu holatda almashuv distributsiyasi qo'llanmoqda, chunki kauzativ ma'no nisbat bilan emas, balki mayl kategoriyasi orqali voqelanmoqda.

Umuman, kauzativ affikslar o'zlari birikayotgan fe'llarga mos ravishda valentlik qurshovida bo'ladilar. Masalan, *bosh+la+t+tir* kauzatemasi yana *-sin* qo'shimchasi bilan valentlikka kirishishi mumkin. Bu holatda uning konstantasi to'qqizga teng bo'ladi:  $k=C_1+S \rightarrow I_1+C_2 \rightarrow I_2+C_3 \rightarrow I_3+C_4 \rightarrow I_4$ . Ammo u *-kaz*, *-ir*, *-iz* kabi affikslar bilan valentlik hosil qilolmaydi. Boshqacha aytganda, u fe'l yasalişhida dastlab obyekt va harakat o'rtasidagi mikrosintagmatik munosabat planida derivatema hosil qilib, so'ng paradigmatik qatordan o'zi uchun tegishli bo'lgan kauzaoperatorlarni tanlab, kauzatema maqomiga erishadi.

Yuqoridagi formuladan ko'rinib turibdiki, kauzasituatsiyalar kengaygan sari makroxarakterga ega bo'lib bormoqda va ish-harakatga undovchi individlar soni ham ortib bormoqda. Bu jarayonda esa aynan morfologik vositalar (affiksal morfemalar) o'ziga xos kauzal derivatsiyani voqelantirmoqda. Ammo mazkur makrosituatsiya voqelanishini nisbiy tushunmoq darkor, chunki vaziyatning

makroxususiyat kasb etishi kauzatemaning ichki qobig'ida ro'y bermoqda, aslida esa umumiy holat mikroligicha qolaveradi.

Ta'kidlash kerakki, operatorlarning bir-biriga nisbatan egallagan oppozitiv holatida derevatemaga asoslanuvchi mazkur kauzatemaga shu xildagi hosilani tashkil etmoqda. Masalan, *boshlamoq* fe'lining infinitiv shaklini mikrosintagmatik qatorda unga nisbatan oppozitsiyada turgan *-la* qo'shimchasi inkor etadi va buyruq-istak mayli ko'rinishida undashni ifodalaydi. *Boshlat* kauzatemasining vujudga kelishi esa kauzativ planda *-la* affiksining opponenti hisoblanuvchi *-t* orttirma nisbat shakli orqali amalga oshadi. Ammo oppozitiv rejada buyruq-istak mayli qo'shimchalari kauzatemaga hosil qilganda ularga nisbatan biror bir shakl oppozitsiyada turmaydi. Boshqacha aytganda, derivatologiya qonuniyatiga binoan, keyingi operator avvalgisini inkor etadi. Shunga ham ahamiyat berish kerakki, affikslarning biz aytayotgan oppozitiv holati kauzaderivativ nuqtayi nazardan inobatga olingan holda keltirilyapti. Aslida, qo'shimchalar morfologik xususiyatlarining mos kelishiga qarab, bir-biri bilan o'zaro oppozitiv holatda bo'lishi mumkin. Masalan, kelishik qo'shimchalarini olaylik. Mazkur shakllar bir-biriga opponenti bo'lib, so'zlovchi ulardan o'zi xohlaganini tanlaydi va nutqini voqelantiradi. Biroq fe'l so'z turkumiga xos bo'lgan grammatik ko'rsatkichlar (mayl, nisbat kabilar) ot so'z turkumining morfologik shakllari bilan (egallik, kelishik kabi) oppozitiv qatorda tura olmaydi. Hatto biz tahlil qilayotgan orttirma nisbat shakllarining hammasi ham o'zaro oppozitiv qo'shimcha bo'lmasligi mumkin. Masalan, *ichmoq* fe'lga qo'shiluvchi orttirma nisbat shakllaridan *-ir*, *-kiz* oppozitivlikni tashkil etishi mumkin, lekin bu qo'shimchalr aynan shu fe'lga qo'shilishiga qarab, *-t*, *-sat* kabi affikslar bilan bir oppozitiv pog'onadan joy olmaydi. Boshqacha aytganda, o'zaro juftlik hosil qiluvchi kauzativ qo'shimchalar kauzativ fe'l oppozitsiyasini tashkil etadi<sup>1</sup>.

Shuni ham e'tiborga olish kerakki, yuqoridagi tahlil qilinayotgan qo'shimchalar bir yo'la ham operand, ham operator vazifasida keladi, chunki affikslar til materiali hisoblanadi. Ana shu til materiallari

---

1. Bu haqda qarang: Литвинович А. Г. Связь каузативности с другими категориями глагола//Вестник МДПУ, №1, 2013. -С. 112.

bajaradigan vazifasiga qarab taqsimlanadi. Lekin yasama fe'llardagi leksik derivat hosil qiluvchi operatorlar derevatemaga tirkalib kelayotgan kauzaoperatorlarga qaraganda ustunroq mavqeni egallaydi, chunki bu holatda yasovchi qo'shimcha bo'lmas ekan, kauzaoperatorlar bo'shliqda qolib ketadi. Qiyoslang: *bosh+la+t – bosh+ø≠t,≠tir*.

Ta'kidlash joizki, kauzativ muhitning (C) konstanta ko'rsatkichi natijali, maqsadli, shartli kabi ma'no ifodalari bilan kelishi mumkin. Bu esa nutqiy situatsiyada bilinadi va ushbu mazmunning voqelanishida fe'lning zamon ko'rsatkichi, maqsad, shart mayli shakllari xizmat qiladi. Zotan, kauzatemaning tildagi ko'rinishida bu kabi ma'nolarni anglab bo'lmaydi. Qiyoslang:

1) *yutqizmoq* (kauzatema-infinitiv) – ...*utsa* (yutsa) *tegaman, utdirsa* (yutqizsa) *so'yaman* (Kuntug'mish) – (konstantasi shartli bo'lgan kauzasituatsiya);

2) *chiqazmoq* (kauzatema-infinitiv) – *Afandi amirni xijolatdan chiqazmoqchi bo'ldi* (Afandi latifalari) – (konstantasi maqsadli bo'lgan kauzasituatsiya);

3) *chizdirmoq* (kauzatema-infinitiv) – *Xonzoda begim uning musavvir ham ekanligini bilib qolib, o'zining suratini chizdirgan* (P.Qodirov. Yulduzli tunlar). – (konstantasi natijali bo'lgan kauzasituatsiya).

Kauzativlik fe'lning orttirma nisbati, buyruq-istak mayli shakllari, analitik vositalar ko'magida nutqda voqelanar ekan (morfologikmi, sintaktikmi qat'i nazar), semantik tushunchaligicha qolaveradi. Faqat morfologik nuqtayi nazardan uni ifodalovchi morfologik vositalar, sintaktik jihatdan nutqda kauzativ ma'noni beruvchi sintaktik uzvlar tekshiriladi. Masalan, ma'lum bir kauzatemaning tildagi shaklini kauzativ deyish uchun tilda tayyor holdagi kauzativ situatsiyalarning yo'qligi monelik qiladi. Shu bois biz uni ifodalovchi vositalarini hisobga olib, shartli ravishda morfologik yoki sintaktik deb tadqiq qilamiz.

Yuqoridagi kauzativlikning o'ziga xos kauzaderivatlar hosil qila olishi haqidagi fikrimizda shunga asoslandikki, kauzativlik o'z ichki ma'no salmog'iga ko'ra bir-biridan farq qiluvchi turlarga bo'linadi. Bu farq qiluvchi ma'nolarning yuzaga chiqishida, o'z navbatida, morfologik

vositalarning ahamiyati katta bo‘ladi. Shunga ko‘ra ushbu morfologik unsurlar kauzaoperandlar va kauzaoperatorlar deb yuritiladi. Aniqrog‘i, bunday vositalar kauzal bo‘g‘imlar hisoblanadi. Kauzativlikning ma‘no jihatidan farq qiluvchi turlari kauzaderivatlar deyiladi. Quyida shu haqdagi fikrimizni izohlab o‘tamiz.

**Faktivlik asosida kauzativlikning ifodalanishi.** Faktivlikda kauzativ situatsiyada biror harakat bajarilishi davomida o‘zgarish sodir bo‘lishining asosiy qo‘zg‘atuvchisi kauzatsiyalovchi subyekt (ba‘zan obyekt ham bo‘lishi mumkin) hisoblanadi. O‘z navbatida, kauzator hamda kuzantning o‘zaro munosabatiga ko‘ra faktivlik quyidagi ma‘no guruhlariga bo‘linadi:

**a) ikki shaxs o‘rtasida jismoniy ta’sir oqibatidagi kauzativlik.** Bunda bir shaxs (kauzator) ikkinchi shaxsga (kauzantga) jismoniy ta’sir etishi natijasida kauzativlik yuzaga keladi. Ushbu vaziyatda kauzator faol bo‘lib, kauzant nofaol mavqeni egallaydi:

1. ...(*Mirzo Sohruh*) *sulton Mahmud ko‘ksig‘a minub, uyg‘otib, ...sulton Zaynobiddin qoshig‘a kelturdi* (Salohiddin Toshkandiy. Temurnoma).

Keltirilgan misolda *uyg‘otib* hamda *kelturdi* kauzatemalari mavjud bo‘lib, ulardan *uyg‘otib* fe‘li aslida *uyg‘a* fe‘lidan *-t* orttirma nisbat qo‘shimchasi bilan hosil qilingan, *uyg‘a* fe‘li esa qadimgi turkiy tildagi «bedor» ma‘nosini anglatgan *oyuq* so‘zidan *-a* qo‘shimchasi bilan yasalgan. *-a* qo‘shimchasi qo‘shilishi natijasida *q* undoshi *g* undoshiga almashgan. Keyinchalik ikkinchi bo‘g‘indagi tor unli talaffuz qilinmay qo‘ygan:  $oyuq+a \rightarrow oyuqa+t \rightarrow oyug‘at \rightarrow oyg‘at \rightarrow uyg‘at \rightarrow$  hozirgi o‘zbek adabiy tilida *uyg‘ot*<sup>1</sup>.

Ushbu vaziyatda kauzatema *-t* kauzaoperatori orqali shakllanib faktivlikning *refleksiv* usuliga oppozitsion munosabatda bo‘ladi, refleksivda esa kauzatsiya individning (kauzatorning) o‘z ustida amalga oshadi (*uyg‘ondi*). Budan shunga amin bo‘lamizki, demak, aynan orttirma nisbat bilan ifodalanayotgan *-t* operatori (morfologik vositasi) orqali kauzantni kauzatsiyalash funksiyasi bajarilmoqda. *Kelturdi* fe‘lidagi *-tur*

---

1. Bu haqda qarang: Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati. -Toshkent: Universitet, 2000, 385-bet.

(-tir) operatori ham xuddi shu vazifani o‘tamoqda. Mazkur kauzaoperatorlar operandlarni *ikki shaxs o‘rtasida jismoniy ta’sir oqibatidagi kauzativlik* ma’nosini beruvchi kauzaderivativ jarayonga olib kirmoqda. Agar ushbu operatorlar bo‘lmas ekan, kauzativ derivatsiya voqelanmaydi va jumla butunlay boshqacha tusda shakllanadi. Aniqrog‘i, undan kauzant tushib qoladi. Qiyoslang: ...*(Mirzo Sohruh) sulton Mahmud ko‘ksig‘a minub, uyg‘otib, ...sulton Zaynobiddin qoshig‘a kelturdi* → ...*(Mirzo Sohruh) uyg‘onib, ...sulton Zaynobiddin qoshig‘a keldi*:  $k=C_1+S \times I_1$

**b) bir shaxsning ikkinchi shaxsga buyruq berishi ta’siri oqibatida kauzantning faollashuvi.** Ushbu vaziyatda ham kauzator faol bo‘ladi va u o‘zining buyrug‘i, xatti-harakati bilan nofaol kauzantni faollashtiradi. Bunda buyruq shaklidagi *direktiv kauzativlik* voqelanadi:

1. *Mulozimlar, malikalar va amirzodalar Ko‘ksaroy oldida tayyor tursinlar...* (Muhammad Ali. Ulug‘ saltanat. Uchinchi kitob).

Keltirilgan misolda kauzantning faollashuvi buyruq ko‘rinishidagi kauzativlik bilan ifodalanmoqda. Masalan, subyekt bir necha shaxsni faollashtirishga undamoqda. Mavjud holatda III shaxs ko‘plik shaklidagi buyruq-istak mayli qo‘shimchasi (-sin) til belgilarini kauzativ derivatsiyaga olib kiruvchi asosiy unsur hisoblanadi. Bu situatsiyaning formulasi quyidagicha aks etadi:  $k=C_1+S \rightarrow I_1+I\{a,b,c...\}$ . Formuladan ko‘rinib turganidek, kauzator distantli tarzda, birinchi individga bergan buyrug‘i orqali, bir necha shaxsni faollashtirishga harakat qilmoqda. Ammo hali birinchi individ biror shaxsni faollashtirganicha yo‘q.

**e) ikki shaxs o‘rtasida psixologik ta’sir oqibatidagi kauzativlik.** Bunda bir shaxs (kauzator) ikkinchi shaxsga (kauzantga) psixologik ta’sir etishi natijasida kauzativlik yuzaga keladi. Ushbu vaziyatda ham kauzator faol bo‘lib, kauzant nofaol mavqeni egallaydi:

1. –*Sen aqlsiz o‘lgur, Kumushni uyaltirgansan* (A.Qodiriy. O‘tkan kunlar).

Birinchi -tir qo‘shimchasi insonning hissiyoti bilan bog‘liq bo‘lgan *uyalmoq* fe’liga qo‘shilib, ruhiy ta’sir oqibatida yuzaga chiquvchi kauzativlikni ifodalamoqda. Bunda kauzator kauzantga jismoniy harakat bilan emas, balki so‘z orqali ta’sir etganligi bois, biz uni *ikki shaxs*



*o'rtasida psixologik ta'sir oqibatidagi kauzativlik* tushunchasini beruvchi kauzaderivatga kiritamiz.

Shuni ta'kidlash kerakki, kauzaderivatlarining bir-biridan farqlanuvchi ma'nolari kauzaoperatorlar orqali emas, balki ular birikayotgan fe'l orqali voqelanadi. Kauzaoperatorlar faqat qo'zg'ash, ta'sir etish ma'nolarini beradi. Operator bilan operand (nisbat shakli birikayotgan fe'l) birgalikda kauzator individga qay yo'sinda ta'sir o'tkazayotganini aniqlab keladi. Lekin kauzaoperatorning vazifasi faqat ta'sir etish ma'nosini berishi bilan chegaralanib qolmaydi. U umumiy kauzasituatsiyani grammatik jihatdan shakllantirishga ham xizmat qiladi. Zero, jumlaning *Sen aqlsiz o'lgur, Kumushni uyalgansan* tarzida tuza olmaymiz, chunki fe'l *uyalgansan* shaklida kelganda birinchi darajali aktantni talab qiladi: *Sen aqlsiz o'lgur, uyalgansan*. Agar jumla bu ko'rinishda tuzilsa, kauzator vazifasini o'tayotgan *sen* olmoshi kauzantga aylanib qoladi. Bundan kauzativ fe'lning faqat aktant va sironstantlarni emas, balki butun kauzasituatsiyani boshqarayotganini kuzatamiz. Mavjud vaziyatda kauzativlikni belgilovchi morfologik vositaning ahamiyati nechog'li muhim ekanligining guvohi bo'lamiz. Mazkur misoldagi kauzal munosabat  $k=C_1+S \rightarrow I_1$  formulasi asosida amalga oshmoqda.

**f) *shaxsning predmet yoki ma'lum bir tushunchaga, holatga nisbatan ta'siri oqibatidagi kauzativlik.*** Faktivlikning ushbu turiga mansub bo'lgan kauzativlikda subyektning (kauzatorning) predmet yoki tushunchaga ta'siri oqibatida predmet, tushuncha bir holatdan boshqa holatga o'tadi. Mazkur kauzasituatsiya jonli va jonsiz referentlar o'rtasida amalga oshadi:

1. *U qo'l yuvgach, qiyig'ini stolga qo'yib, non sindirdi* (A.Muxtor. Chinor).

Misoldan ko'rinib turganidek bu vaziyatda kauzator doim faol bo'ladi, chunki uning harakati predmetga qaratilgan bo'ladi. Bundan tashqari, kauzator ma'lum bir predmetni faollashtirishi ham, faollashtirmasligi ham mumkin. Masalan, yuqoridagi misolni nazarda tutadigan bo'lsak, kauzatorning predmetga nisbatan ta'siri uni

faollashtirmayapti. Ammo *Sobir avtomobilni yurg'izdi* deyidigan bo'lsak, u holda kauzator predmetni faollashtirgan hisoblanadi.

Keltirilgan misolda kauzator nonga nisbatan ta'sir o'tkazmoqda va predmet bir holatdan boshqa holatga o'tmoqda. Bunda kauzatemasi *-dir* qo'shimchasi bilan hosil bo'lmoqda. Ushbu situatsiyada kauzator ta'sir etayotgan predmetni individ deb atay olmaymiz, albatta. Shu bois, mavjud jarayonning formulasi quyidagiga teng bo'ladi:  $k=C_1+S \rightarrow P_1/\mathcal{Q}$ . Ushbu formulaning konstanta ko'rsatkichi uchga teng, zero, predmet ifodasidan keyin kelayotgan teskari tartibdagi  $\mathcal{Q}$  konstanta ko'rsatkichini oshirmaydi. U predmetning boshqa holatga o'tganligini ko'rsatmoqda.

Ta'kidlab o'tganimiz singari, subyekt ma'lum bir tushunchaga ta'sir etishi va kauzativ situatsiyada o'zgarish sodir bo'lishi ham mumkin:

1. *Uzun qishni kitob bilan ketkazgan*

*O'qig'uvchi yosh o'rtoqlar, hormanglar!*

*Ko'ngillardan g'am va g'ashni ketkazgan*

*Bahor chog'i yayrashdan ham qolmanglar*

(Cho'lpon. Bahorda).

Berilgan misolda murojaat shaklidagi kauzasituatsiya voqelanayotganligiga amin bo'lamiz. Bunda distantli kauzasituatsiyaning kauzatori kontaktli kauzasituatsiya kauzatoriga murojaat etmoqda. Distantli kauzasituatsiya II shaxs buyruq-istak mayli shakli orqali amalga oshmoqda. Kontaktli kauzasituatsiyada esa kauzatorning «*qish, g'am va g'ash*» tushunchalariga ta'sir etishi oqibatida, kauzatsiya sodir bo'layotganligini kuzatamiz. Bunda *-kaz* kauzaoperatori yordamida kauzatemasi hosil bo'lib, u kontaktli kauzasituatsiyani boshqaradi. Mazkur kauzasituatsiya quyidagi formulaga asoslanadi:  $k=C_1+S+I_1(k=C_1+S \rightarrow X_{1,2})$ .

Bir qaraganda, kauzasituatsiyani kauzator boshqarayotgandek ko'rinadi, aslida, kauzatemasi bo'lmas ekan, kauzasituatsiya ham voqelanmaydi. Masalan:

*ketkazishdi* – V; *O'quvchilar ketkazishdi* – N+V; *O'quvchilar kitob bilan (o'qib)*, *uzun qishni ketkazishdi* – N+X+V.

Derivativ munosabatdan ko'rinib turganidek, operandlar kauzatemasi tomonidan boshqarilib, kengayib bormoqda. Kauzatemaning hosil

bo'lishi esa *-kaz* operatoriga bog'liqdir. Shaxsning predmetga ta'siri haqida fikr bildirar ekanmiz, predmet bilan faqat shaxs emas ba'zan jonivor ham kauzativ munosabatda bo'lishi mumkin:

2. *Ot chopgan-u chang chiqargan,*

*Changlar kelib senga qo'ngan*

(Cho'lpon. Katta yo'l bo'yida uchragan yaproq uchun).

Ushbu misolda jonivor (ot) yurgan yeriga ta'sir o'tkazgan va o'zgarish sodir bo'lishining sababchisi bo'lgan, kauzativlik esa *-ar* qo'shimchasi bilan hosil bo'lgan.

**g) predmet yoki tushunchaning shaxsga ta'siri oqibatidagi kauzativlik.** Kauzativlikning mazkur turida predmet yoki tushuncha kauzator maqomida bo'lib, u asoslanayotgan kauzatema insonni kauzativatsiya jarayoni bilan munosabatga kirgizadi. Bu vaziyatda jonsiz va jonli referentlar o'rtasida kauzativlik voqelanadi:

1. *...childirma yurakni nimagadir oshiqtiradi,...* (A.Qodiriy. O'tkan kunlar).

Misolda predmetning (childirmaning) insonga psixologik planda ta'sir etayotganini kuzatamiz. Bunda predmet va tushunchaning kauzatema bilan moslashuvi ularning kauzativ rejada faqatgina shaxs ifodasi bilan distributiv munosabatda bo'la olishidan dalolat beradi. Misoldagi kauzasituatsiya  $k=C_1+P \rightarrow I_1$  formulasiga asoslanadi.

**h) predmet, tushuncha yoki hodisaning boshqa predmetga ta'siri oqibatidagi kauzativlik.** Shuni aytish kerakki, predmet yoki tushuncha ba'zan ikkinchi bir predmetga ta'sir qilishi ham mumkin. Kauzativlikning ushbu turida predmet yoki tushuncha faol bo'lib, boshqa bir predmetni kauzatsiyalaydi. Boshqacha aytganda, ushbu situatsiya ikki jonsiz referent o'rtasida amalga oshadi:

1. *Seni siypab, erkalatib,*

*Asta-sekin ko'kartirgan*

*Go'zal ko'klam o'tib ketdi*

(Cho'lpon. Katta yo'l bo'yida uchragan yaproq uchun).

Misolda ko'klamning yaproqqa ta'sir etgani she'rning muallifi tomonidan izohlanmoqda. Bunda *erkalatib, ko'kartirgan*

kauzatemalarining ijrochisi sifatida bahor yaproqni kauzatsiyalamoqda. Ushbu vaziyatda yaproqqa nisbatan uyushgan kauzatemalarining munosabati aks etmoqda:  $k=C_1+P\text{X}P_1$ .

**i) subyekt tomonidan ma'lum bir vosita yordamida amalga oshirilgan kauzativlik.** Kauzativlikning bu turi *instrumental kauzatsiya* ham deyiladi. Mazkur vaziyatda kauzator biror vosita yordamida kauzantga ta'sir etadi:

1. ...*qo'lidagi uchi qaytarilgan temir xilla – kajak yordamida uni (filni) o'ng-u so'lga yo'naltirib, to'p ortilgan aravalarga qarab ketdi* (P.Qodirov. Yulduzli tunlar).

Keltirilgan misolda subyekt bilan kauzant o'rtasidagi kauzativatsiya ma'lum bir vosita yordamida amalga oshmoqda. Instrumental kauzatsiyada kauzant faollashishi ham, faollashmasligi ham mumkin. Jumladan, shaxs jonivorni o'ngga va chapga yo'naltirib, faollashtirmoqda. Ushbu vaziyat ham yuqorida tahlil etilgan jismoniy ta'sir oqibatida voqelanadi, lekin bunda kauzatorning ish quroli alohida ko'rsatiladi va kauzatsiyani aynan o'sha vosita amalga oshirgandek bo'lib qoladi. Buning qay tarzda amalga oshganini quyidagi formulada ko'rish mumkin bo'ladi:  $k=C_1+S_{P\rightarrow}I_1$ . Mazkur situatsiya *-tir* kauzaoperatori ko'magida shakllanmoqda.

**j) bir necha shaxsning kauzantga ta'siri oqibatidagi kauzativlik.** Ushbu kauzasituatsiyada kauzatorlar soni ikki yoki undan ortiq bo'ladi. Shu bois kauzaderivatsiyaning mazkur turi *komitativ kauzatsiya* deb yuritiladi. Ayrim lingvistik manbalarda *assistiv* yoki *retsiprok* deb ham keltirilgan<sup>1</sup>. Kauzatorlar ta'sir o'tkazayotgan kauzantlar ham ba'zan ko'pchilikni tashkil qilishi mumkin:

1. *Urush qiyinchiliklarida yurtga ota bo'lgan odamni tinchlik paytida chetga chiqazib qo'yamizmi, deb yana o'zini raislikka qoldirishdi* (S.Ahmad. Ufq).

2. *Biz saning uchun Olim ponsadboshining qizig'a unashib qo'yduq* (A.Qodiriy. O'tkan kunlar).

---

1. Bu haqda qarang: Абдиев Т. Конструкции с каузативными глаголами в киргизском языке. -Бишкек: Манас, 2009. -С.68.

3. –*Agraning o‘zida olti yuz sakson sangtarosh ishlatmoqdamiz* (P.Qodirov. Yulduzli tunlar).

4. *Mehmonlarni bular o‘tqazib, qo‘lini yuvdirib, dasturxon soldi* (Alpomish).

Mazkur misollarning birinchisida kauzatorlar soni ko‘pchilikni tashkil etadi. Buni ko‘makchi fe‘lli so‘z qo‘shilmasining ko‘makchi qismida kelayotgan I shaxs ko‘plikdagi shaxs-son shaklidan va *qoldirishdi* so‘zidagi *-dir* kauzativ morfemasidan keyin qo‘shilgan birgalik nisbat shakli *-ish* affiksi orqali bilib olamiz. Ikkinchi misolda esa kauzativlikning ushbu turining ifodalanishida uslubiy priyomning ahamiyati katta bo‘lmoqda. Zero, jumla *Biz saning uchun unashib qo‘yduq* shaklida qo‘llangan bo‘lsa-da, aslida, mantiqan *Biz seni unashtirib qo‘ydik* tarzidagi kauzatsiyani ifodalab kelmoqda. Bu holatda ham kauzatorlar sonining birdan ortiq ekanligini ko‘ramiz. Uchinchi va to‘rtinchi misollarda kauzatorlar bilan bir qatorda kauzantlar soni ham ko‘pchilikni tashkil qilayotganligining guvohi bo‘lamiz. Uchinchi misolda kauzatorlarning birdan ortiq ekanligi kauzatemada o‘rin olgan I shaxs ko‘plikdagi shaxs-son shaklidan ma‘lum bo‘lsa, kauzantlarning ko‘pligi ular miqdorining yuzlik sonlarda aniq keltirilganligidan anglashiladi. To‘rtinchi misolda esa kauzator va kauzantni belgilab kelayotgan ot hamda olmosh so‘z turkumlariga ko‘plik qo‘shimchasi *-lar* ning birikib kelishi ularning birdan ortiq ekanligidan dalolat beradi. Shunday ekan, kauzasituatsiyaning mazkur turi operandlarining o‘zaro munosabati faqat orttirma nisbati affikslariga emas, balki birgalik nisbat shakllari, ko‘plik qo‘shimchasi va ko‘plik shaklidagi shaxs-son formalariga ham tayanadi. O‘z navbatida, ushbu vositalar morfologik kauzativlikni yuzaga keltiruvchi unsurlardan biri sanaladi. Morfologik kauzativlikning bu turi  $k=C_1+S/S \rightarrow I_1$  yoki  $k=C_1+S/S \rightarrow I/I$  kabi formulalar asosida voqelanadi. Keltirilgan formulalarning birinchisida konstanta ko‘rsatkichi to‘rtga, ikkinchisida esa beshga teng. Ammo bu shartli ravishda berildi, chunki vaziyatga qarab, kauzatorlar yoki kauzantlar soni ikkitadan ortiq bo‘lishi ham mumkin. Shunday bo‘lsa-da, situatsiya mavjud formulalar asosida shakllanadi. Masalan, yuqoridagi misolda

kauzantlar olti yuz sakson miqdorini ko'rsatayotgan bo'lsa ham, keltirilgan formulaga tayanadi.

**k) adresiv kauzativlik.** Adresiv kauzativlikda kauzator tomonidan amalga oshirilgan kauzatsiyadagi (kauzantni faollashtirishdagi) harakat boshqa bir referent uchun amalga oshirilgan bo'ladi:

1. *Chernyayev bu binolarni chor askarlari uchun qurdirgan* (O.Yoqubov. Muzqaymoq).

2. –*Bizzi osh boshqa-da, ota. Ataylab sizga atab, yumshoqroq qilib pishirtirdim* (N.Jaloliddin. Umr).

Kauzativlikning mazkur turning derivatsiyasida fe'llarni kauzatemata sifatida shakllantiruvchi *-dir, -ir, -tir* operatorlaridan tashqari uchun ko'makchisi, jo'nalish kelishigining shakli *-ga* va vazifadosh ko'makchi sifatida kelayotgan *atab* ravishdoshi ham muhim o'rin tutadi. Zero, ushbu morfologik vositalar bo'lmasa, adresiv ma'nodagi kauzativlik voqelanmaydi. Kauzativlikni yuzaga chiqarishda fe'lning ortirma nisbati qo'shimchalari operator vazifasini bajarsa, adresivlikni shakllantirishda esa yuqorida tilga olib o'tilgan unsurlar operator maqomida keladi. Xullas, ushbu vositalarning hammasi adresiv kauzatsiyaning derivatsiyasida bir xilda muhim hisoblanadi. Qiyoslang: 1. *Chernyayev bu binolarni chor askarlari uchun qurdirgan* – *Chernyayev bu binolarni chor askarlariga qurdirgan; Chernyayev bu binolarni chor askarlari uchun qurdirgan* – *Chernyayev bu binolarni chor askarlari uchun qurgan*. 2. *Ataylab sizga atab, yumshoqroq qilib pishirtirdim* – *Ataylab sizga atab, yumshoqroq qilib pishirdim; Ataylab sizga atab, yumshoqroq qilib pishirtirdim* – *Ataylab sizga yumshoqroq qilib pishirtirdim*.

Ushbu kauzasituatsiyada subyektdan tashqari ikkita individ qatnashmoqda. Individlardan biri nafaol bo'lib, faollashtirilgan (kauzator tomonidan) individ nafaol individ uchun kauzatorning buyrug'ini bajaradi:  $k=C_1+I_1/S \rightarrow I_2$ .

Bundan tashqari, yuqorida eslatib o'tganimiz singari, kauzativlik morfologik planda analitik vositalar yordamida ham ifodalanishi mumkin.

Masalan:

*Qullik uchun tutmayman tanda bu jonni  
Desang, xalqim, bosh ko'tar, tur, oyoqqa tur!*

*Dushman kelur bostirib, qarshisiga yur!  
Omochni qo‘y, qo‘lingga qilich, yarog‘ ol!  
Maydonga chiq, maydonga, mardliging ko‘rsat!  
Sening so‘zing biz uchun amri vojib, bil!  
O‘zing boshla maydonga, boshla, To‘maris!*

(Shuhrat. Mardlik afsonasi)

Havola qilinayotgan she‘riy parchada bir shaxsning ikkinchi shaxsga buyrug‘i oqibatidagi kauzativlik voqelanayotgan bo‘lib, u faktivlikka asoslanadi. Bu vaziyatda kauzator nafaol kauzantlarni aktivlashtirmoqda, kauzativatsiya esa *ko‘tar, tur, yur, qo‘y, ol, chiq, ko‘rsat, bil, boshla* fe‘llari orqali amalga oshmoqda. Sanab o‘tilgan fe‘llar kauzativ ma‘no ifodalovchi operandlar bo‘lib, ularning shu holatdagi operatori belgisiz holda kelmoqda. Zero, kauzativlikning bu taxlit voqelanishi nutq vaziyatida har doim ham operatorning belgili ko‘rinishini talab etavermaydi. Bunday shakldagi kauzativ ma‘noni beruvchi fe‘llarning operatori II shaxs buyruq-istak mayli qo‘shimchasi *-gin* hisoblanadi. Kauzal ma‘no mazkur operatorning ishtirokisiz, ya‘ni belgisiz shakl orqali ham ifodalanaveradi, lekin bu operator belgili ko‘rinishga ega bo‘lganda kauzativlikda undash, da‘vat etish ma‘nosi yanada kuchayadi: *yur – yurgin, tur – turgin, boshla – boshlagin* kabi.

Analitik kauzatsiyada shu kabi fe‘llar o‘zidan oldin keluvchi boshqa bir fe‘lga birikib, qo‘shma fe‘l yoki ko‘makchi fe‘lli so‘z qo‘shilmasini shakllantiradi va buning natijasida hosila-kauzatemata vujudga kelib, u analitik vosita sifatida kauzativ derivatsiyani voqelantiradi:

1. *Shahar sovetiga meni yetaklab borib, nomimga qaror chiqazdirib berdi* (S.Ahmad. Yo‘qotganlarim va topganlarim).

2. *–Agar manavi ikkita jurnalni G‘afurning uyiga oborib bersang, hikoyangni yaxshilab tuzatib beraman,- dedi* (S.Ahmad. Yo‘qotganlarim va topganlarim).

3. *U sizga ilk yod olgan surasini aytib bersin* (N.Qobul. Buyuk Turon amiri yoxud aql va qilich).

4. *–Nemis odam ekanmi, qani bir boshdan aytib ber-chi!* (O‘.Hoshimov. Tushda kechgan umrlar)

Keltirilgan misollarda *bermoq* fe'li yordamida shakllangan analitik vosita orqali yuzaga chiqayotgan kauzativ munosabatning faktiv rejada amalga oshayotganini ko'ramiz, chunki bu vaziyatda kauzator faol bo'lib, o'z navbatida, u kauzantni faollashtirmoqda.

Bu o'rinda shuni aytib o'tish kerakki, kauzativlikning analitik planda shakllanishida ko'makchi fe'l vazifasini o'tayotgan unsurlar semantik jihatdan ma'lum bir vazifa bajaradi, biroq asosiy kauzatsiya analitik kauzatemaning yetakchi qismi orqali voqelanadi. Masalan, yuqorida berilgan misollardagi ko'makchi komponentni tushirib ko'ramiz: *meni yetakladi, qaror chiqazdirdi, yaxshilab tuzataman, yod olgan surasini aytsin, bir boshdan ayt* kabi. Ko'rinadiki, subyektning individga va predmetga nisbatan ta'siri ko'makchi muchaning ishtirokisiz ham amalga oshadi. Ammo analitik kauzatemada shunday hosilaki, u faqat qo'zg'ash harakatini yuzaga chiqarish bilan cheklanib qolmaydi. Uning ko'makchi komponenti kauzativ harakat bajarilishida imkoniyat, boshlanish, to'liq yakunlanganlik, davomiylik kabi qator ma'nolarni izohlab keladi, bu esa, o'z navbatida, yetakchi qismdan anglashilgan mazmun bilan hamohang tarzda amalga oshadi. Ko'makchi fe'llarning anglatadigan ma'nolari xususida prof. A.Hojiyev to'liq ma'lumot beradi. Biz ham analitik kauzatemalarning ko'makchi qismini tahlil qilishimizda qisman olimning fikriga tayandik.

Yuqoridagi birinchi misolda subyekt bir yo'la ikki individni faollashtirmoqda. Birinchidan, u avvalgi individga ta'sir etib, uni bir punktga yo'naltirmoqda, ikkinchidan, keyingi individga ta'sir etib, unga ma'lum bir amalni bajartirmoqda. Yuzaga chiqayotgan mazkur kauzal munosabat *yetaklab borib, chiqazdirib berdi* shaklidagi analitik kauzatemalar orqali amalga oshmoqda. Bunda *yetaklab borib* analitik kauzatemasidan bir punktdan ikkinchi punktga yo'nalganlik harakatining to'liq tugallanganligi va bu vaziyatda kauzator kauzantni ma'lum bir joyga yurishga undagani ma'nosi anglashilmoqda.

Analitik kauzatemalarning o'ziga xos tomoni shundaki, ikki fe'lning birikishi sintaktik derivatsiya hosilasini taqozo etsa, yetakchi va ko'makchi fe'l qurshovida voqelanayotgan ma'no esa semantik derivatsiya mahsulini beradi: *yetaklamoq, bormoq* – operand; *-b* –



operator; *yetaklab bormoq* – mikrosintagmatik munosabat; *ma'lum bir punktga yo'nalganlik harakatining davomiyligi* – semantik derivat; *ta'sir etish, qo'zg'ash ma'nosini beruvchi ikki fe'lning birikuvi* – analitik shakldagi kauzatemata.

*Chiqazdirib berdi* shaklida voqelanayotgan kauzaderivativ situatsiyada kauzatorning bir individga ta'sir etishi oqibatida yuzaga chiqayotgan harakat ifodasi natijasi o'zga shaxs uchun qaratilganligi ma'nosi aks etmoqda. Zero, kauzator bir individ uchun ikkinchi individni kauzatsiyalamoqda va buning oqibatida kauzal harakatning to'la yakunlanganligi semasi ifoda etmoqda. Bu mazmun yetakchi va ko'makchi fe'lning analitik formada yaxlitlanganligi tufayli ro'yobga chiqmoqda. Ushbu vaziyatda analitik shaklning yetakchi qismida garchi -*az, -dir* orttirma nisbat affikslari o'rin olgan bo'lsa-da, kauzativlikning mazkur shaklini affiksatsiya usulida voqelangan kauzativlik deb bo'lmaydi. Lekin bu holat qo'shimchalarning analitik kauzativatsiyada ahamiyati muhim ekanligini inkor etmaydi. Zero, kauzal ma'no aynan ana shu qo'shimchalar tufayli o'z ifodasini topadi. Bunday oxirgi o'lchov yetakchi va ko'makchi fe'l munosabatini taqozo etgani bois biz uni analitik deb yuritimiz. Ushbu kauzasituatsiyada ikki individ mavjud bo'lib, *chiqazdirib berdi* vaziyati boshlangandan so'ng kauzator bevosita qo'zg'ash ta'sirini ikkinchi individga o'tkazmoqda. Natijada, birinchi individ kauzativ munosabatdan xoli qolganligi uchun kauzant maqomidan chetlashmoqda.

Keyingi misolda *oborib bersang, tuzatib beraman* tarzidagi analitik vositalar ishtirok etgan bo'lib, ulardan birinchisi shartli kauzatemata deyiladi, chunki *oborib bersang* ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi to'liq undash ma'nosini ifodalamaydi. Ammo uning umumiy kauzativ qurilmaning semantik planda shakllanishida ahamiyati katta. Boshqacha aytganda, mazkur analitik vosita orqali kauzativ situatsiyaning konstanta ko'rsatkichi shartli ekanligi belgilanadi. Keyin kelayotgan *tuzatib beraman* ko'rinishidagi analitik shakl predmetga ta'sir ma'nosini ifodalovchi kauzatemata hisoblanadi. Lekin bu vaziyatda analitik vositadan anglashilgan ma'no birinchi misoldagi kabi kauzal harakatning to'la yakunlanganini ifodalamaydi, zotan, ta'sir etish harakatining ijrosiga

avvalgi analitik shakl mone'lik qiladi. Shu bois, u kauzatorning predmetga nisbatan yakunlanmagan kauzativatsiyasini belgilovchi analitik vosita bo'lib qoladi. Aniqrog'i, kauzativ harakatning ro'yobga chiqishi uchun avval boshqa bir harakatning bajarilishi talab qilinadi. Bu ikki analitik vosita komponentlarining o'zaro mikrosintagmatik munosabatga kirishuvida tuslanuvchi xarakterli ravishdosh shakli *-ib* operator vazifasini o'taydi.

Ma'lumki, ravishdosh fe'lning o'zagi (negizi) asosida shakllanadi. Uning hosil bo'lishi uchun ma'lum bir qo'shimcha leksik operator vazifasini bajaradi. Binobarin, ravishdosh ikkinchi bir so'z bilan munosabatga kirishadigan bo'lsa, bu vaziyatda u ana shu affiksga tayanadi. Shu bois ravishdosh qo'shimchalari analitik kauzatemalar shakllanishida tayanch vosita – derivatsiya operatorlari sanaladi.

Shuni aytish kerakki, kauzativlikning affiksial, analitik va sintaktik shakllanishi applikativ modelga asoslangan bo'ladi. Jumladan, analitik kauzatema applikatsiyasi aksariyat hollarda kengaymagan tarzda keladi, masalan, *otib tashla, quvib sol, aytib ber* kabi. Ammo ba'zan bu holat kengaygan formada ham uchraydi: *olib berib tura qol* kabi.

Uchinchi, to'rtinchi misollarda *aytib bersin, aytib ber-chi* kauzatemalari mavjud bo'lib, ularning applitsit semionlar guruhi son jihatidan teng bo'lsa-da, ammo konstanta ko'rsatkichi farq qiladi. Masalan, *aytib bersin* kauzatemasining applitsit semionlari guruhi to'rt darajali bo'lsa, konstantasi beshga teng: *ayt, -ib, ber, -sin*;  $k=C_1+S \rightarrow I_1+C_2 \rightarrow I_2$ . Zotan, bu vaziyatda kauzator bir individga ta'sir etib, ikkinchi individni kauzatsiyalashga undamoqda. *aytib ber-chi* kauzatemasining ham semionlari to'rtta bo'lib, biroq konstantasi uchga tenglashadi:  $k=C_1+S \rightarrow I_1$ . Mazkur holatda kauzator faqat birgina individni faollashtirmoqda, xolos. Analitik kauzatemalarning ikkalasida ham to'la yakunlanishi kerak bo'lgan kauzal ma'no ifodalanmoqda, faqat ikkinchi kauzatemada ushbu ma'no *-chi* yuklamasi orqali yanada bo'rttirilmoqda.

Umuman, yetakchi va ko'makchi fe'ldan tarkib topgan analitik kauzatema ham, avvalgi faslda aytib o'tilgan affiksial formadagi kauzatemalardek, mikro kauzasituatsiyani voqelantiradi, ammo ushbu derivat komponentlari so'zlardan iborat bo'lganligi bois u nisbatan

kattaroq situatsiyani taqozo etadi. Qanday shaklda voqelanishidan qat'i nazar, ushbu kauzatemalar mantiqiy ravishda X (kauzator) – Y (kauzant) – Z (konsekvent – semantik xulosa)<sup>1</sup> tarzida kauzaderivativ munosabatga kirishadi.

Faktivlik asosidagi kauzal ma'noning ifodalanishida kauzatemani analitik semion sifatida shakllantirib, ko'makchi fe'l vazifasini bajaruvchi elementlardan biri *bil* so'zi bo'lib, uning boshqa fe'llardan farq qiluvchi xususiyati shundaki, mazkur fe'l yetakchi komponent bilan birgalikda, aksariyat hollarda, kauzatorning aqliy faoliyat bilan aloqador bo'lgan harakatga undashini bildiradi:

1. *Farqlay bil, narxlay bil, ayira bilgin,  
Ish boshin xayrga qayira bilgin*

(Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig).

2. *Ulug' avlod-ajdodlari sha'n-shavkatini saqlay bilsun!* (N.Qobul. Buyuk Turon amiri yoxud aql va qilich)

Ushbu misollarda *farqlay bil, narxlay bil, ayira bil, qayira bil, saqlay bilsun* kauzatemalari qo'llangan bo'lib, darhaqiqat, ular orqali kauzator kauzantni aqliy faoliyat bilan bog'liq bo'lgan harakatni ijro etishga undayotgani izoh talab qilmaydi. Bu vaziyatda analitik kauzatemalar tarkibiy qismlarining konnektori sifatida -y hamda -a operatorlari faoliyat ko'rsatib, relyativ munosabat natijasi o'laroq episemionlarni voqelantirishga xizmat qilmoqda. Bu esa, o'z navbatida, semionlar derivatsiyasi hosilasini taqozo etmoqda.

Shuni ham aytish kerakki, *farqlay bil, narxlay bil* tarzidagi analitik kauzatemalarining yetakchi komponenti tasarrufida bir yo'la ikkita operator mavjud bo'lib, ulardan biri (-la) yangi so'z yasagani bois leksik derivatsiya hosilasini shakllantiruvchi, ikkinchisi esa (-y) yetakchi va ko'makchi komponentni biriktirgani uchun sintaktik derivatsiyani voqelantiruvchi operator hisoblanadi. Bu operatorlar mikrosintagmatik aloqani belgilovchi unsur bo'lib, o'zi birikayotgan elementlarga dinamik

---

1. Bu haqda qarang: Терешина Ю. В. Межкатегориальные связи каузативных конструкций//Автореф. дис. канд. филол. наук. -Ижевск, 2008. -С.10-12; Трусев Н.К. Каузативные конструкции в английском публицистическом тексте//Актуальные проблемы теоритической и прикладной лингвистики: сборник научных трудов. -Ульяновск: УЛГТУ, 2010. -С.159.

tus bera olmaydi. Boshqacha aytganda, *-la* qo‘shimchasi fe‘l yasashi davomida tushuncha va harakat o‘rtasidagi munosabatni bildirsa, *-y* affiksi faqat analitik vositaning tarkibiy qismlarinigina bog‘lashga xizmat qiladi, xolos. *Saqlay bilsun* kauzatemasidagi *-sun* relyatori undash harakatining III shaxsga qarashlilikini anglatuvchi kauzaoperator sifatida xizmat qilmoqda.

Ta’kidlash joizki, agar analitik kauzatemada yetakchi komponenti leksik derivatsiya mahsuli bo‘lsa, u holda so‘z yasalishi uchun asos bo‘lgan semionni **O** simvoli bilan belgilaymiz, chunki mazkur qismga hali so‘z yasovchi affiks relyator bo‘lmaganligi bois, unga bo‘sh o‘rni to‘ldirilishi kerak bo‘lgan semion sifatida qaraymiz. Zotan, mazkur bo‘sh o‘rin nutq vaziyatiga qarab, mikrosintagmatik munosabat davomida paradigmatic qatordan olingan operatorlar bilan to‘ldiriladi. Masalan, yuqoridagi *farq*, *narx* kabi asos semionlarga *be-*, *-siz* operatorlari ham relyator maqomida kelishi mumkin. Ammo nutq egasi kauzativ munosabat aktini analitik vosita bilan faollashtirar ekan, bunda ko‘rsatilgan bo‘sh semionga *-la* qo‘shimchasi birikib kelishi tabiiy. Ta’kidlab o‘tganimizdek, bo‘sh o‘rni to‘ldirilishi lozim bo‘lgan ushbu semion, aslida, fonemalar relyatsiyasidan hosil bo‘lgan so‘zni tashkil etadi. Biz uni **W** simvoli bilan belgilaymiz. Unga birikib kelayotgan fe‘l yasovchi qo‘shimchani esa **R<sub>1</sub>** deb olamiz. Derivatsiya natijasida hosiladan so‘zning elementar strukturasi namoyon bo‘ladi. Mazkur sodda struktura yana bir applitsit semion bilan kengayib, birmuncha murakkabroq strukturali episemionni shakllantirishi uchun **R<sub>2</sub>** kerak bo‘ladi, chunki **R<sub>2</sub>** murakkab struktura muchasi bo‘lib birikuvchi yana bir **W** (so‘z) ning tirkalishi uchun konnektor vazifasini o‘taydi. Ushbu konnektor funksiyasini analitik kauzatemada tarkibiy qismlarini derivativ munosabatga kirituvchi ravishdosh shakli bajaradi. Applikativ model asosidagi mazkur derivativ generatsiyani quyidagicha izohlaymiz:

$W=O \rightarrow R_1 / OR_1 \rightarrow R_2 / OR_1 R_2 \rightarrow W / WOR_1 R_2 W = AC$  – analitik kauzatemada.

Xullas, analitik kauzatemalar xuddi shu kabi applikativ modelga tayangan derivatsiyaga asoslanadi.

## *Beshinchi bob*

### SINTAKTIK KAUZATSIYA

*Umuman, sintaksis doim insonga, uning fikr va tuyg‘ulariga xizmat qiladi...*

(R.A.Budagov)

Mazkur bobda gap, mikromatn maqomidagi murakkab sintaktik qurilmalar hamda abzas shaklidagi makromat kauzativli derivatsiyasi xususida ilmiy qarashlarimizni izohlab o‘tamiz. Bunda ularning sintaktik derivatsiyasi bilan bir qatorda, kauzativlik ifodasidagi farqli tomonlari ham tahlil qilinadi.

Integrativ xususiyati til birliklarini uyushtirishda namoyon bo‘luvchi va mustaqil holda xabar ifodasini beruvchi nutqning eng kichik birligini gap hisoblanadi. Buning dalilini nutqning eng katta birligi makromatni segmentlash jarayonida kuzatamiz, zero, mazkur vaziyatda gap xabar ifodasini beruvchi kichik segment sifatida namoyon bo‘ladi. To‘g‘ri, hatto fonemani ham nutqning segmenti sifatida tahlil qilish mumkin, ammo fonema mustaqil holda ma‘no kasb etmaydi<sup>1</sup>. Bu xususda fikr bildirganida E.Benvenist til birliklarining qo‘llanishi obyektiga gap sanalishini to‘g‘ri ta‘kidlaydi<sup>2</sup>.

Sintaktik kauzatsiya haqida mulohaza yuritish ekanmiz, bunda dastlab sodda gapdagi kauzativlikning sintaktik xarakteristikasi to‘g‘risida to‘xtalmoqchimiz:

1. *Echkimiz...tipirchilab odamni bezor qilardi. Shunda birontamiz uning orqa oyoqlarini ushlab turishga majbur bo‘lardik* (O‘.Hoshimov. Saylanma. II jild).

Keltirilgan misolda qo‘shma fe‘l ko‘rinishidagi analitik vositalar orqali ifodalanayotgan kauzativlikning sodda gaplar tasarrufida voqelanayotganini kuzatamiz. Bu, albatta, insonning o‘z fikri integratsiyasi uchun paradigmatic qatordan kauzativ vaziyat taqozo

---

1. Bu haqda qarang: Турниёзов Н.Қ. Гап ва унинг деривацион хусусиятлари/Ўзбек тили деривацион синтаксиси. -Тошкент: Наврўз, 2011, 43-бет.

2. Bu haqda qarang: Бенвенист Э. Общая лингвистика. -М.: Прогресс, 1974. -С.139.

etayotgan elementlarni tanlab, aktuallashtirishi bilan bog'liq bo'ladi. Integratsiya deganda esa fikr ifodasi davomida nutq muchalarining yaxlitlanishini tushunamiz. Ushbu jarayonda ular avval avtonom holda uyushib, so'ng umumiy plandagi monolitlikni kasb etadi. Shu bois sintaktik paradigmada ularning integratsiyalashuvi bir-biridan farqlanadi. Masalan, gapning integratsiyasi til belgilarining faollashuviga tayansa, murakkab sintaktik qurilmalarda gaplar integrant vazifasini o'taydi. O'z navbatida, makromatn gap, MSQ, abzaslar asosida shakllandi. So'zlashuvdagi til va nutq birliklarining bunday faoliyati murakkab iyerarxik jarayon bo'lib, uni ilmiy jihatdan tadqiq etish derivatsiyani taqozo etadi. Zotan, inson nutqi asl mohiyatiga ko'ra derivatsiya demakdir. Derivatsiya keng qamrovli bo'lib, aplikativ, transformatsion, bevosita ishtirokchilar metodlari kabi ish mexanizmlari bilan faoliyat yuritadi.

Biz yuqoridagi real til materialidan olingan misolni nutq egasi aytgan holati bo'yicha tahlil qildik. Biroq fikrni so'zlovchi boshqa ko'rinishda ham yetkazishi mumkin. Buni transformatsion metod orqali o'rganamiz. Nutq birliklari elementlarining bir-biri bilan o'zaro birikishi aplikativ modelga tayanilgan holda tadqiq qilinadi. Ularning mantiqiy munosabati e'tiborga olinganda esa semantik derivatsiya qonuniyatiga amal qilinadi (Buni mantiqiy-semantik aplikatsiya deyish ham mumkin). Ushbu birliklar qanaqa elementlardan tarkib topganini bilishimiz uchun bevosita ishtirokchilar metodiga murojaat etamiz. Jumladan, berilgan misolda analitik kauzatemalar sintaktik jihatdan alohida tub struktura maqomida kelmoqda. Biroq so'zlovchi nutqini boshqa ko'rinishda (transformada) voqelantirsa, sodda gaplarning birinchisida tub struktura mavqeyini egallagan analitik kauzatema (*bezor qilardi*) derivatsiya tarixi uchinchi bosqichining operatorini (*-(a)yotgan* tarzidagi sifatdosh shaklini) biriktirib kelayotgan operandiga aylanadi. Qiyoslang:

*Echkimiz...tipirchilab odamni bezor qilardi. Shunda birortamiz uning orqa oyoqlarini ushlab turishga majbur bo'lardik* (O'.Hoshimov. Saylanma. II jild) – (*Shunda*) birortamiz tipirchilab odamni *bezor qilayotgan* echkining orqa oyoqlarini ushlab turishga *majbur bo'lardik*.

Lekin bu bilan transformatsion jarayon tub strukturaga asoslanadi deb tushunmaslik kerak. Transformatsiya ma'no tushunchasi bilan bevosita bog'lanib, muayyan bir tayanch struktura asosida shakllangan sintaktik strukturalar mazmunan mushtarak bo'lgandagina vujudga keladi<sup>1</sup>. Mazkur misol tahlili transformatsiyaning *kontaminatsiya* usulida amalga oshirilgan bo'lib, unda ikki elementar gap asosida murakkab shaklli mustaqil gapning voqelanishini kuzatamiz. Aytib o'tganimizdek, birinchi gapdagi analitik kauzatemata sifatli kategoriyasiga ko'chib, *funksional transpozitsiya* hodisasini vujudga keltirmoqda. Bunda transpozitsiya hodisasi transformatsion jarayonning shakllanishi uchun vosita bo'layotganini ko'ramiz. Transformatsiyaga uchragan gapning mazmuniga putur yetmaganligi sababli, kauzativ qurilma kauzatorining mavqeyi ham o'zgarmaydi, jumladan, misoldagi «*echki*» so'zi kauzatorligicha qoladi. Zero, kauzativlik tushunchasi semantik hodisadir.

Kontaminatsiya holatiga o'tgan ushbu murakkab shaklli gapning (kauzativ qurilmaning) tarkibiy qismini tashkil etuvchi bevosita ishtirokchilarini tahlil qilsak, algoritmgaga tayanuvchi, biri ikkinchisi bilan uzviy sintaktik aloqada bo'lgan elementlar majmuyi mavjudligini kuzatamiz:

1.  $P=GN+GV$ ;  $GN=N_1(X\text{-kauzator})+d$ ;  $GV=N_2(Y\text{-kauzant})+V$  ( $Z$ -faktivlik (jismoniy ta'sir)).

2.  $P=GN+GV$ ;  $GN=d_1+N_1(Y)$ ;  $GV=d_2(X)+d_3+N_2+N_3+V$ .

Transforma  $\rightarrow P=GN+GV$ ;  $GN=d_1+N_1(Y)+d_2+N_2+d_3+d_4(X)$ ;

$GV=d_5+N_3+N_4+V$ .

Mazkur gapning applikativ modeli semion va episeionlar asosida kengaya boradi. Faqat bunda gapning generatori sifatida *adnektor* birlamchi vazifa bajaradi. Adnektor deganda har qanday jumlaning shakllanishi uchun operator-semion funksiyasini o'tovchi qismni tushunamiz. Adnektor modal operator bo'lib, u fe'l bilan ifodalanadi va faoliyat qanday amalga oshirilishini belgilab beradi<sup>2</sup>. Gapning derivatsion voqelanishida tub struktura ushbu vazifani o'taydi, zotan u sintaktik

1. Bu haqda qarang: Турниёзов Н.Қ. Гапнинг трансформацион методи асосидаги таҳлили//Структур синтаксис асослари. -Тошкент: Фан, 2009, 87-бет.

2. Bu haqda qarang: Жеребило Т.В. Генератор фраз/Словарь лингвистических терминов. -Назрань: Пилигрим, 2010. -С.70; <https://codenlp.ru/stati/stiv-andreas-modal-ny-e-operator.html>.

struktura sathida xabarning mag‘zini tashkil etuvchi predikat vazifasini bajaradi. Ana shu tarzda kauzativlikning sintaktik reja asosida voqelanishini kuzatishimiz mumkin bo‘ladi.

Tub struktura tushunchasi mantiq bilan uzviy aloqadordir, zero, nutqning shakllanishini semantikasiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Bu, ayniqsa, kauzativ qurilmalarning voqelanishida namoyon bo‘ladi. Zotan, kauzativatsiya, ta’kidlanganidek, semantik jarayon bo‘lib, unda kauzativ situatsiyalarni yuzaga keltiruvchi adnektorlar mantiqan sabab va oqibat qonuniyatiga tayangan holda nutqning generator maydonida tarkib topayotgan dastlabki modul hisoblanadi. Lekin bu bilan sintaksis va mantiq bir xil reja asosida ish ko‘radi demoqchi emasmiz. Chunki ularning har birining o‘ziga xos qonuniyatlari mavjuddir. Mazkur mulohazalarga tayanib, sintaksis bilan mantiq o‘rtasida o‘zaro uzviy munosabat mavjudligi to‘g‘risida xulosa chiqarsak to‘g‘ri bo‘ladi deb o‘ylaymiz. Biz tub strukturani, S.D.Kasnelson ta’limotiga suyanib, gapning sintaktik strukturasi uchun asos bo‘luvchi ichki semantik struktura deb hisoblaymiz<sup>1</sup>. Shunday ekan, sintaktik strukturaning voqelanishida tub struktura uning semantik sinchini tashkil etadi. Gapning dinamik tus olishi tub strukturaga tayanar ekan, uning derivatsiyaning keyingi bosqichlarida qanday ko‘rinishga ega bo‘lishi nutq muhitida so‘zlovchining til elementlaridan qay tarzda foydalanishiga bo‘g‘liq bo‘ladi. Gapning faollashuvi tub strukturaga tayansa-da, tub struktura bilan sintaktik derivat to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘lanmaydi, zotan, tub struktura zamirida avval tayanch struktura yuzaga keladi. Tayanch struktura esa gapning minimal shakli bo‘lib, derivatsion yo‘nalishga poydevor bo‘luvchi ba’zal obyekt sanaladi. Bu jarayonda tub strukturani V, tayanch strukturani N+V simvollari orqali belgilaymiz. N+V ba’zal obyektiga X element qo‘shilsagina derivat voqelanadi va bunda derivatsiya operatori muhim ahamiyat kasb etadi, zero, operator til belgilarining nutqdagi o‘zaro munosabatini ta’minlaydi:

*Dadamiz Azimjon amaki bilan dildan suhbatlashar edilar* (Sherkon Qodiriy. 37-xonadon).

---

3. Bu haqda qarang: Турниёзов Б.Н. Ҳозирги ўзбек тилида тенг компонентли мураккаб синтактик қурилмалар деривацияси. -Самарқанд: СамДЧТИ, 2008, 31-бет.



- 1) *suhbatlashar edilar – V*;
- 2) *Dadamiz suhbatlashar edilar – N+V*;
- 3) *Dadamiz dildan suhbatlashar edilar – N+X<sub>1</sub>+V* (operator: *dildan*);
- 4) *Dadamiz Azimjon amaki bilan dildan suhbatlashar edilar – N+X<sub>2</sub>+V* (operator: *bilan*).



Misol tahlilidan tub strukturaning mustaqil holda semantik va sintaktik jihatdan mukammal emasligi ko‘rinadi, chunki mazkur struktura orqali berilayotgan xabar ifodasidan mavhum holatdagi dastlabki nutqiy mahsulotning yuzaga chiqishi kuzatiladi. Bu struktura nisbiy mavhumlik og‘ushida bo‘ladi, ammo mavhumlik alomati til belgilari nutqqa ko‘cha boshlagach, barham topadi. Tub struktura semantik va sintaktik planda mukammal bo‘lmasa-da, u nutq egasining mazmuniga ko‘ra qanaqa sintaktik strukturani shakllantirishiga qarab farqlanadi. Shuning uchun ham uni tafakkur strukturasi deb ataymiz. Masalan, buning yaqqol namunasi sifatida kauzativ va dekauzativ sintaktik strukturalarning shakllanishidagi holatni ayta olamiz. Dekauzativatsiya deganda kauzativlikka teskari bo‘lgan jarayonni tushunamiz. Aniqrog‘i, dekauzativ (antikauzativ) situatsiyada kauzatorning roli (biror harakatni bajarishga undashi) kuzatilmaydi. Boshqacha aytganda, harakat tashqi agensning ishtirokisiz amalga oshadi. Yuqorida berilgan misol dekauzativ sintaktik struktura bo‘lib, uni shakllantirayotgan inson tafakkurida suhbatlashish jarayonini ifodalsh bilan bog‘liq bo‘lgan tub struktura minimal holatda tarkib topgan. Biroq so‘zlovchi kauzativ sintaktik qurilmani shakllantirmoqchi bo‘lsa, u holda uning ongida undash, buyurish, da‘vat etish mazmunidagi tub strukturalar vujudga kela boshlaydi. Bu, o‘z navbatida, sabab va oqibat munosabatlari qurshovida amalga oshadi. Ana shunga asoslanib, inson tafakkurida paydo bo‘layotgan tub strukturalarning semantik planda farqlanadi deya olamiz. To‘g‘ri, har qanday fikrning ham, ma’lum ma’noda, yuzaga kelishi sababi bo‘ladi, albatta. Ammo kauzativ qurilmalarda bu aniqroq sezilib turadi. Qiyoslang:

*Bir marotaba lola navlarini sanashlarini buyurdim* (Zhiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma)..

*Dadamiz Azimjon amaki bilan dildan suhbatlashar edilar.*

Birinchi misol kauzativ situatsiya bo‘lib, uning tub strukturasi asosida shakllanishi mumkin bo‘lgan sintaktik qurilmalarda harakatning tashqi agensning ishtiroki orqali amalga oshishi kuzatiladi. Masalan, ...*tozalashni buyurdim, ...sakrashni buyurdim, ...olib kelishni buyurdim* kabi. Bunda kauzator va kauzantning o‘zaro munosabati sabab va oqibat qurshovida ro‘y berayotgani sezilib turadi: *buyurdi – sabab, bajardi – oqibat* kabi. Ammo ikkinchi misoldagi *suhbatlashar edilar* tub strukturasi asosidagi sintaktik qurilmalar, garchi suhbatlashishning ham qandaydir sababi bo‘lsa-da, X – kauzator → Y – kauzant → Z – konsekvent distributsiyasini (sabab va oqibatni) izohlovchi formulaga to‘g‘ri kelmaydi. Boshqacha aytganda, mazkur jarayonda biror harakatni bajarishga undash ma‘nosi o‘z ifodasini topmaydi.

Kauzativ formadagi tub strukturalarning asosiy sintaktik xususiyatlaridan yana biri shunda ko‘rinadiki, kauzativ situatsiyada tub struktura maqomidagi fe’llarning valentlik ko‘rsatkichi har doim, hech bo‘lmaganda, bir pog‘ona yuqori turadi. Chunki bunday fe’llarning *aksessivlik* (lotincha – *accessio* – «*biriktirib oluvchi*») xususiyati boshqa fe’llarga nisbatan ancha kuchli bo‘ladi. Bundan tashqari, kauzativatsiya jarayonida birinchi darajali aktantning nufuzi dekauzativatsiya holatinikiga qaraganda baland bo‘ladi. Zero, nutqning bu kabi voqelanishida birinchi darajali aktant kauzator mavqeyini egallaydi. Buning dalilini yuqoridagi misollar qiyosida ko‘rishimiz mumkin:



Tahlil natijasida sodda gap shaklidagi kauzativ sintaktik qurilmalar ikki mikrosituatsiyani qurshab olganining guvohi bo‘lamiz. Ulardan biri kauzator tomonidan belgilangan kauzatsiyalovchi situatsiya bo‘lsa,

ikkinchisi kauzant tomonidan amalga oshirilishi kerak bo'lgan kauzatsiyalanuvchi situatsiyalardir. Mazkur situatsiyalardan birinchisi, kauzatsiyalovchisi, tafakkur strukturasi tayanib, minimal holatda shakllangani bois abstrakt xarakterli bo'ladi: *Men buyurdim; Sobir undadi; Humoyun yubordi* kabi. O'z navbatida, derivativ jarayonda kauzativ klauza kengayadi va kauzatsiyalanuvchi situatsiyada bajarilishi kerak bo'lgan harakat aniqlashadi: *Men lolalarni sanashni buyurdim; Sobir meni sakrashga undadi; Humoyun uni Umarqutga yubordi* kabi. Ana shu tarzda ikki mikrosituatsiyaga tayangan, sodda gap ko'rinishidagi umumiy kauzativ qurilma shakllanadi, natijada kauzator va kauzant munosabati yuzaga chiqadi.

Shuni ham aytish kerakki, kauzativ qurilmalarning voqelanishiga asos bo'luvchi tub strukturalar ham mazmunan va sinaktik jihatdan o'ziga birikib keluvchi elementlarni boshqarishiga qarab farqlanadi. Jumladan, «*buyurdim*» tub strukturasi direktiv kauzasituatsiyani voqelantirishga sabab bo'ladi. Xuddi shunday «*farmon berdi*» tub strukturasi ham direktivlikni yuzaga keltirsa-da, u «*buyurdim*» ga nisbatan passiv xarakter kasb etadi. Zero, «*buyurdim*» orqali referentlar o'rtasida semantik va sintaktik rejada bevosita aloqa kuzatilsa, «*farmon berdi*» sintaktik qurilmaning tub strukturasi bo'lib kelganda kauzatorning individga nisbatan ta'sirida bilvosita munosabat mavjudligi seziladi:

*Bir marotaba lola navlarini sanashlarini buyurdim*

*Bayramxon...topshiriqni zudlik bilan bajarishga farmon berdi*  
(P.Qodirov. Avlodlar dovoni).

Birinchi kauzativ qurilmadan kauzatorning kauzantga to'g'ridan to'g'ri ta'sir o'tkazayotgani anglashiladi. Bundan tashqari, ikki tub strukturaning uslubiy jihatdan ham xoslanishi ajralib turibdi. Masalan, «*buyurmoq*» fe'li uslubiy betaraf so'z bo'lib, so'zlashuv, rasmiy va badiiy uslublarda bemalol qo'llanaveradi. Bu jihatdan, «*farmon berdmog*» fe'li tarixiy nuqtayi nazardan rasmiy uslubda ishlatilgan bo'lsa, hozirgi kunga kelib, ekspressiv planda, badiiy uslubga xos bo'lib qolgan va bu orqali bir individga yo'naltirilgan kauzatsiya farmoyish hujjati vositasida yoki ikkinchi referent orqali amalga oshadi. Mazkur klauzalarning sintaktik

kauzatsiyasida tub strukturalarni belgilab keluvchi fe'llarning valentlik darajasi ham har xil bo'ladi:

*(Men) Bir marotaba lola navlarini sanashlarini (ularga) buyurdim*→fe'l valentligi uchga teng.

*Bayramxon...topshiriqni zudlik bilan bajarish(uchun)ga (ularga) farmon berdi*→fe'l valentligi ikkiga teng.

Ko'rinadiki, tahlilga tortilayotgan sodda gaplar bir xilda direktiv kauzativ qurilmalarni taqozo etsa-da, ularning tub strukturalari farqlanganligi bois mazkur kauzativ adnektorlar zamirida shakllanayotgan kauzasintaktik qurilmalar ham so'zlovchining xohishiga qarab turlicha voqelanadi. Buni ushbu kauzativ sintaktik qurilmalarning derivatsiyasidagi transformatsiya hodisasida yanada aniqroq kuzatish mumkin:



*Bir marotaba lola navlarini sanashlarini buyurdim.*

*Bir marotaba lola navlarini sanash men tomonimdan buyurildi.*

*Bayramxon topshiriqni zudlik bilan bajarishga farmon berdi.*

*Topshiriqni zudlik bilan bajarishga Bayramxon tomonidan farmon berildi.*

Aktiv qurilmalarning passiv qurilmalarga aylanishi transformatsiyasi natijasi o'laroq shunga amin bo'lamizki, darhaqiqat, ikkinchi misolimiz transformatsiyaning mazkur turiga to'liq mos keladi. Zotan, unda kauzativatsiyaning to'g'ridan to'g'ri emas, balki qandaydir vosita yoki shaxs orqali amalga oshayotgani kuzatiladi. Birinchi misolimiz ham transformatsiyada passiv xarakterni kasb etayotgan bo'lsa-da, ammo uning boshqa transformaga o'tishi ushbu mezunga qandaydir mos kelmayotgandek ko'rinadi. Buning sababi, unda kauzatorning kauzantga nisbatan birlamchi munosabatining aks etishidadir. Bundan tashqari, ushbu kauzativ klauzalarning ishtirokchi unsurlari o'rtasidagi kauzasintaktik aloqalarni bevosita ishtirokchilar tahlili metodi (BI) orqali ham tekshirishimiz mumkin:



BI tahlili natijasi shuni ko'rsatadiki, berilgan kauzativ sintaktik qurilmalarning analiz sxemasi bir xilda bo'lsa ham, ularning bevosita ishtirokchilari tarkibi va soni, sintagmatik qatordagi joylashuvi ajralib turadi<sup>1</sup>. Bu esa, ta'kidlaganimizdek, nutqiy vaziyatda tafakkur

1. BI tahlil sxemasidagi simvollar quyidagilarni ifodalaydi: **cP** – kauzativ konstuksiya, **NG** – ot guruhi, **NV** – fe'l guruhi, **N** – ot va uning o'rnida qo'llanuvchi so'z, **d** – aniqlovchi yoki yordamchi unsur, **V** – fe'l, **cA** – kauzativ adnektor.

mahsulining minimal ko‘rinishi bo‘lgan kauzativ formadagi tub strukturalardan foydalanayotgan insonning kauzativatsiyaning qandaqa mazmundagi shaklini derivativ jihatdan voqelantirishiga bog‘liq bo‘ladi.

Ravshanki, BI tahlili maetodiga asosan mavjud sintaktik qurilmalarni tayyorligicha tahlil qilamiz. Su bois u orqali aktiv shakldagi kauzativ konstruksiyalarni passiv formadagi kauzativ qurilmalar bilan munosabatini ochib bera olmaymiz. Bundan tashqari, mazkur metod sintaktik jihatdan ichki tub strukturani topish va uning ahamiyatini ko‘rsatib berish imkoniyatiga ham ega emas<sup>1</sup>. Lekin BI metodiga tayanib, kauzativ qurilmalarning kauzativ situatsiyadagi ishtirokchi unsurlari o‘rtasidagi sintaktik aloqasini aniq belgilab bera olamiz.

Ma‘lumki, sodda gaplar va murakkab sintaktik qurilmalarning tarkibiy qismlari, ular dekauzativ qurilmami yoki kauzativmi qat‘i nazar, derivativ jihatdan tub struktura asosida shakllana boradi. Ularning kauzal plandagi mazmuniy salmog‘i ham ko‘proq tub strukturaning anglatayotgan ma‘nosiga tayanadi.

Kauzaderivativ jarayonda sodda gapning tub strukturasi analitik formada shakllanishidan tashqari fe‘lning orttirma, majhul, o‘zlik nisbatlari va buyruq-istak mayli qo‘shimchalari bilan hosil bo‘lgan kauzatemalar orqali ham voqelangan bo‘lishi mumkin. Bunday tub strukturalarning o‘zi ham, aslida, mikroderivatsiya og‘ushida bo‘ladi. Zero, sanab o‘tilgan affikslar sintaktik planda asosga qo‘shilib, so‘zni qanaqa morfologik kategoriyaga mansub ekanini ko‘rsatadi, shu bilan birga, semantik jihatdan kauzativlikka ham ishora qiladi. Masala tavsifiga shu nuqtayi nazardan qaraydigan bo‘lsak, sintaktik hamda semantik derivatsiya uzvlari bir nuqtada kesishayotganining guvohi bo‘lamiz. To‘g‘ri, faqat qo‘shimchalar qurshovidagi kauzatemalar emas, balki analitik shakldagi kauzatemalar ham mikrosintagmatik aloqalar mavjudligini ko‘rsatib kelishi mumkin. Buni ko‘makchi fe‘lli so‘z qo‘shimchalari bilan ifodalanayotgan kauzativlikni tahlil qilganimizda izohlab o‘tgan edik. Lekin bu ikki ko‘rinishdagi kauzatemalarning mikroderivatsiyasi bir-biridan farq qiladi. Masalan, qo‘shimcha bilan

---

2. Bu haqda qarang: Turniyozov N.Q. Xorijiy mamlakatlar lingvistik nazariyalari. -Samarqand: SamDCHTI, 2007, 22-bet.

asosning o‘zaro sintaktik munosabati faqat birgina so‘z doirasida amalga oshayotganligi tufayli, ikki so‘zning o‘zaro munosabatini belgilab keluvchi yetakchi va ko‘makchi fe‘lli kauzatemalarga qaraganda kichik situatsiyani qamrab oladi. Lekin, shunga e‘tibor berish kerakki, ushbu kauzatemalarning shakllanishi o‘zaro farqlansa-da, ulardan qay birining kauzativ qurilmaning tub strukturasi maqomida kelishi umumiy kauzastrukturaning mazmuniga putur yetkazmaydi. Bunda leksik va sintaktik jihatdan ayrim o‘zgarishlar amalga oshishi mumkin, xolos. Shu bois mazkur holatni kauzativ transformatsiya deb ataymiz:

1. *Tahmasp Humoyunning kattaligini endi tan olgan kabi uni to‘rdagi joyga o‘tkazdi* (P.Qodirov. Avlodlar dovoni).

2. *Humoyun hazratlari ila Hamida begim ikkovlarining hind elidagi martabalari yana tiklansin* (P.Qodirov. Avlodlar dovoni).

Keltirilgan sodda gap shaklidagi kauzativ qurilmalardan birinchisining tub strukturasi fe‘lning orttirma nisbati qo‘shimchasi, ikkinchisidiki esa majhul nisbat affiksi hamda buyruq-istak mayli shaklining III shaxs birlik formasi bilan shakllangan kauzatemalardan tashkil topgan. Mazkur tub strukturalar ushbu gaplarning kauzativ qurilma sifatida voqelanishiga asos bo‘lmoqda. Masalan, birinchi misolning dekauzativ holati *Humoyun kattaligini endi tan olgan kabi to‘rdagi joyga o‘tdi* yoki distantli kauzatsiya ko‘rinishidagi *Humoyun kattaligini endi tan olgan kabi Tahmasp ko‘rsatgan to‘rdagi joyga o‘tdi* tarzida shakllanishi mumkinligi izoh talab qilmaydi. Ammo *o‘tdi* formasidagi tub struktura fe‘lning orttirma nisbati affiksi bilan ifodalangan kauzaoperatorni qabul qilishi bilan u kauzatemaga aylanadi va mazkur tub struktura boshqarayotgan elementlar endi kontaktli kauzativ qurilma konnektorli sxemasi asosida faoliyat ko‘rsata boshlaydi. Natijada tayanch strukturasi ham, derivatsion jihatdan voqelanishiga sabab bo‘layotgan operatorlari ham dekauzativ strukturadan farqlanuvchi kauzativ qurilma vujudga keladi.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, ushbu kauzativ qurilma muchalari ikki fe‘ldan tarkib topgan analitik formadagi tub strukturaga tayangan holda ham derivativ munosabatga kirishishi mumkin. Jumladan, birinchi misolni *Tahmasp Humoyunning kattaligini endi tan olgan kabi uni*

*to 'rdagi joyga olib bordi* yoki *Tahmasp Humoyunning kattaligini endi tan olgan kabi uning to 'rdagi joyga o 'tirishiga ishora qildi* deb o 'zgartiramiz. Ko 'rib turganimizdek, tub struktura analitik shaklga o 'tishi bilan umumiy kauzativ klauzaning mazmuniga putur yetmaydi. Bunda faqat ayrim leksik va sintaktik o 'zgarishlar ro 'y berib, tub strukturaning tuzilishi sintaktik jihatdan avvalgisiga qaraganda kattaroq bo 'lgan mikrosituatsiyani taqozo etadi. Zero, analitik kauzatemaning o 'zida ham ikki so 'zning mikroderivatsiyasini kuzatamiz. Bu esa, o 'z navbatida, kichik sintaksisning o 'rganish obyekti bilan bog 'lanadi.

Keyingi misolning tub strukturasi vazifasida kelayotgan fe 'lning kauzaoperatorlari o 'zlik nisbati qo 'shimchasi *-n* va buyruq-istak mayli shaklining III shaxs birlik formasi *-sin* bo 'lib, ular o 'zlari birikib kelayotgan so 'zni kauzatemaga bo 'lib shakllanishini ta 'minlamoqdalar. Bu vaziyatda keyingi operator avvalgi refleksiv shakldagi operatorni inkor etib, butun kauzastrukturani direktiv formada voqelantirmoqda. Refleksiv shakldagi tub strukturalar vazifasida kelayotgan fe 'llar kauzaoperatori orttirma nisbat affikslari bilan voqelanayotgan kauzatemalardan farqli ravishda doim o 'timsiz holatda keladi. Direktiv ma 'noni ifodalovchi operatorlar esa o 'timli fe 'llarga ham, o 'timsiz fe 'llarga ham birikaveradi.

Ishimizda sodda gaplardan tashqari an 'anaviy tilshunoslikda «*qo 'shma gap*» termini bilan yuritilayotgan murakkab sintaktik qurilmalarning (MSQ) kauzativli derivatsiyasi xususiyatlarini yoritishni maqsad qilib qo 'ydik.

Mikromatn maqomida keluvchi MSQlarni turlarga bo 'lib, *teng komponentli* va *tobe komponentli* murakkab sintaktik qurilmalar sifatida o 'rganamiz. Teng komponentli MSQ komponentlari alohida tub strukturalarning mavqeyiga tayanadi. Ushbu tub strukturalar teng komponentli MSQ sintaktik derivatsiyasida har biri mustaqil gaplarni taqozo etuvchi operandlarning mazmuniy asosini tashkil etadi hamda bu tub strukturalar zahirida avval tayanch strukturalar, so 'ngra MSQning umumiy shakli voqelanadi:

*Bag 'dod xalifasi An-Nosirning Chingizxon ila olib borgan maxfiy muloqotlari o 'z mevasini bergan, yovuz mo 'g 'ullarning yuz o 'ttiz minglik*



*qo'shini saltanat hududlariga allaqachaon bostirib kirgandi* (N.Qobul.Buyuk Turon amiri yoxud aql va qilich).

MSQ sintaktik derivatsiyasida har biri mustaqil gaplarni taqozo etuvchi operandlarni ko'ramiz. Ushbu operandlarning birinchisining tub strukturasi turg'un birikma shaklidagi (*mevasini bergan*) vosita bilan, ikkinchi operandning tub strukturasi esa *bostirib kirgandi* tarzidagi analitik kauzatemaga orqali ifodalanmoqda. Mazkur derivatsion jarayonda shunga e'tibor berish kerakki, MSQ ikkinchi komponentining tub strukturasi kauzativ bo'lganligi uchun mavjud mikromatnning umumiy tuzilishi ham kauzativ qurilma hisoblanadi. Zotan, MSQ operandlari sabab va oqibat mazmuniy munosabati qurshovida yaxlitlanib, umumiy planda qo'zg'ash harakatini voqelantirmoqda. Mavjud kauzal hukmning ijrosi esa MSQ keyingi komponentining tub strukturasi kuzatilmoqda. To'g'ri, MSQ birinchi operandi alohida olinganda dekauzativ qurilma bo'lib, unda sabab va oqibat munosabati o'z ifodasini topmagan. Ammo u ikkinchi tarkibiy qism bilan sintaktik munosabatga kirishgandan so'ng kauzativ tipdagi mikromatnning sababiyat mazmunidagi generator maydoni operandiga aylanadi. Buning oqibati esa, o'z navbatida, qo'zg'ash alomatiga ega bo'lgan ikkinchi generator maydon orqali yuzaga chiqadi. Natijada generator maydonlar halqasi yaxlitlanib, murakkab sintaktik kauzativli qurilma (MSKQ), distributiv munosabat konnektori asosida, vujudga keladi. MSKQ operandlarining konnektori sifatida distributiv munosabat faoliyat ko'rsatishining sababi shundaki, murakkab sintaktik qurilma tarkibiy qismlarining, shu jumladan, bog'lovchisiz shakllangan murakkab sintaktik kauzativli qurilma komponentlarining o'zaro munosabati ularning mazmuniy salmog'i bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatishidir.

Sintaktik paradigma muchasi hisoblanuvchi teng komponentli murakkab sintaktik kauzativli qurilma tarkibiy qismlari real operator orqali ham derivatsion munosabatga kirishishi mumkin:

*Bu sinash natijasi Akram hojining taajjubini orttirdi va buning sirrini bilishka qiziqsindi* (A.Qodiriy. O'tkan kunlar).

Mazkur misolda teng komponentli MSKQ operandlarining teng bog'lovchi shaklidagi operator bilan derivativ munosabatga

kirishayotganining guvohi bo‘lamiz. Bunda MSQ komponentlarining birinchisida kauzativ situatsiya yuzaga kelmoqda. Ushbu situatsiyaning ro‘yobga chiqishi tub struktura tasarrufidagi fe’lning orttirma nisbati affiksi *-tir* bilan ifodalangan kauzaoperatorga bog‘liq bo‘lmoqda. Mazkur qo‘shimcha faqatgina MSQning birinchi tarkibiy qismini emas, balki mikromatnning umumiy mazmuniy salmog‘ini kauzativ bo‘lishiga xizmat qilmoqda. Chunki MSQ tarkibiy qismlarining biriga (ba‘zan ikkala qimiga ham) kauzaoperator qo‘shilgandan keyingina u kauzativ qurilma maqomini egallaydi. Qiyoslang:

*Bu sinash natijasidan Akram hojining taajjubi ortdi va buning sirrini bilishka qiziqsindi – Bu sinash natijasi Akram hojining taajjubini orttirdi va buning sirrini bilishka qiziqsindi – Bu sinash natijasidan Akram hojining taajjubi ortdi va buning sirrini bilish qiziqtirdi – Bu sinash natijasi Akram hojining taajjubini orttirdi va buning sirrini bilish qiziqtirdi.*

Bunda MSQ komponentlarining biri dekauzativ bo‘lsa ham, u kauzativli qurilmaning muchasi sifatida faoliyat ko‘rsata boshlaydi. Zero, dekauzativ operand endi mustaqillik maqomini yo‘qotgan bo‘ladi. Agar MSQ komponentlarining ikkalasi ham kauzaoperatorni qabul qilgan bo‘lsa, u holda ikki kauzativ situatsiya yaxlitlanib, ustkauzativlikni hosil qiladi. Ta’kidlash kerakki, kauzaoperator kauzaderivatsiyani vujudga keltiruvchi asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi va u dekauzativ struktura tarkibiga so‘zlovchining xohishiga qarab kiritiladi. Shu paytning o‘zidan boshlab, u birikkan MSQ kauzativli qurilmaga aylanadi. Natijada kauzativli MSQning sintaktik strukturasi ham o‘zgaradi. Jumladan, dekauzativli qurilmada birinchi darajali aktant maqomidagi so‘z kauzaderivatsiyadan so‘ng ikkinchi darajali aktant mavqeyini egallaydi. Buning dalilini yuqoridagi qiyoslash natijasida ham kuzatishimiz mumkin: *...taajjubi ortdi – ...taajjubini orttirdi; (u) qiziqsindi – (uni) qiziqtirdi* kabi.

To‘g‘ri, tahlil qilingan MSQ tipidagi mikromatn muchalari dekauzativ holatida ham ma’lum darajada sabab va oqibat qurshovida bo‘ladi. Lekin buni nisbiy tushunmoq darkor. Masalan, *Bu sinash natijasidan Akram hojining taajjubi ortdi – (sabab) va buning sirrini*

*bilishka qiziqsindi* (oqibat) kabi. Buning sababi, mazkur teng komponentli MSQning sabab ma'nosini ifodalovchi tobe komponentli kauzativli MSQ bilan ma'nodoshlik hosil qilayotganidadir: *Akram hojining taajjubi ortdi, shuning uchun buning sirrini bilishka qiziqsindi*. Garchi shunday bo'lsa-da, teng komponentli MSQ operandlari dekauzativ holatda qo'zg'ash mazmuni bilan bog'lanmaganligi tufayli biz uni kauzativ deb baholay olmaymiz. Zero, kauzativ vaziyatda ham sabab va oqibat, ham qo'zg'ash alomatlari kuzatilishi shart deb bilamiz. Nega unda sabab mazmunidagi tobe komponentli MSQlar kauzativli qurilma sifatida talqin etiladi degan savol tug'ilishi tabiiy. Birinchidan, teng komponentli MSQ dekauzativ operandlari mantiqiy rejadagina sabab va oqibat qurshovida gavdalanmoqda, ikkinchidan, ushbu operandlar teng bog'lovchi shaklidagi operator bilan derivatsion munosabatga kirishmoqda. Shu bois biz uni real sabab mazmuniy munosabati bilan aloqador deb ayta olmaymiz. Sabab ma'nosini beruvchi tobe komponentli MSQ operandlari esa *chunki, negaki, shuning uchun, shu sababli, shu tufayli* kabi operatorlar yordamida sintaktik munosabatga kirishadi. Bular kauzaoperatorlar bo'lib, tobe komponentli MSQning ikki muchasini kauzal ma'no og'ushida faollashtiradi. Shu bois bunday mikromatnlarni kauzativ qurilma deyishga haqlimiz.

Tobe komponentli MSQlar derivatsiyasi uning tarkibiy qismlarining yagona tub struktura zamirida voqelanishiga ko'ra teng komponentli MSQlardan tubdan farqlanadi. Zotan, bunda xabar ifodasi murakkab sintaktik qurilmaning hokim operandi orqali yuzaga chiqadi. Bu vaziyatda tobe qism ham hokim komponentning tub strukturasi asoslanadi. Lekin bu bilan tobe komponentning imkoniyati cheklangan va u hech qanday vazifa bajarmaydi deb tushunmaslik kerak, albatta. Ayni paytda hokim gap nechog'lik mustaqil bo'lishiga qaramay, sintaktik derivatsiya jarayoni tobe gapning ishtirokisiz amalga oshmaydi. Boshqacha aytganda, derivativ munosabatning amalga oshishi, jumladan kauzderivatsiyaning ham, tobe komponentli MSQning ikki operandiga birdek bog'liqdir. Masalan, kauzaderivativ vaziyatda undash ma'nosi MSQning hokim gap maqomidagi operandi orqali ham, tobe shakldagi komponenti bilan ham ifodalanishi mumkin. O'z-oz'idan, undash

ma'nosidan xoli bo'lgan tarkibiy qism mazmunan kauzal qism bilan yaxlitlikni tashkil etishi, tabiiy.

Tobe komponentli kauzativ MSQ operandlari sabab mazmuni og'ushida derivativ munosabatga kirishishidan tashqari *aniqlash, izohlash, maqsad, to'siqsizlik, natija* kabi mazmuniy rejalarda ham faollashishi mumkin. Bu vaziyatda tobe komponentli mikromatnning kauzativ struktura ekanligi MSQ voqelanayotgan generator maydonida uning semantik planda undash harakati bilan aloqadorligiga qarab aniqlanadi. Lekin shunday bo'lsa ham, operandlar o'rtasida ma'lum darajada sabab va oqibat munosabatlari aks etadi:

*Aql va vijdonim qaysi yo'ldan boshlasa, o'sha yo'lga kiraman* (Oybek. Nur qidirib).

Ushbu misolimiz semantik jihatdan qismlarining birinchisida undash ma'nosi orqali ifodalanayotgan kauzal harakatning ikkinchisida aniqlanishini bildirayotgan tobe komponentli MSQ bo'lib, bunda kauzativ ma'no tobe qism tasarrufida kelayotgan *bosh+la(+sa)* tarzidagi derivatema bilan ifodalanmoqda. Mazkur forma yasama fe'lga III shaxs ko'plikda tuslanayotgan shart mayli qo'shimchasi *-sa* ning birikuvidan hosil bo'lgan kauzatemaga bo'lib, u mikromatnning umumiy semantik strukturasini kauzativ rejada voqelantirmoqda. O'z navbatida, mustaqil hisoblanuvchi hokim komponent ham mazmunan kauzativ maydon qurshoviga tushib qolmoqda. Zero, undash harakati (*bosh+la+sa*) amalga oshgandan so'nggina uning aniqlanishi natijasi (*o'sha yo'lga kiraman*) ro'yobga chiqadi.

Shuni aytish kerakki, an'anaviy sintaksisda aniqlovchi ergash gapli qo'shma gaplarda tobe gap tomonidan bosh gapning ot yoki olmosh bilan ifodalangan biror bo'lagi mazmunan aniqlanadi deb ta'kidlanadi. Ammo kauzal qonuniyatga ko'ra amalga oshayotgan qo'zg'ash harakati aniqlanadi.

Sintaktik jihatdan ham MSQning ikki qismi fe'lning shart mayli shakli *-sa* operatori bilan derivativ munosabatga kirishayotgani bois birinchi operand o'z mustaqilligini tark etmoqda va MSQning ikkinchi komponentidagi tub strukturaga bo'ysunmoqda. Natijada aniqlash mazmuni bilan aloqador bo'lgan tobe komponentli kauzativli qurilma

vujudga kelmoqda. Bunda aniqlash mazmunini *o'sha* olmoshi yuzaga chiqarayotgan bo'lsa, kauzativ mazmuni undashni yuzaga chiqarayotgan *boshla* so'zi ifodalamoqda. Voqelanayotgan tobe komponentli murakkab sintaktik kauzativli qurilmada mavhum tushunchalar asosidagi kauzatorning insonga psixologik ta'siri oqibatida yuzaga kelgan permissivlikni kuzatamiz, chunki mazkur holatda o'zgarish sodir bo'lishining asosiy sababchisi kauzatsiyalanuvchi referent hisoblanadi, kauzator esa harakat ijrosiga ruxsat beradi.

Ba'zan nutq vaziyatiga ko'ra tobe komponentli MSQning operandi tasarrufidagi tub struktura yoki fe'lda orttirma nisbat qo'shimchasi ishtirok etsa ham, u kauzaoperator sifatida vazifa bajarmaydi. Bir qaraganda, bunday qurilma kauzativ bo'lib ko'rinsa-da, aslida u dekauzativ hisoblanadi:

*Habibulla aka otalari ishini qanday ixlos bilan davom ettirgan bo'lsalar, u kishining ishlarini o'g'illari Xondamir va Sherkon ham shunday davom ettirdilar* (Sh.Qodiriy. 37-xonadon).

Ko'rinadiki, MSQning ikkala qismida ham orttirma nisbat affiksini olgan qo'shma fe'l shaklidagi bir xil analitik vosita mavjud bo'lib, mazkur vosita mikromatnni kauzativ qurilma sifatida voqelantira olmayapti, chunki bunda birinchi darajali aktant vazifasidagi referentlarning ish-harakatni bajarishni boshqa individga yuklagani kuzatilmaydi. Aniqrog'i, ular kauzator maqomiga erishmagan. Agar *davom etdi* va *davom ettirdi* fe'llarini alohida olib tahlil qilganimizda, morfologik planda ulardan orttirma nisbat qo'shimchasini olgani kauzativ hisoblanar edi. Ammo yuqoridagi misolda, garchi orttirma nisbat qo'shimchasini olgan analitik vosita qatnashayotgan bo'lsa-da, kauzator va kauzant munosabati anglashilmaydi. Shu bois bunday qurilmalarni *kvazikauzativ* (*quasi*–lotincha «*go'yo, xuddi*») deb ataymiz.

Kauzativlik makromatnda ham o'z ifodasini topishi mumkin. Kauzal matnlar ham bir komponentli va ko'p komponentli kabi turlarga bo'lib tahlil qilinadi. Ammo bir komponentlilikni nisbiy tushunmoq darkor. Masalan, kauzal matn bir komponentli bo'lib shakllangandek ko'rinsa-da, aslida vaziyat buni taqozo etmaydi. Zotan, kauzativ jarayon X (kauzator) – Y (kauzant)– Z (konsekvent – semantik xulosa) tarzida voqelanar ekan,

unda doim ko'pkomponentlilik alomati kuzatiladi. Jumladan, Hamza Niyoziy she'rlaridan birining nomi «Uyg'on» bo'lib, u shaklan bir komponentli matnga teng. Ammo unda direktiv kauzatsiya amalga oshayotganligi bois «Sen uyg'on» tarzidagi kauzativatsiyani tushunamiz. Bundan tashqari, fe'ldan iborat bo'lgan buyruq ko'rinishidagi bir so'zli kauzativ matnlar tushangan formada qo'llangani uchun, kauzativ vaziyatda uch shaxsdan biri ishtirok etayotgani izoh talab qilmaydi. O'z navbatida, kauzativ vaziyatda ishtirok etayotgan shaxs kauzativ vaziyat kauzatori tomonidan kauzatsiyalanayotganini ham inkor etib bo'lmaydi. Shuning uchun bunday ko'rinishdagi matnlarni shartli ravishda bir komponentli deb izohlaymiz. Ikki yoki uch komponentli kauzativ matnlar jumlasiga «Yig'la, Turkiston», «Qalbingga quloq sol» kabi asarlar nomlarini kiritishimiz mumkin.

Ta'kidlash joizki, asar nomlarini ifodalab kelayotgan kauzativ matnlar avval tahlil qilingan MSQ tarzidagi mikromatnlardan hajman kichik bo'lsa-da, ularning nufuzi, yaxlit mustaqil matnni ifodalashiga ko'ra, komponentlari bir necha so'zdan iborat bo'gan MSQ tarzidagi matnlardan baland bo'ladi. Shunga ko'ra, ular semantik planda makromatn maqomida turadi. MSQlar shaklan katta bo'lishiga qaramay, muayyan matn muchasi hisoblanadi. Shuning uchun ham ularni matn ichidagi mikromatn sifatida tahlil qilamiz:

*Olloh ko'ngilga joylag'on niyatlarni ado etmak lozim. Niyatni ham O'zi ardoqlag'on bandalariga ravo ko'radur... Necha yildirki, Xitoyga safar qilmak niyatidasen. Valiahd shahzoda Muhammad Sultonni atay Mo'g'uliston sarhadiga yubordingki, toki qal'ani mustahkamlasun, deb* (M.Ali. Ulug' saltanat. To'rtinchi kitob).

Berilgan abzas shaklidagi makromatn tarkibiy qimlari uchta sodda gapni (dekauzativli qurilmalarni) va bitta tobe komponentli murakkab sintaktik kauzativli qurilmani tashkil etadi. Ushbu kauzativ qurilmaning tub strukturasi yaqin o'tgan zamon II shaxs birlikda tushangan analitik kauzatemata formasidan iborat. Bunda kauzator tomonidan amalga oshirilayotgan kauzatsiyada kauzantning ma'lum bir obyektga yo'naltirilishi o'z ifodasini topmoqda. O'z navbatida, MSQning tobe qismida derivatemaga asoslangan kauzatemata (*mustahkam+la+sun*)

yo'naltirish harakatining nima maqsadda amalga oshayotganini izohlab kelmoqda. Kauzal harakatning nima maqsadda amalga oshayotgani faqatgina kauzatemalar orqali yuzaga chiqmaydi, albatta. Ushbu ma'noning ifodasida sintaktik operatorlarning ham (*toki, deb*) ahamiyati katta.

Mavjud tobe komponentli kauzativli MSQning o'zi alohida olinganda mikromatnlik maqomini yo'qotmaydi. Biroq u o'zi birikib kelayotgan butun matnga kauzativlik tusini bera olmaydi. She'riy asar sarlavhasi bo'lib shakllangan bir tarkibli kauzal matnlar esa o'zi nomlab kelayotgan asarning (makromatnning) bayon qismini ham kauzativ bo'lishini ta'minlay oladi. Masalan, yuqorida tilga olingan «Uyg'on» sheridan parcha keltiramiz:

*Uyg'on, uyg'onmoq davrida Turkiston,  
Yasha Turkiston, omon, omon, omon!  
Yashasun maktab, shogirdlar o'qisun,  
Eski turmushlar, vahshatlar yo'qolsun!  
Er-u qizlardan yetishib xodimlar,  
Elga haqiqiy maorif tarqatsun!*

Bu maxsus qo'llanayotgan bir so'zdan iborat bo'lgan kauzal matnning mavqeyi kauzativ MSQdan baland ekanligidan dalolat beradi. Nasriy asar nomi kauzal matn bo'lib kelganda («Shoshma, quyosh»), u asarning bayon qismiga kauzal tus bera olmaydi, biroq uning ma'nosi orqali asarning mantiqiy xulosasi kauzativ ekanligi anglashiladi.

Bir so'zdan, gapdan yoki murakkab sintaktik qurilmadan iborat bo'lgan kauzal matnlar mikroarakterli bo'ladi. Abzas, paragraf va undan-da katta nutq birliklari makromatn hisoblanadi<sup>1</sup>. Mazkur matnlar shakllanishi pog'onali munosabat qonuniyatiga amal qilgani bois abzas o'zidan kattalariga nisbatan mikromatn mavqeyida turadi. Abzas sintaktik hodisani taqozo etadi. Buning dalilini birdan ortiq mustaqil gaplarning yoki murakkab sintaktik qurilmalarning o'zaro sintaktik munosabati abzas shakllanishiga olib kelishida bevosita kuzatish mumkin<sup>2</sup>. Ushbu

---

1. Bu haqda qarang: Турниёзова Ш.Н. Матн деривацияси//Ўзбек тили деривацион синтаксиси. -Тошкент: Наврўз, 2011, 129-бет.

2. Turniyozova Sh.N. Ko'rsatilgan asar, 136-bet.

sanab o'tilgan makromatnlardan faqat abzasgina to'lig'icha kauzativ xarakterli bo'lib voqelanishi mumkin:

*Qalq, ey mardlar o'lkasi, Bobo Turon! Yuksal, ey Turon yeri,  
tog'lari! To'lqinlan, ey Sayhun va Jayhun! Yasha va yashna ona yer  
bo'z qirlari! Yovqur arslonlaring tulporlari dupuridan larzaga kel,  
Alp Er To'nga ot surib o'tgan ona yurt kengliklari!  
Qayna va jo'sh Vatanning turnako'z buloqlari, billur chashmalari!  
Yaproq yoz, chechakka burkan ota yurt bog'lari, gulzorlari!  
Ulug' xaqonlaring davridagi shon-shavkatingni tiklaguvchi,  
alpqomat qaddingni rostlaguvchi asl farzanding – Buyuk Amir  
Temuruing – kelayotir!* (N.Qobul. Buyuk Turon amiri yoxud aql va qilich)

Darhaqiqat, keltirilgan matndan butun bir abzasning kauzativ rejada shakllana olishining guvohi bo'lamiz. Bu o'rinda shuni ta'kidlash kerakki, mazkur abzas nasriy she'rni taqozo etadi. Demak, kichik hajmli asarlar ham kauzativ ma'noda voqelanishi mumkin, degan xulosaga kelamiz. Zero, havola qilayotgan matnimiz kauzativ abzaslar yig'indisidan tashkil topgan saj' san'ati asosidagi asar namunasi hisoblanadi. Ushbu kauzativ strukturali makromatnning tarkibiy qismi yettita sodda gap ko'rinishidagi kauzativ va bitta dekauzativ qurilmadan iborat.

Kauzativ abzasdan iborat makromatn ham derivativ jihatdan ma'lum bir tayanch strukturaga tayangan holda shakllanadi. Abzasning tayanch strukturasi vazifasini uning tarkibiy qimlaridan biri o'taydi. Jumladan, yuqorida keltirilgan kauzativ abzasning tayanch strukturasi uning birinchi komponenti hisoblanadi. Chunki ma'lum bir obyektga qaratilgan kauzativ harakat ifodasi shu operand asosida voqelana boradi. O'z navbatida, derivatsiya operatsiyasi operatorsiz amalga oshmaydi. Mazkur kauzativ abzasning operatori sifatida *Turon* so'zi faoliyat ko'rsatmoqda. Zero, uning vositasida abzas operandlarining barchasi faollasha boradi. Fikrimizni shu so'z sinonimlarining abzas komponentlarida ketma-ket qo'llangani bilan dalillay olamiz va ushbu matn tarkibiy qismlarining sintaktik munosabati sinonimik vositalarga tayanganini ko'ramiz.



Kauzativ abzasning sintaktik derivatsiyasi operatori sifatida *Turon, Vatan, ota yurt, ona yer, o'lka* kabi vositalarning kelishini uning tarkibiy qismlarining turli xil operatorlar yordamida derivativ faollik olishi deb tushunmaslik kerak, negaki sinonimik qatorni tashkil etayotgan ushbu soʻzlar bir tushunchani ifodalashga xizmat qilmoqda. Ammo mazkur makromatnning kauzativ derivatsiyasiga eʼtibor qaratadigan boʻlsak, operandlarning *qalq, yuksal, toʻlqinlan, yasha, yashna, larzaga kel, qayna, joʻsh, yaproq yoz, burkan* kabi turli xil kauzaoperatorlar yordamida kauzativ maʼno kasb etayotganini kuzatamiz. Ushbu kauzaoperatorlar kauzator va kauzant munosabatida turli xil kauzativ maʼnolarni ifodalashga xizmat qiladi. Bunda implitsit belgiga ega boʻlgan kauzatorning bir necha kauzantni faollashtirayotganini va umumiy planda mazkur abzasning faktivlikka tayanayotganini koʻramiz. Abzasning dekauzativ komponenti esa uning kauzativ komponentlarining sababi sifatida gavdalanmoqda.

Katta hajmli kauzativ matnlarda kauzatorning qoʻzgʻash faoliyati mazmunan butun matnni qamrab oladi. Shu bois mazkur vaziyatni makrokauzatsiya deb ataymiz. Jumladan, yuqoridagi holatda yuz berayotgan kauzatsiyada obyekt tasarrufidagi obyektlar ham bosqichma-bosqich faollashtirilmoqda. Bu, oʻz navbatida, I.A.Melchuk asos solgan «Mazmun↔matn» modelida roʻyobga chiqadi<sup>1</sup>. Aytaylik, soʻzlovchi, ayni paytda kauzator, fikrini tinglovchiga yetkazish yoki kauzal amalni yuzaga chiqarish maqsadida, dastavval, ongida shakllanayotgan freymlar majmuyidan foydalanadi. Bu esa shakllanishi kerak boʻlgan xabar ifodasi komponentlarining oʻzaro semantik bogʻlanishini taqozo etadi. Zero, har bir shaxs ongida «freymlar» toʻplami mavjuddir, ushbu toʻplam bilim va idrok faoliyatini maʼlum koʻrinishdagi «andozalar» asosida amalga oshirishni taʼminlaydi<sup>2</sup>. Mazkur holatda, taʼkidlanganidek, «mazmundan matnga» qoidasi asosida ish koʻriladi. Boshqacha aytganda, til maʼnolarni mos keladigan matnlarga, berilgan matnlarni esa tegishli maʼnolarga muvofiqlashtirishga xizmat qiladi.

---

1. Bu haqda qarang: Мельчук И.А. Опыт теории лингвистических моделей «Смысл↔текст». -М.: Наука, 1974.

1. Qarang: Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. -Жиззах: Сангзор, 2006, 41-бет.

Shuni aytish kerakki, kauzal matnlarda kauzaoperatorlar kauzativ bo‘g‘imlarni semantik hamda sintaktik rejada bog‘lab turuvchi unsurlar hisoblanadi. Aniqrog‘i, ular kauzativ elementlar o‘rtasidagi mantiqiy-sintaktik aloqani ta‘minlab beruvchi vositalar vazifasini bajaradi. Kauzativ komponentlar o‘rtasidagi ana shunday munosabat jarayonini kauzaderivatsiya deb ataymiz. Ko‘rib o‘tilgan materiallardan tashqari, matnning kauzativ rejada shakllanishida kauzativlikning direktiv ifodasi ham o‘z aksini topadi. Bu farmoyish hujjatlari yoki oddiy so‘zlashuv nutqida ham yuzaga chiqishi mumkin:

*So‘zimni muxtasar etib, muhtaram xonimiz ila imzo chekkanimiz saltanatning ilk farmonlarini o‘qurmen. Ma‘lumingizdek, amir Murod Barlos Samarqand hokimi etib tayinlansun! Sari Bug‘a, Husayn Barlos, Oq Bug‘a, Hoji Mahmudshoh, Elchi Bahodir va Davlatshoh baxshilar devonbegi etib tayinlansunlar! ...Barcha o‘lka-yu muzofotlarda, qabasa va qishloqlarda masjid-u madrasalar va xonaqolar bo‘lishi ta‘minlansun! G‘arib-u g‘urabolar uchun maxsus langarxonalar, bemorlar uchun shifo maskanlari barpo etilsun! Hech bir yerda yangi soliqlar joriy etilmasun! Hokimlik, amirlik, mingboshilik va qozilik lavozimlariga faqat el imtihonidan o‘tib, yurt mehrini qozongan qobiliyatli, yuksak insoniylik fazilatiga ega bo‘lgan kishilar qo‘yulsin!* (N.Qobul. Buyuk Turon amiri yoxud aql va qilich)

Berilgan kauzal matnda yuzaga chiqayotgan diktema buyruq ohangidagi undash mazmunini taqozo etadi. Kauzal matnning mazkur mazmunni kasb etishi uni sintaktik hamda semantik planda shakllantiruvchi kauzal bo‘g‘imlarga asoslanadi. Bunda kauzal bo‘g‘imlarni bir xil kauzal formadagi grammatik ko‘rsatkichga ega bo‘lgan kauzatemalar shakllantirmoqda. Shunday ekan, ushbu kauzatemalarni matn sintaktik derivatsiyasining operatori sifatida belgilay olamiz. Buyruq-istak mayli ko‘rsatkichi *-sun (-sin)* kauzaoperator sifatida faoliyat yuritmoqda. Umuman, sintaktik butunlikni taqozo etuvchi kauzal bo‘g‘imlar tartibi matn komponentlarini sintagmatik qatorda voqelanishida asosiy sintaktik vazifani o‘taydi. Prof. I.P.Susov ta‘kidlaganidek, murakkab sintaktik konstruksiyalarda gaplar tartibi komponentlarning sintaktik munosabatini ta‘minlashga xizmat

qiladi. Boshqacha aytganda, gaplar tartibi *konstituent* (iyerarxik sistema uzvlari) maqomida keladi<sup>1</sup>.

Biz tahlil qilayotgan kauzativ matnlarda faktiv situatsiyalar yoritilayotgan bo‘lib, ularda faol kauzatorning funksiyasi kuzatilmoqda. Kauzativ matnlar kauzatsiyaning permissiv turida ham shakllangan bo‘ishi mumkin:

*Aka, bugun biz bu jerda turayik,  
Erta bilan bir maslahat qilayik,  
To‘qson otga to‘qsonimiz minayik,  
To‘qson sovut yarashiqqa kiyayik,  
Erta bilan Boysariga borayik,  
Boysarini borib gapga solayik,  
Barchin qizin o‘rtamizg‘a ob chiqib,  
Saylov bilan birovimiz olayiq! (Alpomish)*

Ko‘rib turganimizdek, kauzativlikning mazkur turida kauzant kauzatoridan vaziyatni faollashtirishga, ya‘ni o‘zini kauzatsiyalashga ruxsat so‘ramoqda. Bunda kauzativatsiyaning amalga oshishiga kauzator yo ruxsat berishi, yoki to‘sqinlik qilishi kerak bo‘ladi. Boshqacha aytganda, permissivlikda kauzal amalning ro‘yobga chiqishining asosiy sababchisi kauzatsiyalanishi kerak bo‘lgan individ hisoblanadi. Bu vaziyat ham distantli holatda namoyon bo‘lmoqda. Matn kauzaderivatsiyasining kauzal bo‘g‘imlari fe‘lning buyruq-istak mayli I shaxs ko‘plikdagi formasi bilan ifodalanayotgan kauzaoperatorlarga tayangan holda voqelanmoqda. Matn sintaktik derivatsiyasining tayanch strukturasi bo‘lib uning ikkinchi komponenti kelmoqda. *Boysari* so‘zi esa sintaktik operator sifatida vazifa bajarmoqda.

Ana shu tarzda makromatnda kauzativlikning voqelanishini kuzatamiz. Umuman, obyektiv ravishda mavjud bo‘lgan sabab va oqibat munosabatlari inson tafakkurida mantiqiylikning sababiyat formasi asosida aks etadi so‘ngra tildan lingvistik kauzatsiya vositasi orqali nutqda faollashadi.

---

1. Qarang: Сусов И.П. Введение в теоритическое языкознание. Модуль 5. Основы общего смntaxиса. Средства выражения синтаксических связей и функций. [http://homepages.tversu.ru/~ips/5\\_02.htm](http://homepages.tversu.ru/~ips/5_02.htm) (Sahifaga 25.11.2020 da murojaat etildi).

## XULOSA

O‘zbek tilshunosligi taraqqiyotining bugungi davrida uning kognitiv tilshunoslik, pragmatik tilshunoslik, gender tilshunoslik, matn tilshunosligi, kompyuter tilshunosligi, korpus tilshunosligi, struktur tilshunoslik kabi qator yo‘nalishlari shakllandiki, mazkur yo‘nalishlar zamirida olib borilgan tadqiqotlarda lingvistik mohiyatlarning turli tomonlari tahlil etildi va har bir yo‘nalishning xulosalarida tadqiqotchilar tomonidan ko‘zda tutilgan maqsad va vazifalar imkon qadar to‘g‘ri hal qilishga harakat qilindi. O‘z navbatida, lingvistika yo‘nalishlarining har biri tadqiq usullari va metodologik asoslariga ega bo‘lib, o‘zining ilmiy yutuqlari bilan ajralib turadi. Hazrat Navoiy: «...*Kimki bu vodiya bo‘ldi muttasif, Topdi onda hollarni muxtalif. ...Yuz tuman rahrav ko‘rarsen beqaror, Har biri bir yo‘lni aylab ixtiyor...*», - deganlaridek, mazkur jarayonni obrazli tarzda shunday baholasak bo‘ladi.

Olim va fuzalolarga taqdim etilayotgan ushbu monografiyada ham tilshunosligimizning hali tadqiq etilishi kerak bo‘lgan sohalaridan biri *kauzatologiya* ga oid mavzulari yoritilgan bo‘lib, undagi masalalar tavsifi o‘zbek tilshunosligida kun tartibiga endi qo‘yilmoqda.

Kauzativlik tushunchasi, umuman, tilshunoslikda o‘rganilgan bo‘lsa-da, amalga oshirilgan ishlardagi masalalar tavsifi yaxlit sohaga birlashtirilmagan. Boshqacha aytganda, ulardagi mavzularda kauzativlik ana’anaviy tarzda tillar qiyosida o‘rganilgan yoki faqat kauzatsiyaning bir ko‘rinishigina izohlangan, xolos.

Taqdim etilayotgan ishda o‘zbek tili materiallari asosida mikro- va makrokauzativ qurilmalarning, jumladan, so‘z, ko‘makchi fe‘lli so‘z qo‘shilmalari, sodda gap, MSQ (murakkab sintaktik qurilma), makromatn shaklidagi kauzativli konstruksiyalarning, leksik va semantik kauzatsiyaning derivatsion xususiyatlari, mental kauzatsiya masalasi yoritilgan bo‘lib, tilshunoslikda kauzatologiya sohasining mavjudligi ilmiy asoslandi. Monografiya boblarida qalamga olingan masalalar asosida material to‘plansa, kelgusida katta tadqiqot ishlarining mavzulari sifatida xizmat qilishi mumkinligini nazarda tutib, ularning ayrim tomonlariga maxsus to‘xtalmadik.

## Ismlar va predmet ko'rsatkichi

### A

Abu Ali ibn Sino – 7  
Adnektor – 77, 78, 82, 83  
Adresiv kauzatsiya – 68  
Affekt – 32  
Affiks – 53, 54, 55, 56, 57, 58, 59,  
67, 71, 72, 74, 84, 85, 86, 88, 91  
Analitik kauzatema – 70, 72, 73,  
74, 76  
Analitik vositalar – 68, 71, 75  
Antetsedent – 37, 40  
Antronokos – 7  
Apresyan V.Y. – 34  
Aristotel – 7, 28  
Arno A. – 38  
Arutyunova N.D. – 26  
Atilla – 16, 18  
Audial filtr – 29

### B

Bennett J.F. – 26  
Boduen de Kurtene I.A. – 45  
Boldirev N.N. – 14  
Budagov R.A. – 75

### D

Dekart R. – 5  
Demyankov V.Z. – 26  
Deontiv kauzatsiya – 30  
Derivativ generatsiya – 74  
Derivatsion qonuniyat – 51, 53  
Digital filtr – 29

Distantli kauzatsiya – 34, 85  
Dubrovskiy D.I. – 5

### E

Emotiv – 4, 29, 30, 31, 32, 33, 34,  
36  
Emotiv kauzatsiya – 32, 33, 36  
Episemion – 47, 73, 74, 77

### F

Faktivlik – 73, 77, 95  
Fortunatov F. – 45  
Funksional transpozitsiya – 77

### G

Gak V.G. – 26  
Gaptika – 31  
Gastika – 31  
Globallashuv – 11, 12  
Gologramma – 39, 40  
Grammema – 56

### H

Hasanov E.R. – 49  
Hodisaviylik – 26, 38, 39, 44  
Hodisaviylik – 26, 38, 39, 44  
Hojiyev A. – 47

### I

Ifoda-mazamun – 25, 27

## **J**

Jeyms U. – 28

## **K**

Kamalova A.A. – 28

Kasnelson S.D. – 26, 78

Kauzaderivatsiya – 25, 45, 48, 51, 57, 66, 88, 96, 97

Kauzal mexanizm – 40, 41

Kauzant – 9, 11, 25, 27, 29, 30, 31, 32, 33, 35, 36, 40, 61, 62, 63, 66, 67, 68, 69, 70, 71, 73, 77, 80, 81, 82, 83, 91, 92, 95, 97

Kauzant – 9, 11, 25, 27, 29, 30, 31, 32, 33, 35, 36, 40, 61, 62, 63, 66, 67, 68, 69, 70, 71, 73, 77, 80, 81, 82, 83, 91, 92, 95, 97

Kauzaoperand – 40, 42, 54, 61

Kauzaoperator – 40, 42, 44, 52, 53, 54, 58, 60, 61, 62, 63, 64, 66, 74, 85, 86, 88, 89, 91, 95, 96, 97

Kauzatem – 44, 52, 53, 54, 57, 58, 59, 60, 61, 64, 65, 66, 67, 68, 69, 70, 71, 72, 73, 74, 76, 77, 84, 85, 86, 87, 90, 92, 93, 96

Kauzativ abzas – 94, 95

Kauzativ matn – 92, 95, 97

Kauzativ munosabat – 36, 37, 41, 65, 70, 71, 74

Kauzativ situatsiya – 31, 32, 36, 40, 42, 57, 60, 61, 64, 71, 78, 80, 84, 88

Kauzativatsiya – 38, 39, 44, 65, 66, 69, 71, 72, 78, 79, 80, 82, 84, 92, 97

Kauzatologiya – 48, 98

Kauzator – 27, 29, 30, 31, 32, 34, 35, 36, 37, 40, 54, 61, 62, 63, 64, 65, 66, 67, 68, 69, 70, 71, 72, 73, 77, 79, 80, 81, 82, 83, 91, 92, 95, 97

Kauzatsiya – 4, 5, 6, 7, 8, 9, 11, 12, 23, 25, 26, 27, 28, 29, 30, 31, 32, 33, 34, 35, 36, 37, 40, 41, 42, 43, 44, 45, 48, 51, 53, 54, 55, 57, 58, 61, 64, 66, 67, 68, 69, 70, 71, 72, 75, 80, 81, 85, 91, 92, 95, 97, 98

Kauzatsiyalovchi shaxs – 40, 57

Kinesika – 31

Kinestetik filtr – 29

Konsekvent – 25, 27, 35, 37, 38, 40, 41, 73, 80, 91

Konstanta – 40, 57, 58, 60, 64, 67, 71, 72

Kontaktli kauzasituatsiya – 64

Konversiv – 37

Kovariatsion munosabat – 41

## **L**

Lanslo K. – 38

Leksik kauzatsiya – 48, 51

Levitov N.D. – 32

Ligeti L. – 15

## M

Mahmud Koshg'ariy – 45  
Mahmud Zamazshariy – 45  
Makromatn – 91, 92, 93, 94, 95,  
97, 98  
Makrosituatsiya – 57, 58  
Markaziy Osiyo – 13, 15  
Maslov Y.S. – 51  
Melchuk I.A. – 27, 95  
Mental kauzatsiya – 5, 6, 7, 8, 9,  
11, 98  
Millat – 8, 10, 12, 15, 24  
Mimika – 31  
Mirzo Mehdixon – 45  
Morfologik kauzatsiya – 51, 55, 67  
MSQ – 86, 87, 88, 89, 90, 91, 92,  
93, 98

## N

Nominativ birlik – 26, 43, 44

## O

Odorika – 31  
Okulesika – 31  
Operatopr – 60, 61, 62, 63, 64, 65,  
66, 68, 69, 71, 72, 73, 74, 76, 77,  
78, 79, 85, 86, 87, 88, 89, 90, 91,  
93, 94, 95, 96, 97  
Oppozitiv holat – 59

## P

Paducheva Y.V. – 33  
Platon – 7, 28  
Psixoemotsional holat – 30

Psixofiziologik factor – 30  
Psixologik-bixevioristik  
kauzatsiya – 43  
Psixologiya – 11, 24

## Q

Qahhor A. – 23

## R

Rahimov A. – 45  
Ramstedt M.G.S. – 14  
Referent – 68, 81, 91  
Refleksiv – 61, 86  
Relyator – 47, 74  
Ruhiv holat – 5, 7, 54  
Rustamov A.R. – 45

## S

Sabab va oqibat – 26, 32, 37, 38,  
39, 44, 78, 79, 80, 87, 88, 89, 90,  
97  
Sabitova Z.K. – 12  
Semantema – 56  
Semantik kauzatsiya – 25, 28, 37,  
44, 98  
Semion – 47, 48, 72, 73, 74  
Sintaktik kauzatsiya – 75, 81  
Sirkonstativ kauzatsiya – 43  
Smirnitskiy A.I. – 46  
Sossyur F. de – 51  
Substrat – 12, 14  
Superstrat – 13  
Susov I.P. – 96

**T**

Taksin V.S. – 15  
Tarasova O.D. – 28  
Tatevosov S.G. – 26  
Tenishev E.R. – 15  
Til kauzatsiyasi – 11  
Tojiyev Y. – 47  
Transformatsiopl – 76, 77  
Tub struktura – 78, 79, 80, 81, 82,  
84, 85, 86, 87, 88, 89, 90, 91, 92  
Turkiy – 10, 11, 12, 13, 14, 15, 16,  
17, 18, 19, 20, 21, 22, 29, 45, 61

**U**

Umarxo‘jayev M.I. – 25  
Ural-Oltoy – 21

**V**

Velichkovskiy B.M. – 26  
Verbal – 31, 32  
Vinogradov V.V. – 46  
Vinokur G.O. – 46  
Vizual filtr – 29

**X**

Xunlar – 14, 15, 16, 18, 21  
Xusainov N.N. – 17

**Y**

Yakubova N.K. – 56  
Yakubova N.K. – 56

**O‘**

O‘rta Osiyo – 7, 8, 9, 21

**G‘**

G‘ulomov A. – 46

**Sh**

Sharden P.T.de – 55  
Shaxmatov A.A. – 46  
Shaxovskiy V.I. – 28  
Shipova Y.N. – 17  
Shiratori – 14  
Shleyxer A. – 6



## ADABIYOTLAR

1. Bennett J.F. Events and Their Names//Philosophy in Review, Vol. 9, no. 6,1, pp. 215-7.
2. Bulletin de l'Academie Imperiale des Sciences de S.-Petersburg. V. Serie. Bd. XVII. №2.
3. Fitrat A. Tilimiz//Ishtirokiyun. 1919, 12-iyun; Zohiriy A. Til va imlo masalasi//Qizil O'zbekiston. 1929, 29-mart.
4. <https://edprodpo.com/6-vidov-filtrov-vospriyatiya-informatsii> (Sahifaga 29.11.2023 da murojaat etildi).
5. <https://rosuchebnik.ru/material/kto-stroil-velikuyu-kit> (Sahifaga 10.10.2023 da murojaat etildi).
6. Ligeti L. Mots de civilisation de Haute Asie en transcription chinoise//Acta Orientalia, 1950.
7. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati. -Toshkent: Universitet, 2000.
8. Ramstedt M.G.S. Über der Ursprung der türkischen Sprache. Helsinki, 1937.
9. Saidov Sh.J. Markaziy Osiyo xalqlari tarixi. -Toshkent: Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2010.
10. Shiratori K. Über die Sprache der Hiungnu und der Tanghu-Stämme. St. Pb., 1902.
11. Turabov A.M. Kichik sintaksis muammolari//Filol. fan. dok. diss. avtoref. -Samarqand: SamDCHTI, 2023.
12. Turniozov B.N. Kauzativ qurilmalar sintaktik derivatsiyasi. -Samarqand: SamDCHTI, 2022.
13. Turniozov N.Q. Xorijiy mamlakatlar lingvistik nazariyalari. -Samarqand: SamDCHTI, 2007.
14. Абдиев Т. Конструкции с каузативными глаголами в киргизском языке. -Бишкек: Манас, 2009.
15. Апресян В.Ю. Семантика эмоциональных каузативов: статус каузативного компонента// В кн.: Компьютерная лингвистика и интеллектуальные технологии: по материалам Международной конференции «Диалог 2013». Вып. 12(19). -М.: РГГУ, 2013.
16. Аристотель. Риторика. Поэтика. -М.: Лабиринт, 2000.
17. Аристотель. Сочинение в четырёх томах. Т. I. -М.: Мысль, 1976.
18. Арно А., Лансло К. Грамматика общая и рациональная, содержащая основы искусства речи, изложенные ясным и

естественным образом, толкование общего в языках и главные различия между ними, а также – многочисленные новые замечания о французском языке (Перевод с французского Н.Ю.Бокадоровой). - М.: Прогресс, 1990.

19. Арутюнова Н.Д. Типы языковых значений. -М.: Наука, 1988.

20. Бенвенист Э. Общая лингвистика. -М.: Прогресс, 1974.

21. Бичурин Н.Я. Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. Т. III. -М.; -Л.: Изд-во АН СССР, 1953.

22. Болдырев Н.Н. Методологические проблемы когнитивной лингвистики. -Воронеж: Воронежский государственный университет, 2001.

23. Васильев В.В. Трудная проблема сознания. -М.: Прогресс-Традиция, 2009.

24. Величковский Б.М. Функциональная организация познавательных процессов//Автореф. дисс. докт. психол. наук. -М., 1987.

25. Виноградов В.В. Русский язык в школе. 1951, № 2.

26. Гак В.Г. К типологии лексических номинаций//Языковая номинация. Общие вопросы. -М.: Наука, 1977.

27. Гулямов А.Г. Слобообразование путем внутренних изменений слова в узбекском языке//Научная сессия Академии наук УзССР. - Ташкент, 1947.

28. Гумбольдт В. фон. Язык и философия культуры. -М.: Прогресс, 1985.

29. Гумбольдт В.фон. Избранные труды по языкознанию. -М.: Прогресс, 2000.

30. Гумилев Л. История народа Хунну. -М.: АСТ: Астрель, 2010.

31. Дебец Г.Ф. Палеоантропология СССР. -М.; -Л.: Изд-во Академии наук Союза ССР, 1948.

32. Демьянков В.З. Событийность в языке средств массовой информации//Язык средств массовой информации как объект междисциплинарного исследования: тезисы докладов Международной научной конференции. -М.: Изд-во МГУ, 2001.

33. Джеймс У. Психология. -СПб.: Изд-во К.Л.Риккера, 1911.

34. Дубровский Д.И. Психическая причинность, как вид информационной причинности//Российская академия наук №5-1, 2011.

35. Евстафьева С.А., Афанасьева И.И., Чуева Л.М. и др. Язык как способ выражения национального менталитета//Молодой ученый, № 49 (278), 2019
36. Жеребило Т.В. Генератор фраз/Словарь лингвистических терминов. -Назрань: Пилигрим, 2010.
37. И.Т.Вепрева, С.Ю.Данилов. Г.О.Винокур и современная словообразовательная наука. -Екатеринбург: Изд-во Уральского ун-та. 2001.
38. Иосилевич Н.В. О структурно-семантических особенностях двусоставных предложений//Гуманитарные, социально-экономические и общественные науки. Вып. №10.
39. Камалова А.А., Берестнев Г.И. Эмоции как предмет лингвистического изучения//Przegląd wschodnioeuropejski x/2 2019.
40. Каратини Р. Введение в философию. -М.: Эксмо, 2003.
- Кацнельсон С.Д. Типология языка и речевое мышление. -Л.: Наука, 1972.
41. Кляшторный С.Г., Султанов Т.И. Государство и народы Евразийских степей: от древности к Новому времени. -СПб: «Петербургское востоковедение», 2009.
42. Левитов Н.Д. О психических состояниях человека.-М.: Просвещение, 1964.
43. Литвинович А. Г. Связь каузативности с другими категориями глагола//Вестник МДПУ, №1, 2013.
44. Маслов Ю.С. Введение в языкознание. -М.: Высшая школа, 1998.
45. Мельчук И.А. Опыт теории лингвистических моделей «Смысл↔текст». -Москва: Языки русской культуры, 1999.
46. Можейко М.А. История философии/Энциклопедия. -Минск: Книжный Дом, 2002.
47. Падучева Е.В. Динамические модели в семантике лексики. -М.: Языки славянской культуры, 2004.
48. Платон. Полное собрание творений Платона. Т. IV. Филеб. -Л.: АCADEMIA, 1929.
49. Платон. Собрание сочинений в четырёх томах. Т. II. -СПб.: Изд-во Санкт-Петербургского университета, 2007.
50. Расулов Р. Умумий тилшунослик. -Тошкент: Низомий номидаги ТошДПУ, 2010.
51. Раҳимов А.С. Лексик ва семантик деривация муаммолари. -Тошкент: Наврўз, 2011.

52. Романова Н.П. Взгляды А.А.Шахматова на словообразование. - ГПИБ, 1966.
53. Сабитова З.К. Прошлое в настоящем. Русско-тюркские культурные и языковые контакты. -Алматы: Қазақ университеті, 2007.
54. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. -Жиззах: Сангзор, 2006.
55. Сафаров Ш. Семантика. -Тошкент.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2013.
56. Смирницкий А.И. Некоторые замечания о принципах морфологического анализа основ//Доклады и сообщения филологического факультета. -М.: МГУ Вып. 5. 1948.
57. Сусов И.П. Введение в теоритическое языкознание. Модуль 5. Основы общего смнтаксиса. Средства выражения синтаксических связей и функций.
58. Тарасова О.Д. Основные направления исследования эмоций в лингвистике//Вестник МГОУ, 2015, № 3.
59. Таскин В.С. Материалы по истории кочевых народов в Китае. Вып. 2. -М.: Наука, 1990.
60. Татевосов С.Г. Событийно-структурная морфология в ненецком языке//Рема, № 3, 2018.
61. Тенишев Э.Р. Избранные труды//Гуннов язык. -Уфа: ИИЯЛ УНЦ РАН, 2011.
62. Терешина Ю. В. Межкатегориальные связи каузативных конструкций//Автореф. дис. канд. филол. наук. -Ижевск, 2008.
63. Трусеев Н.К. Каузативные конструкции в английском публицистическом тексте//Актуальные проблемы теоритической и прикладной лингвистики: сборник научных трудов. -Ульяновск: УлГТУ, 2010.
64. Тожиев Ё. Ўзбек тилида шахс отлари ясовчи аффикслар синонимияси. -Тошкент: ТошДУ, 1987.
65. Турниёзов Б.Н. Ҳозирги ўзбек тилида тенг компонентли мураккаб синтактик қурилмалар деривацияси. -Самарқанд: СамДЧТИ, 2008.
66. Турниёзов Н.Қ. Гап ва унинг деривацион хусусиятлари//Ўзбек тили деривацион синтаксиси. -Тошкент: Наврўз, 2011.
67. Турниёзов Н.Қ. Гапнинг трансформацион методи асосидаги таҳлили//Структур синтаксис асослари. -Тошкент: Фан, 2009.

68. Турниёзова Ш.Н. Матн деривацияси//Ўзбек тили деривацион синтаксиси. -Тошкент: Наврўз, 2011.
69. Хайруллаев Х.З. Тил бирликларининг поғонали муносабати. -Тошкент: Фан, 2008.
70. Хаматова А.А. Анализ иностранных заимствований в современном китайском языке//Гуманитарные исследования в восточной сибире и на дальнем востоке, № 3, 2016.
71. Хасанов Э.Р. О специфике семантической и лексической деривации в современном русском языке//Вестник Челябинского государственного университета. 2018. № 6 (416). Филологические науки. Вып. 113.
72. Холодович А. А. Типология каузативных конструкций. Морфологический каузатив. -Л.: Наука, 1969.
73. Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. -Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002.
74. Ҳожиев А. Ўзбек тилида сўз ясалиши. -Тошкент: Ўқитувчи, 1989.
75. Шаумян С.А. Аппликативная модель. Генератор слов//Структурная лингвистика. -М.: Наука, 1965.
76. Шаховский В.И. Эмоции. -М.: Книжный дом «ЛИБРОКОМ», 2009.
77. Элиаде М. История веры и религиозных идей. Т. III. -М.: Критерион, 2002.
78. Якубова Н.К. Правила формального синтеза узбекских словоформ//Система и уровни языка. -М.: Наука, 1969.

**B.N.Turniyazov, R.B.Turniyazova**

**KAUZATOLOGIYA ASOSLARI**

Monografiya

ISBN 978-9910-9150-3-1

Muharrir: S.Karimova  
Musahhah: Z.Usmanova  
Tex.muharrir: Sh.Abduraximov

© “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti,  
140104, Samarqand sh., Bo‘stonsaroy ko‘chasi, 93

Bosmaxona tasdiqnomasi:



4268

Nashriyot tasdiqnomasi:

№ 1243-7560-5999-432c-2125-1811-8655

Bosishga ruxsat etildi: 01.08.2024-yil.

Ofset bosma qogʻozi. Qogʻoz bichimi 60x84 <sup>1/16</sup>.

«Times New Roman» garniturasini. Ofset bosma usuli.

Hisob nashriyot t. 6,8: Shartli b.t.: 5,2.

Adadi: 100 nusxa. Buyurtma № 184.

---

SamDCHTI tahrir-nashriyot boʻlimida chop etildi.  
Samarqand sh., Boʻstonsaroy koʻchasi, 93-uy.